

O'QUV-USLUBIY  
MAJMUA

TOSHKENT DAVLAT  
YURIDIK UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI YURIDIK  
KADRLARNI XALQARO  
STANDARTLAR BO'YICHA  
PROFESSIONAL O'QITISH  
MARKAZI



YURISPRUDENSIYA

2023

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL  
ETISH BOSH ILMIY - METODIK MARKAZI**

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI YURIDIK  
KADRLARNI XALQARO STANDARTLAR BO'YICHA PROFESSIONAL  
O'QITISH MARKAZI**

**YURISPRUDENSIYA**

qayta tayyorlash va malaka oshirish  
yo'nalishi

**"JINOYAT ODIL SUDLOVNING ASOSLARI"**  
moduli bo'yicha

**O'QUV-USLUBIY MAJMUA**

**Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining  
2020-yil 7-dekabrdagi 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga  
muvofiq ishlab chiqilgan.**

**Tuzuvchilar:**

- D.Suyunova – TDYU Jinoyat - protsessual huquqi kafedrasi dotsenti, yuridik fanlar doktori

**Taqrizchilar:**

- D.Bazarova – TDYU Jinoyat-protsessual huquqi va kriminalistika kafedrasi professori v.b., yuridik fanlar nomzodi

*O‘quv-uslubiy majmua Toshkent davlat yuridik universiteti kengashining  
20\_\_-yil \_\_ \_\_\_\_\_dagi \_\_-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.*

## **MUNDARIJA:**

<b>I. ISHCHI DASTUR .....</b>	<b>4</b>
<b>II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI.....</b>	<b>12</b>
<b>III. NAZARIY MATERIALLAR.....</b>	<b>21</b>
<b>IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI.....</b>	<b>67</b>
<b>V. KEYSLAR BANKI .....</b>	<b>74</b>
<b>VI. GLOSSARIY.....</b>	<b>87</b>
<b>VII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI .....</b>	<b>99</b>
<b>VIII. TAQRIZLAR.....</b>	<b>101</b>

## I. ISHCHI DASTUR

### KIRISH

Ushbu dastur O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 12-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4732-son, 2017-yil 7-fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019-yil 27-avgustdagagi “Oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son, 2017-yil 27-iyuldagagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son, shuningdek Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-son qarorilarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u zamonaviy talablar asosida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi.

### Modulning maqsadi va vazifalari

Tinglovchilarda jinoiy-huquqiy fanlar haqidagi bilimlarini takomillashtirish, ushbu huquq sohasining muammolarni aniqlash, tahlil etish va baholash ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirish, shuningdek jinoyat va jinoyat-protsessual huquqining asosiy masalalari yuzasidan chuqur bilim olishni ta’minalash, jinoyat va jinoyat-protsessual huquqi institutlarini tanqidiy tahlil etish va baholash uchun zaruriy bilimlar asosini ta’minalash, mantiqiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish, jinoyat va jinoyat-protsessual munosabatlarga oid qonunlarni amalda qo’llay olish ko‘nikmasini shakllantirish modulining maqsad va vazifalarini tashkil etadi.

### Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

“Jinoyat odil sudloving asoslari” modulini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

### **Tinglovchi:**

- jinoyat-huquqiy faoliyat sohasiga tegishli normativ-huquqiy hujjatlar va ularga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarini;
- jinoyat-huquqiy faoliyat sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni huquqiy usul va vositalarini;
- o'quv jarayonida nazariy tayyorgarlikni huquqni qo'llash faoliyati bilan uzviy bog'lashni va sud-huquq tizimini modernizatsiya qilish haqidagi ma'lumotlarni **bilishi** kerak.

### **Tinglovchi:**

- jinoyat-huquqiy faoliyat sohasiga tegishli fanlarning so'nggi yutuqlarini, ilg'or xorijiy tajribani o'rganish va tahlil qilish;
- jinoyat-huquqiy faoliyat sohasiga oid qonunchilik normalarini, ilmiy va amaliy tadqiqotlarni o'quv jarayonida qo'llay olish;
- jinoyat-huquqiy faoliyat sohasiga tegishli fanlarni o'qitishda zamonaviy innovatsion pedagogika, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'quv jarayoniga faol tadbiq etish;
- huquqiy fanlarni o'qitishda ta'lif berishning modulli tizimidan kengroq foydalanish;
- huquqiy fanlarga taalluqli bo'lgan tadqiqotlarni aniqlash va tahlil qilish;
- huquqiy fanlarni o'qitishda amaliyot materiallaridan kengroq foydalangan holda tahliliy fikrlash;
- respublikamizdag'i va xorijiy davlatlardagi huquqiy fanlarga tegishli ilmiy yutuqlarni, maxsus adabiyotlarni va boshqa axborotlarni o'rganish;
- huquqiy fanlar doirasida taqdimotlar yaratish, mustaqil va masofaviy ta'lifni tashkil etishda video ma'ruzalarni tayyorlash va ulardan foydalanish **ko'nikmalariga** ega bo'lishi lozim.

### **Tinglovchi:**

- jinoyat-huquqiy faoliyat sohasiga tegishli normativ-huquqiy hujjatlarni sharhlash;
- jinoyat-huquqiy faoliyat sohasiga tegishli amaliyot materiallarini o'rganish, tahlil qilish va olingan ma'lumotlar asosida tegishli xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish;
- jinoyat-huquqiy faoliyat sohasiga oid xorijiy tajribalarni o'rganish hamda ularni milliy qonunchilik bilan qiyosiy tahlil qila olish **malakalariga** ega bo'lishi zarur.

### **Tinglovchi:**

- jinoyat huquqi va protsessi, shuningdek yuridik ta'lifning boshqa ustuvor sohalari bo'yicha talabalarni fundamental, shuningdek amaliy kasbiy tayyorgarligini ta'minlash;
- o'quv jarayonini nazariy tayyorgarlikning huquqni qo'llash faoliyati bilan uzviy bog'liqligini, talabalarda tahliliy fikrlashni shakllantirishni, yangi bilimlarni mustaqil egallash va qo'llashni ta'minlaydigan o'qitishning zamonaviy shakl va metodlari, pedagogik, axborot-kommunikatsiya, innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish;

- huquqni qo'llash amaliyotiga, o'quv jarayoniga ilmiy ishlanmalar natijalarini samarali joriy etish, maxsus fanlarini o'qitishda kazus va muammoli savollar tuzish **kompetensiyalarini** egallashi lozim.

### **Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar**

“Jinoyat odil sudlovining asoslari” moduli ma’ruza, amaliy va ko‘chma mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

O‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo’llanilishi nazarda tutilgan:

- ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;

-jinoyat, jinoyat-protsessual fanidan muammoli vaziyat asosida dars mashg‘ulotini olib borish, shaxsning jinoiy harakatlarini kvalifikatsiya qilishini o‘rgatish, sodir etilgan jinoyati yuzasidan sud jarayonini olib borish tartibini namoyon etish, sud qarorlarini qayta ko‘rib chiqish bilan bog‘liq hususiyatlarni tahlil qilish;

-jinoyat ishlari bo'yicha sud hujjatlaridan foydalanish, ularni tuzishni o'rganish bo'yicha amaliy mashg‘ulotlarini o'tkazish;

-o'tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda ko‘chma mashg‘ulotlar test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruuhlar bilan ishlash va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo'llash nazarda tutiladi.

### **Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi**

“Jinoyat odil sudlovining asoslari” moduli o‘quv rejadagi “Fuqarolik-huquqiy fanlar” va “Ma’muriy-huquqiy fanlar” kabi modullar bilan o‘zaro bog‘liq hamda uslubiy jihatdan uzviy bog‘langan holda pedagoglarning kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi.

### **Modulning oliv ta’limdagi o'rni**

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar jinoiy-huquqiy muammolarini aniqlash va ularni tahlil etish va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar.

## Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Umumiy o'quv yuklamasi Soatlari			Auditoriya o'quv yuklamasi
		Jami	Nazariy	Amaliy	
					Ko'chma mashg'ulot
1.	Zamonaviy jinoyat huquqi rivojlanishining umumiy qoidalari. Jinoyat qonunchiligining asoslari	6	2	4	
2.	Jinoiy harakatlarini kvalifikatsiya qilish to'g'risidagi bilimlarni shakllantirishdagi yondashuvlar	2	2		
3.	Sudga qadar bosqichida sud nazoratini amalga oshirish	4	2	2	
4.	Jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquq va manfaatlarini himoya qilish	4		2	2
5.	Sud qarorlarining qonuniyligi, asosligi va adolatliligini tekshirish masalalari	6	2	2	2
6.	Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha zamonaviy talab va standartlar	4	2	2	
<b>Jami</b>		<b>26</b>	<b>10</b>	<b>12</b>	<b>4</b>

## BAHOLASH MEZONI

Mazkur modul yuzasidan tinglovchilarning bilim, ko'nikma va malakalari nazorati belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

## **NAZARIY VA AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI**

### **1-mavzu. Zamonaviy jinoyat huquqi rivojlanishining umumiy qoidalari. Jinoyat qonunchiligining asoslari**

Jinoyat huquqi fani tushunchasi, mazmun-mohiyati, modulni o‘qitish metodologiyasining boshqa yuridik fanlaridan farqli jihatlari. Jinoyat huquq fanidan dars mshg‘uloti uchun manbalar izlash.

### **2-mavzu. Jinoiy harakatlarini kvalifikatsiya qilish to‘g‘risidagi bilimlarni shakllantirishdagi yondashuvlar**

Jinoiy harakatlarini kvalifikatsiya qilish asoslari, mavzuni o‘qitish metodologiyasining xususiyatlari. Aybdorning jinoiy harakatlariga to‘g‘ri huquqiy baho berishni o‘rgatish. Mavzuga oid mavzularni izlash. Mavzuga doir muammoli vaziyatni og‘zaki muhokama qilish.

### **3-mavzu. Sudga qadar bosqichida sud nazoratini amalga oshirish**

Sudga qadar bosqichida sud nazoratining asoslari va odil sudlovning shaffofigini ta‘minlashdagi roli. Sud nazorati mavzusini o‘qitishda sohadagi tajribali mutaxassislar faoliyatini tahlil qilish. Savollar tuzishda manbalardan foydalanish metodikasi.

### **4-mavzu. Jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquq va manfaatlarini himoya qilish**

Jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquq va manfaatlarini himoya qilish tushunchasi. Jinoyat protsessida himoyachining ishtirok etishi shart bo‘lgan holatlarni manbalar asosida tahlil qilish. Protsess ishtirokchilarining huquq va manfaatlarini himoya qilishni o‘rgatishda rolli o‘yinlar metodidan foydalanish.

### **5-mavzu. Sud qarorlarining qonuniyligi, asosligi va adolatlilikini tekshirish masalalari**

Sud qarorlarini qayta ko‘rib chiqishning o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish. Mavzuni o‘qitishda tajribali amaliyotchilarni jalb etishdan foydalanish. Muammoli vaziyatni muhokama qilishning asosiy mezonlari. Muammoli vaziyat asosida talabaning bilimini aniqlash.

### **6-mavzu. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha zamonaviy talab va standartlar**

Korrupsiyaga qarshi kurashishning tushunchasi, mazmun mohiyati. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha xorijiy tajribani manbalar asosida o'rganish va tahlil qilish. Muammoli savol tuzishda sud materiallaridan foydalanish.

## **KO'CHMA MASHG'ULOT MAZMUNI**

Jinoyat protsessida himoyachining ishtirok etishi shart bo'lgan holatlarni manbalar asosida tahlil qilish. Protsess ishtirokchilarining huquq va manfaatlarini himoya qilishni o'rgatishda rolli o'yinlar metodidan foydalanish.

Sud qarorlarini qayta ko'rib chiqishning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish. Mavzuni o'qitishda tajribali amaliyotchilarini jalg etishdan foydalanish. Muammoli vaziyatni muhokama qilishning asosiy mezonlari.

## **O'QITISH SHAKLLARI**

Quyidagi shakllarda ta'lif berish ko'zda tutilgan:

- binar ma'ruza, bit dars, debatlar, vebinar;
- Online ma'ruza;
- trening, videotrening;
- kichik ma'rızalar va suhbatlar (diqqatni jamlash va axborotni qabul qilish qobiliyatini shakllantiradi);
- klaster, sinkveyn (axborot yoki biron-bir tushunchani qisqa bayonini tuzish ko'nikmani shakllantiradi);
- kichik guruhlarda ishlash, bumerang (materialni mantiqan tizimli, muammoli bayon etishni rivojlantiradi);
- blis o'yin, qora quti (aniq muammoli vaziyatni tahlil qilish, kamchiliklar sababini yo'l-yo'lakay aniqlashga yo'naltiriladi).

## **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

### **I. Rahbariy adabiyotlar**

1. Mirziyoev Sh.M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи ma’ruzasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 48-b.
2. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.: “O‘zbekiston”. – 2017.– 102-b.
3. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488-b.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2017-yil 13-iyundagi “Qonun va adolat ustuvorligini ta’minlash – barcha ezgu maʼisadlarimizga erishishning eng muhim sharti” mavzusidagi ma’ruzasidan [http://uza.uz/oz/politics/qonun\\_va\\_adolat-ustuvorligini\\_taminlash-barcha-ezgu-masadlar-13-06-2017?phrase\\_id=2579526](http://uza.uz/oz/politics/qonun_va_adolat-ustuvorligini_taminlash-barcha-ezgu-masadlar-13-06-2017?phrase_id=2579526).

### **II. Normativ-huquqiy hujjatlar**

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2018.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagи PF–4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni // “Xalq so‘zi” gazetasining 2017-yil 8-fevraldagи 28(6722)-soni.
3. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – T.: Adolat, 2018.
4. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. – T.: Adolat, 2018.
5. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi. – T.: Adolat, 2018.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagи “Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3723-son qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 15.05.2018-y., 07/18/3723/1225-son, 01.10.2018-y., 06/18/5547/1975-son.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-iyuldagи “Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6034-son Farmoni.

### **III. Maxsus adabiyotlar**

1. R.Kabulov, A.Otajonov va boshq. Jinoyat huquqi (Maxsus qism). Darslik / Mas’ul muharrir Sh.T.Ikramov. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2014. – 824-b.
2. Inog‘omjonova Z.F. Jinoyat protsessida sud nazorati. O‘quv qo‘llanma T.: TDYuI, 2016. – 379-b.
3. Usmonaliev M., Bakunov P. Jinoyat huquqi (Umumiy qism). Darslik. – T.: Yangi asr avlodi, 2010. – 662-b.
4. Базарова Д. Адвокат как участник в досудебных стадиях уголовного процесса: монография/ D.B. Bazarova; Рецензенты: Б.Б.Хидоятов, Д.М. Миразов; ТГЮИ. - Т.: Extremum press, 2011. – 192-с.

### **IV. Elektron ta’lim resurslari**

1. <http://www.lex.uz>
2. <http://www.norma.uz>
3. <http://www.gov.uz>
4. [http:// www.law.uk.edu](http://www.law.uk.edu)
5. [http:// www.legislature.ru](http://www.legislature.ru)

## **II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI**

### **Materialni og‘zaki bayon qilish metodi**

Tinglovchilar tomonidan bilimlarni o‘zlashtirish o‘qituvchining tushuntirishini faol qabul qilish va puxta o‘ylash evaziga amalga oshiriladi. Bilimlarni uzatish vositasi sifatida o‘qituvchi nutqi muhim ahamiyatga ega. Bu o‘rinda o‘qituvchining tinglovchilar faoliyatiga rahbarligi mavzuni qo‘yish, rejani e’lon qilish, tinglovchilar faoliyatini boshqarishdan iborat bo‘ladi.

### **Suhbat metodi**

Tinglovchilar tomonidan bilimlarni o‘zlashtirish jaraèni: ular e’tiboriga havola etilaètgan savolning mohiyatini anglash, mavjud bilimlar va tajribani safarbar qilish, savolga oid ob’ektlarni o‘zaro taqqoslash, puxta o‘ylash va savollarga to‘g‘ri javob tayèrlashdan iborat. O‘qituvchining rahbarligi: mavzuni qo‘yish, savollarni ifodalash, berilgan javoblarni tuzatish, to‘ldirish va umumlashtirish kabi holatlarda namoèn bo‘ladi. Suhbat metodi yordamida bilimlarni o‘zlashtirishda tinglovchilar mavjud bilimlari va tajribalariga tayanadilar

### **“SWOT-tahlil” metodi**


**Metodning maqsadi:** mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandard tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S- (strength)	• Kuchli tomonlari
W- (Weakness)	• Zaif kuchsiz tomonlari
O- (opportunity)	• Imkoniyatlari
T-(Threat)	• To’siqlar

## “Xulosalash” (Rezyume, Veer) metodi

**Metodning maqsadi:** Bu metod murakkab, ko‘ptarmoqli, mumkin qadar muammoli xarakterdagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda tinglovchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlil qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

### Metodni amalga oshirish tartibi

- 
- 1 • Trener-o’qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi
  - 2 • Trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirishgach , har bir guruh umumiy muammoni tahlil qilishlari zarur bo’lgan qismlari tushirilgan tarqatma materallarni tarqating;
  - 3 • Har bir guruh o’ziga berilan muammosini atroficha tahlil qilib o’z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo‘yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;
  - 4 • Navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o’z taqsimotlarini o’tkazadilar, Shundan so’ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruruiy axborotlar bilan to’ldiriladi va mavzu yuklanadi

## “Keys-stadi” metodi

**“Keys-stadi”** - inglizcha so‘z bo‘lib, (“case” – aniq vaziyat, hodisa, “stadi” – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruvi fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo’llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqe-a-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qaerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

## Keys

## Usul

Hayotiy voqeylik

Muammoni anglash

Didaktik o'yin

Tahlil etish

Muammoni yechish  
majmuasi

Yechimini topish

### “Keys metodi”ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
<b>1-bosqich:</b> Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish;</li> <li>✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda);</li> <li>✓ axborotni umumlashtirish;</li> <li>✓ axborot tahlili;</li> <li>✓ muammolarni aniqlash</li> </ul>
<b>2-bosqich:</b> Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirig'ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash;</li> <li>✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash</li> </ul>
<b>3-bosqich:</b> Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining yechimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil yechim yo'llarini ishlab chiqish;</li> <li>✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish;</li> <li>✓ muqobil yechimlarni tanlash</li> </ul>
<b>4-bosqich:</b> Keys yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash;</li> <li>✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash;</li> <li>✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish</li> </ul>

## “FSMU” metodi

**Texnologiyaning maqsadi:** Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

### Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlar tarqatiladi:



- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiy tartibda taqdimot qilinadi.

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

## “Insert” metodi

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o‘zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o‘taydi.

## Metodni amalga oshirish tartibi:

- o‘qituvchi mashg‘ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko‘rinishida tayyorlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta’lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko‘rinishida namoyish etiladi;
- ta’lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda tinglovchilar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

Belgilar	1- matn	2- matn	3- matn
“V” – tanish ma’lumot.			
“?” – mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak.			
“+” bu ma’lumot men uchun yangilik.			
“_” bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarshiman?			

Belgilangan vaqt yakunlangach, tinglovchilar uchun notanish va tushunarsiz bo‘lgan ma’lumotlar o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izoh-lanadi, ularning mohiyati to‘liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg‘ulot yakunlanadi.

### “Tushunchalar tahlili” metodi

**Metodning maqsadi:** mazkur metod tinglovchilar yoki qatnashchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu bo‘yicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo‘llaniladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;

- tinglovchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi ( individual yoki guruhli tartibda);
- tinglovchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning to‘g‘ri va to‘liq izohini o‘qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan to‘g‘ri javoblar bilan o‘zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

### **“Blis-o‘yin” metodi**

**Metodning maqsadi:** tinglovchilarda tezlik, axborotlar tizmini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maksadida qo‘llash samarali natijalarni beradi.

### **Metodni amalga oshirish bosqichlari:**

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya’ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni sinchiklab o‘rganish talab etiladi. Shundan so‘ng, ishtirokchilarga to‘g‘ri javoblar tarqatmadagi “yakka baho” kolonkasiga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.
2. Navbatdagi bosqichda trener-o‘qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiradi va guruh a’zolarini o‘z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga ta’sir o‘tkazib, o‘z fikrlariga ishontirish, kelishgan holda bir to‘xtamga kelib, javoblarini “guruh bahosi” bo‘limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.
3. Barcha kichik guruhlarni tugatgach, to‘g‘ri harakatlar ketma-ketligi trener-o‘qituvchi tomonidan o‘qib eshittiriladi, va tinglovchilardan bu javoblarni “to‘g‘ri javob” bo‘limiga yozish so‘raladi.
4. “To‘g‘ri javob” bo‘limida berilgan raqamlardan «yakka baho» bo‘limida

berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bulsa “0”, mos kelsa “1” ball quyish so‘raladi. Shundan so‘ng “yakka xato” bo‘limidagi farqlar yuqoridan pastga qarab qo‘sib chiqilib, umumiy yig‘indi hisoblanadi.

5. Xuddi shu tartibda “to‘g‘ri javob” va “guruh bahosi” o‘rtasidagi farq chiqariladi va ballar “guruh xatosi” bo‘limiga yozib, yuqoridan pastga qarab qo‘siladi va umumiy yig‘indi keltirib chiqariladi.

6. Trener-o‘qituvchi yakka va guruh xatolarini to‘plangan umumiy yig‘indi bo‘yicha alohida-alohida sharhlab beradi.

7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo‘yicha o‘zlashtirish darajalari aniqlanadi.

### **“Munozara” metodi**

Ta’lim tizimida tizimlarda nutq o‘qitish, o‘z fikrini mustaqil va asosli bayon qilib, xulosalar chiqarish vositasi sifatida g‘oya muhim o‘rin egallaydi. Bu bajariladigan ishning bir turi bo‘lib, o‘zaro tortishish jarayonini keltirib chiqaradi va unga aniqlik kiritadi. Tinglovchilar tomonidan “o‘z so‘zi” o‘ziga xos uslub asosida izchil, savol fikr yuritiladi.

Munozara vaqtida tinglovchilar o‘zlariga ishongan holda savollarni munozara qilishadi. Munozara uchun shunday sharoit yaratishi kerakki, unda tinglovchilar o‘z fikrlarini ishonch bilan ochiq aytish, kamchiliklari uchun aybga qo‘ymasliklariga ishongan holda bayon etishlari lozim.

**Masalan: Ma’muriy ihtiyyoriylik ma’muriy hujjat qabul qilishga qanday ta’sirqiladi?**

## Munozara usulidan quyidagi maqsadlarda foydalanish mumkin

- 
- Yangi bilimlarni shakllatrirish
  - Og'izaki va yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirish
  - Mavzu yuzasidan fikr almashish asosida tegishli bilimlarga ega bo'lish

### “Pinbord” metodi

Pinbord inglizchadan: pin – mustahkamlash, board –doska ma’nosini bildiradi. Bu usulda munozara yoki suhbat amaliy usul bi-lan bog‘lanib ketadi. Metod maqsadi rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi vazi-fasini bajarish. Bunda tinglovchilarda muloqot yuritish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi, o‘z fikrini nafaqat og‘zaki, balki yozma ra-vishda bayon etish mahorati, mushohada qilish va tizimli fikr yuritish ko‘nikmasi rivojlanadi.

### “Portfolio”metodi

“Portfolio” – ( ital. rortfolio – portfel, ingl.hujjatlar uchun pap-ka) ta’limiy va kasbiy faoliyat natijalarini autentik baholashga xizmat qiluvchi zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan hisoblanadi. Portfolio mutaxassisning saralangan o‘quv-metodik ishlari, kasbiy yutuqlari yig‘in-disi sifatida aks etadi. Jumladan, tinglovchi yoki tinglovchilarning modul yuzasidan o‘zlashtirish natijasini elektron portfoliolar orqali tekshi-rish mumkin bo‘ladi. Oliy ta’lim muassasalarida portfolioning quyidagi turlari mavjud:

<b>Faoliyat turi</b>	<b>Ish shakli</b>	
	<b>Individual</b>	<b>Guruhiy</b>
Ta'limiya faoliyat	Tinglovchilar portfoliosi, bitiruvchi, doktorant, tinglovchi portfoliosi va boshq.	Tinglovchilar guruhi, tinglov-chilar guruhi portfoliosi va boshq.
Pedagogik faoliyat	O'qituvchi portfoliosi, rahbar xodim portfoliosi	Kafedra, fakultet, markaz, OTM portfoliosi va boshq.

### **Muammoli metod**

Muammoli metodning mohiyati mashg'ulotlar jarayonida muammoli vaziyatlarni yaratish va yechishdan iborat bo'lib, uning asosida didaktik ziddiyatlar yotadi. Ziddiyatlarni bartaraf etish nafaqat ilmiy bilish yo'li shu bilan birga o'quv yo'li hamdir.

### III. NAZARIY MATERIALLAR

#### 1. Zamonaviy jinoyat huquqi rivojlanishining umumiy qoidalari. Jinoyat qonunchiligining asoslari

**Reja:**

1. Jinoyat huquqi fani tushunchasi, predmeti, vazifalari va metodlari.
2. Jinoyat huquqining huquq tizimida tutgan o‘rni va uning boshqa huquq sohalari bilan o‘zaro aloqasi.
3. Jinoyat huquqi tizimi. Umumiylar va maxsus qismlar:
4. Jinoyat qonuni prinsiplari.

##### **1. Jinoyat huquqi fani tushunchasi, predmeti, vazifalari va metodlari.**

**jinoyat huquqi fani tushunchasi** – jinoyat va jazo haqidagi fan bo‘lib, ushbu sohada yuzagan keladigan ijtimoiy munosabatlarni o‘rganadi va tartibga soladi.

**jinoyat huquqi predmeti** – jinoyat, jinoiy javobgarlik , jazo hamda jazo tayinlash, javobgarlik va jazodan ozod qilish, sudlangan hamda tibbiy yo‘sindagi majburlov choralar bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan normativ-huquqiy hujjatlar, qonunni qo‘llash amaliyoti, hamda yuridik fanda mavjud bo‘lgan konseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar va huquqiy kategoriylar tashkil etadi.

**jinoyat huquqi vazifalari** – jinoyat huquqi vazifalari bevosita jinoyat qonuni (kodeks)da nazarda tutilgan qazifalardan kelib chiqib quyidagilardan iborat:

1. Jinoiy tajovuzlardan himoya qilish;
2. Jinoyatlarni oldini olish;
3. Qonunlarga riolya qilish ruhida tarbiyalash.

Ushbu vazifalar amalga oshirishda jinoyat qonuni prinsiplariga so‘zsiz amal qilish talab etiladi.

**jinoyat qonuni prinsiplari:** qonuniylik, fuqarolarning qonun oldida tengligi, demokratizm, insonparvarlik, odillik, ayb uchun javobgarlik, javobgarlikning muqarrarligi prinsiplaridir.

**metodlar** – bu jinoyat huquqini samarali o‘zlashtirish usul va uslublariga aytildi.

**jinoyat huquqi metodikasi** jinoyat-huquqiy tushuncha va hodisalarni o‘rganishda qo‘llaniladigan usul va vositalar yig‘indisini, tizimini ifodalaydi. Falsafiy metod hisoblangan dialektik metod bilan birgalikda yana boshqa

metodlardan ham foydalanish lozim. Bunday metodlarga quyidagilar kiradi: JK normalarining sanksya va dispozitsiyasini ishlab chiqishda qo'llaniladigan **yuridik metod**; son ko'rsatkichlari orqali jinoyat-huquqiy tushunchalar va hodisalarni sifatiy xilma-xilligini ko'rsatishga imkon beruvchi **statistik metod**; aholi orasida so'rovlardan o'tkazish orqali jinoyat huquqining turli jihatlarini o'rganishda qo'llanadigan **sotsiologik metod**; jinoyat huquqining jinoyat qonuni, prinsiplari, jinoyat, bir qancha jinoyatlar sodir etish, ishtirokchilik, jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilish kabi institutlarni sistema, ya'ni bir necha elementlardan iborat bo'lgan yaxlit bir butunlik sifatida o'rganishga imkon beradigan **tizimli metod**; qonun ijodkorligi, huquqni qo'llash va ilmiy tadqiqot maqsadlarida turli davlatlarning huquq tizimi va qonunchilagini solishtirishga imkon beradigan **qiyosiy-huquqiy metod**; qonunchilik va huquqni qo'llash sohasida o'tmish tajribasidan foydalanishga yordam beradigan **tarixiy metod** va boshqalar.

## **2. Jinoyat huquqining huquq tizimida tutgan o'rni va uning boshqa huquq sohalari bilan o'zaro aloqasi.**

Jinoyat huquqining huquq tizimida tutgan o'rni va uning boshqa huquq sohalari bilan o'zaro aloqasi:

Jinoyat huquqi huquq tizimidagi bir qator fanlar bilan bevosita bog'liqdir. Ayniqsa **jinoyat-protsessual huquqi, kriminologiya, kriminalistika, jinoyat-ijroiya huquqi** fanlari bilan bevosita bog'liqdir. Bu yuqorida aytilgan fanlarning jinoyat huquqi bilan bog'liqligi eng avvalo, ular vazifalarining umumiyligidira, ya'ni jinoyatchilikka qarshi kurashning umumiyligidir. Ana shu yuqorida aytilgan fanlarning norma va qoidalari faqat jinoyat fakti sodir etilishi munosabati bilan harakatga keladi. Ammo ularning har birining o'zi tartibga soladigan predmeti va uslubiga ega. **Jinoyat huquqi** sodir etilgan qilmishning jinoyat ekanligini aniqlash va shu jinoyat uchun jazo tayinlashni tartibga solsa, **jinoyat protsessual huquqi** sodir etilgan jinoyat yuzasidan surishtiruv, dastlabki tergov organlarining surishtiruv va tergov ishlarini olib borish ishni sudda ko'rish bilan bog'liq bo'lgan faoliyatini tartibga soladi. **Jinoyat ijroiya huquqi** esa, jinoyat sodir etganligi munosabati bilan jinoiy jazoga hukm qilinganlarning jazosini ijro etishdan kelib chiqqan munosabatlarni tartibga soladi. **Jinoyat huquqi, jinoyat protsessual huquqi, kriminologiya, kriminalistika va jinoyat-ijroiya huquqi** fanlari uchun moddiy fan hisoblanib, bu fanlar o'z boshlang'ich asoslarini jinoyat huquqidani oladi.

Jinoyat hodisasi jinoyat -huquqiy nuqtai nazardan olinganda, bu hodisa inson tomonidan jinoyat qonuni bilan taqilangan aktni sodir qilish deb baholanadi va bu faqat jinoyat huquqida ishlab chiqiladi. Sodir etilgan qilmishga jinoyat tarkibi qoidalari tadbiq etilib, jinoyat tarkibining to‘rtta tomoni, ya’ni jinoyatning ob’ekti, ob’ektiv tomoni, sub’ekti va sub’ektiv tomonlari tahlil qilinib, Jinoyat kodeksi Maxsus qismining muayyan moddasi belgilariga taqqoslab ko‘riladi va o‘sha moddada nazarda tutilgan jinoyat sodir etilgan deb hisoblanadi.

Jinoyat huquqi ma’lum darajada **ma’muriy huquq** bilan bog‘liqdir. Ma’muriy huquq ma’muriy huquqbazarlikdan kelib chiqadigan munosabatlarni tartibga solsa, jinoyat huquqi jinoiy huquq buzishdan kelib chiqadigan munosabatlarni tartibga soladi. Jinoyat kodeksi Maxsus qismining bir qancha moddalarida muayyan qilmish uchun ma’muriy javobgarlikka tortilgan shaxs yana shunday qilmishni sodir qilsa qilmish jinoyatga o‘sib chiqqan hisoblanadi va shaxs jinoiy javobgarlikka tortiladi.

### **3. Jinoyat huquqi tizimi. umumiylar va maxsus qismlar:**

Jinoyat huquqi (uning shakli sifatida Jinoyat kodeksi ham) ikki qismdan — **Umumiylar** va **Maxsus** qismlardan tashkil topgan.

**Umumiylar** jinoyat huquqining umumiylar qoidalari va prinsiplaridan iborat. Jinoyat huquqining Umumiylar qismi ikkita asosiy tushuncha bilan bog‘liq bo‘lib, ular jinoyat va jazo tushunchalaridir. Qonun Jinoyat kodeksining vazifalari va prinsiplarini; jinoyat qonunining hudud va vaqt bo‘yicha amal qilish kuchini; jinoiy javobgarlikning asoslarini belgilaydi; har bir fan tarmog‘i o‘ziga tegishli sohaga tushuncha beradi va jinoyat huquqi ham jinoyatlarni turkumlarga ajratadi (tasniflaydi); ayb va uning shakllarini belgilaydi; jinoiy javobgarlikka tortilish yoshini va javobgarlikka tortilishi mumkin bo‘lgan shaxslar doirasini belgilaydi; qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar doirasini belgilaydi va ularning mazmunini ochib beradi; jinoyat bosqichlari va ishtirokchilikda sodir etiladigan jinoyatlarning tasnifini beradi; jazoning maqsadi va har bir jinoiy jazoning tizimini berib, har bir jazoning mazmunini ochib beradi; jinoiy javobgarlik va jazo tayinlash hamda javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilishning mazmunini ochib beradi; voyaga yetmaganlarning javobgarligini alohida ajratib belgilaydi va nihoyat tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini belgilaydi.

**Maxsus** qismi alohida jinoyatlar va shu jinoyatlarni sodir etganlik uchun tayinlanadigan jazolarni belgilaydi. Jinoyat huquqi ana shu ikki qismdan iborat bo‘lsada Umumiylar va Maxsus qismlari bir biridan alohida mustaqil huquq sohalari

bo‘lmasdan, ular bir-biri bilan chambarchas bog‘langan bir butun yagona jinoyat huquqini tashkil etadi. Ularning yagonaligi vazifalarining birligida va biri ikkinchisisiz mavjud bo‘la olmasligidadir. Jinoyat huquqining Maxsus qismida alohida jinoyatlar va shu jinoyatni sodir qilganlik uchun jazo belgilangan bo‘lsa, Umumiy qismi moddalarida Maxsus qismi moddalarining amalda qo‘llanish qoidalari o‘z ifodasini topgan. Qisqa qilib aytganda, Umumiy qismining moddalari Maxsus qismi moddalarining amalda qo‘llashning kaliti hisoblanadi. Ular hayotda amalda tadbiq etishda birgalikda qatnashadi. Jinoyat kodeksining Umumiy qismining normalariga murojaat qilmasdan Maxsus qismining normalarini amalda tadbiq etib bo‘lmaydi, Umumiy qismining normalarini amalda tadbiq etilishi esa faqat Maxsus qismi normalari orqali amalga oshiriladi. Shunday qilib, jinoyat huquqi Umumiy va Maxsus qismlarining yagonaligi ularning vazifalarining birligida, ya’ni shaxsni, uning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini, mulkni, tabiiy muhitni, tinchlikni, insoniyat xavfsizligini jinoiy tajovuzlardan qo‘riqlash, shuningdek, jinoyatlarning oldini olish, fuqarolarni respublika Konstitutsiyasi va qonunlarga rioya qilish ruhida tarbiyalashdagi vazifalarining birligida ifodalanadi.

#### **4. Jinoyat qonuni prinsiplari.**

**Jinoyat qonuni prinsiplari:** qonuniylik, fuqarolarning qonun oldida tengligi, demokratizm, insonparvarlik, odillik, ayb uchun javobgarlik, javobgarlikning muqarrarligi prinsiplaridir.

**qonuniylik prinsipi** — O‘zR JK 4-moddasida jinoyat huquqining qonuniylik prinsipi berilgan bo‘lib, sodir etilgan qilmishning jinoiyligini, jazoga sazovorligi va boshqa huquqiy oqibatlari faqat Jinoyat kodeksi bilan belgilanadi.

**fuqarolarning qonun oldida tengligi prinsipi** — O‘zR JKning 5-moddasida fuqarolarning qonun oldidagi tengligi prinsipi berilgan bo‘lib, unda jinoyat sodir etgan shaxslar jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, bir xil huquq va majburiyatlarga ega bo‘lib, qonun oldida tengdirlar deyiladi.

**demokratik prinsipi** — O‘zR JK ning 6-moddasida jinoyat huquqining demokratik prinsipi bayon qilingan. Jamoat birlashmalari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va jamoalar jinoyat sodir etgan shaxsning axloqini tuzatish ishiga qonunda nazarda tutilgan hollarda jalg qilinishlari mumkin.

**insonparvarlik prinsipi** — O‘zR JK ning 7-moddasida jazo va boshqa huquqiy ta’sir choralari jismoniy azob berish yoki inson qadr-qimmatini kamsitish maqsadini ko‘zlamaydi.

**odillik prinsipi** — Jinoyat sodir etishda aybdor bo‘lgan shaxsga nisbatan qo‘llaniladigan jazo yoki boshqa huquqiy ta’sir chorasi odilona bo‘lishi, ya’ni jinoyatning og‘ir yengilligiga aybning va shaxsning ijtimoiy xavflilik darajasiga muvofiq bo‘lishidir.

**ayb uchun javobgarlik prinsipi** — shaxs qonunda belgilangan tartibda aybi isbotlangan ijtimoiy xavfli qilmishlari uchungina javobgar bo‘lishidir.

**javobgarlikning muqarrarligi prinsipi** — muayyan jinoyat tarkibining barcha alomatlari mavjud bo‘lgan qilmishni sodir etish javobgarlikka tortish uchun asos bo‘ladi.

### **Nazorat savollari:**

1. Jinoyat huquqining predmetini aytинг.
2. Jinoyat huquqining vazifalari nimalardan iborat.
3. Jinoyat huquqining muhofaza qiluvchi, ogohlantiruvchi va tarbiyalovchi muhokama eting.
4. Jinoyat huquqi manbalarini aytинг.
5. Jinoyat huquqining prinsiplar tizimini tavsiflab bering.
6. Jinoyat huquqida qanday konstitutsiyaviy prinsiplar mujassamlashgan.
7. Qonuniylik prinsipiga ko‘ra shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish asosini tavsiflab bering.
8. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligidagi huquq analogiyasini qo‘llash imkoniyatlarini muhokama eting.
9. Fuqarolarning qonun oldida tengligi prinsipining mohiyati va ahamiyatini muhokama eting.
10. Demokratizm prinsipining mohiyati va ahamiyatini muhokama eting.

## **2. Jinoiy harakatlarini kvalifikatsiya qilish to‘g‘risidagi bilimlarni shakllantirishdagi yondashuvlar**

### **Reja:**

1. Jinoiy harakatlarini kvalifikatsiya qilish asoslari, mavzuni o‘qitish metodologiyasining xususiyatlari.
2. Aybdorning jinoiy harakatlariga to‘g‘ri huquqiy baho berishni o‘rgatish.

#### **1. Jinoiy harakatlarini kvalifikatsiya qilish asoslari, mavzuni o‘qitish metodologiyasining xususiyatlari**

Jinoiy javobgarlikka tortish va jazo tayinlash uchun shaxs JK Maxsus qismining aynan qaysi normasini buzganligini aniqlash lozim. Bunda sodir etilgan qilmishning jinoyat tarkibi JK Maxsus qismida nazarda tutilgan yoki tutilmaganligini aniqlash lozim. Bu jarayon jinoyatni kvalifikatsiya qilish jarayoni deb ataladi.

Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish tushunchasi keng va tor ma’noda ishlataladi.

Tor ma’noda kvalifikatsiya qilish jinoyat-huquqiy normalarga muvofiq keluvchi ijtimoiy xavfli qilmishning huquqiy bahosidir.

Keng ma’noda kvalifikatsiya muayyan mantiqiy jarayon bo‘lib, Jinoyat kodeksi. Maxsus qismida nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsning qilmishida jinoyat tarkibi mayjudligini aniqlash bo‘yicha muayyan shaxslarning faoliyatidir. Jinoyat huquqi normalarini qo‘llashning alohida bosqichlari jinoyat huquqi nazariyasida jinoyat qonunini sharhlash, jinoyat qonuning vaqt bo‘yicha va hududda amal qilishi, jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish, jazo tayinlash va undan ozod qilish, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish, sudlanganligini olib tashlash va bekor qilish va shu kabi boshqa maxsus nomlarni kasb etdi. Jinoyat huquqi normalarini qo‘llashning ilmiy asoslari bilan yuristlarni tanishtirish, ularga nazariy bilimlar berish va amaliy faoliyatga tayyorlash jarayonidagi asosiy vazifalardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Kvalifikatsiyalashning maqsadi ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish uchun huquqiy asos mavjudligini aniqlashdir.

Sodir etilgan jinoyatni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilishni ta’minalash – huquqni muhofaza qiluvchi organlarning asosiy vazifalaridan biridir.

Jinoyatni kvalifikatsiya qilishda sodir etilgan qilmish yuridik tahlil qilinadi: tajovuzning ob’ekti aniqlanadi, uning konkret belgilari tavsiflanadi, ob’ektiv va sub’ektiv tomonlari, sub’ektini xarakterlaydigan belgilari aniqlanadi. Bunday tahlil sodir etilgan qilmishda qanday jinoyatning tarkibi mavjudligi va ushbu qilmishni sodir etgan shaxsni JKning qaysi moddasi bilan javobgarlikka tortish mumkinligi haqida bir fikrga kelishga yordam beradi.

Kvalifikatsiya masalasi juda muhim amaliy ahamiyatga ega. Kvalifikatsiya qilish muammolari surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, suda va advokatda har bir jinoyat ishi yuzasidan vujudga keladi. Har qanday jinoyat ishini tergov qilish bosqichida ham sudda ko‘rish davrida ham tegishli mansabdor shaxslar

tomonidan jinoyatni kvalifikatsiya qilish amalga oshiriladi.

Jinoyatni kvalifikatsiya qilish tushunchasi nazariya va amaliyotda ikki xil ma'noda qo'llaniladi: a) kvalifikatsiya bu – muayyan mantiqiy jarayon sifatida, u yoki bu shaxsning ko'rib chiqilayotgan muayyan holatning JK Maxsus qism normasida belgilangan jinoyat tarkibi belgilariga mosligini aniqlashdagi faoliyati; b) kvalifikatsiya – ijtimoiy xavfli qilmishning huquqiy jihatdan baho berilishi. Bu ma'nolarning ikalasi o'zaro bog'liq. Kvalifikatsiya tushunchasini yoritishda bu ikki ma'noni uyg'unlashtirib, sodir etilgan qilmish belgilar bilan jinoyat huquqiy normada nazarda tutilgan jinoyat tarkibi belgilar o'rtaсидаги айнан о'xshashlikni aniqlash va yuridik jihatdan mustahkamlash, deb berish mumkin.

Jinoyatni kvalifikatsiya qilish jinoyat protsessining barcha bosqichlarida amalga oshiriladi. Jinoyatni kvalifikatsiya qilish – bu dinamik jarayon bo'lib, jinoyat ishini yuritishning turli bosqich-larida o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Huquqni muhofaza qiluv-chi organlar xodimlari jinoyat protsessining turli bosqichlarida jinoyatni kvalifikatsiya qilishni amalga oshira turib, "nomalum-likdan to'liq aniqlikka" qarab boradilar. Xususan, jinoyat ishini qo'zg'atishda sodir etilgan jinoyat haqida juda kam ma'lumot bo'ladi. Tergov qilish va ayblov xulosasini tuzish jarayonida tergov organlari sodir etilgan jinoyat haqida barcha ahamiyatli va zarur ma'lumotlarga ega bo'lishlari kerak. Bu hol jinoyatni kvalifikatsiya qilish to'liq ekanligi va yakunlanganligidan dalolat beradi.

Jinoyatni kvalifikatsiya qilishning turli bosqichlari yuzasidan so'z yuritib, tergovning dastlabki bosqichida jinoyatni aniq va to'la baholash uchun surishtiruvchi yoki tergovchi imkoniyati cheklangan bo'ladi. Jinoyatni aniqlash, ayblanuvchilarni topish, jinoyat tarkibi belgilarini aniqlash, ma'lumotlarni topish uchun ko'p mehnat talab qilinadi, olingan yangi ma'lumotlar esa jinoyatning huquqiy tavsifi o'zgarishiga olib keladi va bu tabiiy holdir.

Jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichida jinoyatning kvalifikatsiyasi dastlabki, yo'naltiruvchi xususiyatga ega bo'ladi, biroq, jinoyat ishi tugatilganda kvalifikatsiya to'liq va aniq bo'lishi zarur. Jinoyat ishini tergov qiluvchi va kvalifikatsiyani amalga oshiruvchi shaxs nuqtai nazaridan ushbu kvalifikatsiya absolyut haqiqat xususiyatini namoyon qilishi kerak, ya'ni bu huquqiy baho yagona va har qanday muqobililikni istisno qilishi kerak. Ammo amaliyotda, jinoyat noto'g'ri kvalifikatsiya qilinganligi munosabati bilan sud ko'p ishlarni qayta kvalifikatsiya qilishi yoki uni qayta tergovga yuborishga majbur bo'ladi. Ba'zan advokatlar jinoyatning kvalifikatsiyasini aniqlashtirish to'g'risida iltimosnomalar kiritadi va bu iltimosnomalar ko'p hollarda sud tomonidan qabul qilinadi.

Shunday qilib, tergovchi tomonidan amalga oshirilgan va prokuror tomonidan tasdiqlangan kvalifikatsiya sodir etilgan qilmishga huquqiy baho berishdir. Kvalifikatsiya qilishni surishtiruv, tergov va sud organlarining ma'lum bir mantiqiy faoliyati deb oladigan bo'lsak, bu ishda mantiq asoslarni, mantiqiy va texnika-yuridik yo'llarni bilish davlat organlarining bu turdag'i faoliyatini amalga oshirishni to'g'ri yo'lga qo'yadi.

Albatta, tergovchi, surishtiruvchi, prokuror va sudya jinoyatni kvalifikatsiya

qilayotganda ularni fikrlashi yuridik texnikasi usullari va mantiq qonuniyatlaridan iboratligi haqida o'ylamaydilar. Bu odatiy va tushunarli hol, bunda yuristning professional tayyorgarligi va tajribasi namoyon bo'ladi. Yuristning fikrlash doirasi asta-sekin maxsus huquqiy fanlarni o'rganishda, hayotiy va ichki tajribasidan kelib chiqib shakllanadi. Mutaxasis ishni tez va to'g'ri kvalifikatsiya qilish uchun uzoq va qat'iyatli mehnat qilishi uning kasbiy mahoratini shakllanishiga olib keladi. Jinoyatni surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, suda tomonidan kvalifikatsiya qilinishi mantiqiy fikrlashning natijasi bo'lib, jinoyatga berilgan huquqiy bahodir. Asosan jinoyat huquqida kvalifikatsiyaga shunday baho beriladi.

Jinoyatni kvalifikatsiya qilish, qilmish qanday moddaga mos kelishini aniqlash ekanligini anglatadi. Boshqa so'z bilan aytganda, jinoyatning kvalifikatsiyasi hayotdagi muayyan voqeanning jinoyat normasida jinoyatlar tarkibiga kiritilishi tushuniladi.

Jinoyatning kvalifikatsiyasi normalar majmuasini tashkil etadi va muayyan voqelikni o'z ichiga oladi. O'z mazmuniga ko'ra yuridik kvalifikatsiyaning turlaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

Normani qo'llash, muayyan hayotiy voqelikda, ahamiyatli, tipik xususiyatlarni, shu xodisaning mazmunini ochib berishini va shu bilan qonun chiqaruvchi ham xuddi shularni nazarda tutganini anglatishini nazarda tutadi.

Jinoyat huquqiy normalarni qo'llash umumiyyadan maxsusga qarab amalgalashiriladi, ya'ni muayyan jinoyat tushunchasi (o'g'rilik, talonchilik, odam o'ldirish va boshqalar) jinoyat turi bo'lib umumiy huquqbazarlikni tashkil qiladi. Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror jinoyatni kvalifikatsiya qilayotganda o'zining ongida fikrlash bosqichlarni ketma-ket bosib o'tadi. Shunday qilib, birinchi navbatda, shu vokeada umuman jinoyat tarkibi mavjudmi yoki faqat axloqqa zid xatti-harakatni tashkil qiladimi degan masalani aniqlanishi kerak.

Ishni ko'rayotgan shaxsga huquqbazarlik yaqqol bo'lsa, bu huquqbu-zarlik qanday huquqbazarlik ekanligini aniqlash kerak. Umuman olganda bu xatti-harakatlar u yoki bu huquq normasiga ziddigi, sub'ekt huquq normalariga zid xatti-harakat qilganligini aniqlashdir. Barcha huquqbazarliklarning umumiy xususiyati ularning ijtimoiy xavflligidir. Ijtimoiy xavfllik bu ob'ektiv mavjud reallikdir, ishning ob'ektiv xususiyatidir. Ijtimoiy xavfllik huquqbazarlik turlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jinoyatlar ijtimoiy xavflligi eng yuqori bo'lgan huquqbu-zarliklar turkumiga kiradi. Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda asosiy muommolardan biri huquqbazarliklarni to'g'ri ajratishdir. Maxsus huquqiy tayyorgarlik, shaxsning kasbiy tajribasigina bu masalani to'g'ri hal qilishda yordam beradi. Ammo, amaliyotda huquqbazarlikning jinoyat yoki jinoyat emasligi haqida ham ma'lum muammolarga duch kelamiz.

Huquqbazarliklarni ajratish tushunchasi bevosita huquqiy munosabatlar bilan bog'liqidir. Mazmunan olganda, ajratish, ma'lum hayotiy voqelikda yuz bergen huquqiy munosabatni aniqlashni nazarda tutadi. Huquqbazarliklarni turlarga ajratayotganda, Jinoyat kodeksida jinoyatning umumiy tushunchasi borligini ham e'tiborga olish kerak. Shundan kelib chiqib, qilmishni jinoyat deb

kvalifikatsiya qilishda u quyidagi umumiy xususiyatlarga ega bo‘lishi lozim: ijtimoiy xavflilik, g‘ayriqonuniylik, ayblilik va jazoga sazovorlik. Huquqiy munosabatning turini aniqlashda, inson faoliyatiga jinoiy yoki jinoiy emas deb baho berishda quyidagilarni hisobga olish kerak:

Qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar – kam ahamiyatlilik, zaruriy mudofaa, oxirgi zarurat, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushslash vaqtida zarar yektazish, buyruq yoki boshqa majburiyatni bajarish munosabati bilan, kasb yoki xo‘jalik faoliyatiga bog‘liq asosli tavakkalchilik. Shu holatlarning mavjudligi insonning xatti-harakatlarida jinoyatning bir belgisi yo‘qligini anglatib, qilmishning jinoiyligin istisno etadi. Shu sababli qilmishni jinoyat deb kvalifikatsiya qilib ham bo‘lmaydi.

Surishtiruchi, tergovchi, sudya ishni kvalifikatsiya qilayotganda, muayan hayotiy hodisani (qilmish) aniqlab, taqqoslab, huquqbuzarlikning qanday huquq sohasi bilan tartibga solinishini, huquqning qaysi sohasi bilan muhofaza qilinishini aniqlaydi.

Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish jarayoni 3 ta bosqichdan iborat.

Dastlab harakatning o‘scha umumiy belgilari ajratiladi, ya’ni huquqiy munosabatlar turi aniqlanadi. Ushbu bosqichda huquqdan foydalanish faoliyatini amalga oshiradigan shaxs, ushbu aniq holatda jinoyat belgilari bormi yoki bu harakatni nojo‘ya harakat kabi kvalifikatsiya qilish to‘g‘risidagi masalani hal qilishga to‘g‘ri keladi. Jinoyat huquqiy munosabatlarni sezish holatlarida jinoyat belgilarining ayblanuvchi harakatida borligi kvalifikatsiya jarayoni ikkinchi bosqichiga kiradi. Ushbu bosqichda jinoiya harakatlarning naslli belgilarini ajratish kechadi, ya’ni JKning qaysi bo‘limida ko‘rib chiqilayotgan jinoyat qamrab olinadi.

Jinoyat uchun xavfli harakatda nasldan o‘tadigan belgilarni belgilash birinchi navbatda jinoiya oqibatlarning naslli ob’ektlarini aniqlashni tahlil qiladi, ba’zi holatlarda esa maxsus sub’ektlarning belgilarini belgilashni ham tahlil qiladi.

Jinoyatni kvalifikatsiya qilishning 3-bosqichi jinoyatning bu turdagи belgilarini qiyoslash va aniqlashdan iborat. Ushbu bosqichda JK ma’lum bo‘limining qandaydir tanlangan moddalar chegarasida jinoyatning dastlabki aniqlanish bosqichi kechadi; jinoyatning oddiy tarkibi yoki kvalifikatsiyalashgan.

Jinoyat uchun xavfli harakatning jinoyat huquqiy kvalifikatsiya qilish jarayoni bevosita 3 ta bosqichda o‘tadi. Ular o‘zaro bir biri bilan bog‘lik harakatlar. Shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish uchun jinoyatni kvalifikatsiya qilishning barcha jarayonini tugatishi kerak.

JKning asosiy qismining har qanday moddalarida ko‘zlangan jinoiy harakatni sodir etishda shaxsning aybini belgilash zarurdir.

Jamiyat uchun xavfli harakatni kvalifikatsiya qilish jarayonida muhim o‘rinni jinoyat tarkibining belgilari bilan harakatning dalilli sharoitlarini taqqoslash jarayonini amalga oshirilishiga nisbatan jinoyat huquqiy normalarni qidirish egallaydi.

Huquqiy normalarning qidiruv jarayoni 4 bosqichni bosib o‘tadi.

Birinchi bosqich belgilangan ma'lumotlarni tartibga solish va ularning ichidan yuridik nuqtai-nazardan muhim belgilarni ajratishdan iborat. Ko'psonli ma'lumotlardan kvalifikatsiyani amalga oshiradigan shaxs kvalifikatsiya uchun muhim ahamiyatli bo'lganlarni tanlashi ajratishi kerak. Murakkabligi shundaki, jinoiy ishni tergov qilishda boshida isbotlash predmeti yetarli darajada xar doim ham emas, qanday dalillar jinoyat huquqiy ahamiyatga ega bo'ladi, qandaylari bo'lmaydi, no'malum. Har xolda tergov qilishning dastlabki bosqichida tergovchi har qanday jinoyatga xos bo'lgan belgilarni guruhiga nisbatan barcha dalilli holatlarni tartibga solib yig'ib olishga harakat qilishi kerak; ob'ektiga, ob'ektli tarafga, sub'ektga va sub'ektiv tomonga ushbu ishni olib boruvchi shaxs, ushbu terilgan barcha dalilli holatlarni ushbu to'rt guruhga tarqatadi.

Ikkinci bosqich haqiqiy material mavjud bo'lib, mos keladigan model, barcha zaruriy qonuniy konsturksiyalarini ajratishdan iborat.

Uchinchi bosqich ish bo'yicha bor bo'lgan dalilli holatlarga mos keladigan jinoyatning aralash tarkibi guruhini ko'rsatishidir. Aralash tarkibidagi guruhlarni shakllantirishdan keyin to'rtinchisini yakunlaydigan bosqich keladi. Ushbu guruhdan bitta tarkibni qaysiki uning belgilari sodir etilgan jinoyatga mos keladigan bosqich keladi.

Unga ushbu bosqichlar asosan jamiyat uchun xavfli bo'lgan harakatni kvalifikatsiya qilish uchun huquqiy normalarni qidirishni olib boradigan shaxsning harakatini aks ettiradi.

Jinoyat qonunini sharhlash ularni amalda tadbiq etishda xatoga yo'l qo'ymaslik uchun g'oyat muhimdir.

Jinoyat qonunini sharhlash qonun chiqaruvchining irodasiga muvofiq holda qonunni amalda tadbiq qilish uchun mazmun va maqsadini har tomonlama tushuntirib berishdan iborat.

Jinoyat qonunini sharhlashning sub'ektlari, usullari va miqqosiga qarab bir necha turga bo'linadi.

Jinoyat qonunlarining sub'ektiga ko'ra sharhlashni legal sharhlash va ilmiy sharhlashga bo'lish mumkin.

Legal va autentik sharhlash deyarli bir-biriga to'g'ri keladigan sharhlash usulidir.

Autentik sharhlash qonunni qabul qilgan davlat organi tomonidan berilgan sharhlaridir. Legal sharhlash faqat O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini tomonidan berilgan sharhlashdir.

Sud tomonidan sharhlash muayyan ish uchun qonunni amalda tadbiq qilish yuzasidan sud tomonidan berilgan sharhlashdir. Bunday sharhlar jinoyat ishini amalda tadbiq qiluvchilar uchun majburiydir. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlari O'zbekistondagi barcha sudlar uchun majburiydir.

Legal (autentik) sharhlash esa barcha uchun majburiydir. Masalan, muayyan huquqiy aktni amalda tadbiq qilish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarori.

Ilmiy sharhlash ilmiy muassasalar, yurist olimlar, huquqni amalda qo'llovchi idoralarning xodimlari tomonidan berilgan sharhlaridir.

Ilmiy sharhlash qonun normalarining nazariy va amaliy masalalarini chuqur va har tomonlama tahlil qilishdan iboratdir. Ilmiy sharhlash yuridik fanlari bo'yicha darsliklar, o'quv qo'llanmalari, monografiyalar, ilmiy maqolalardir.

Ilmiy sharhlash majburiy xarakterga ega bo'lmay, jinoyat qonunlarini ishlab chiqish va ularni amalda to'g'ri tadbiq qilish uchun ahamiyatlidir.

Sharhlash usuliga qarab, grammatik (filologik) sistematik (tizimli), tarixiy sharhlashlarni aytish mumkin.

Grammatik sharhlashda qonunlar grammatika, sintaksis va etimologiya (so'zlarini kelib chiqish) qoidalaridan foydalangan holda qonundagi alohida atamalarning mazmuni tushuntiriladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2002-yil 14-iyunda «Bezorilikka oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti haqida» gi qarorining 4-bandida «Sudlarga tushuntirilsinki, sovuq quroq deganda, o'z mohiyatiga ko'ra insonning hayoti va sog'-ligiga qarshi ishlatish uchun mo'ljallangan, sud-kriminalistik ekspertizasi xulosasiga muvofiq sovuq quroq deb topilgan narsalar tushuniladi», deyiladi.

Tizimli (sistematik) sharhlashda jinoyat qonuni normalarini boshqa qonun normalari bilan solishtirish orqali uning mazmuni, uning amaldagi jinoyat qonunida tutgan o'rni, unga o'xshash bo'lgan qonun normalaridan farqi aniqlanadi. Masalan, O'zR JK 107-moddasining (zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib qasddan badanga og'ir shikast yetkazish) mazmunini ochib berish uchun JK ning 104-moddasi (qasddan badanga og'ir shikast yetkazish) sharhi orqali tushuntiriladi.

Tarixiy sharhlashda muayyan jinoyat qonuni normasining mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvol tufayli qabul qilinish sabablari tushuntiriladi.

Jinoyat qonunlarining miqyosi (hajmi) jihatidan sharhlashga so'zma-so'z sharhlash, tor ma'noda sharhlash, keng ma'noda sharhashlarni kiritish mumkin.

So'zma-so'z sharhlash qonun normasining matniga to'la muvofiq bo'lgan so'zlarda ifodalab berilgan sharhdir. Tor ma'noda sharhlash qonun matniga nisbatan torroq hajmda sharhashdir. Bunda qonun matnidan kelib chiqib, uning matnidan ham torroq sharh beriladi. Masalan, qasddan odam o'ldirishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Plenumi qarorida qasddan odam o'ldirish to'g'ri qasddan yoki egri qasddan sodir etilishi mumkin deyiladi.

Keng ma'noda sharhlashda esa qonun matnidan kelib chiqib, uning matniga nisbatan ancha keng tushuntirish beriladi. Masalan, O'zR Oliy sudi Plenumi 2002-yil 14-iyundagi «Bezorilikka oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti haqida»gi qarorida «Sudlarga tushuntirilsinki, sovuq quroq deganda, o'z mohiyatiga ko'ra insonning hayoti va sog'lig'iga qarshi ishlatish uchun mo'ljallangan, sud-kriminalistik ekspertizasi xulosasiga muvofiq sovuq quroq deb topilgan narsalar tushuniladi. Shaxsning sog'ligiga amalda shikast yetkazishi mumkin bo'lgan boshqa narsalar turkumiga aybdor tomonidan o'sha maqsadlarda bezorilik harakatlari davomida foydalanilgan har qanday narsalar kiradi. Jabrlanuvchiga nisbatan tan jarohati yetkazgan yoki yetkazishga qilgan hollar tushunilishi lozim deyiladi.

Qonunlarni keng ma'noda sharhlash qonunning ma'nosini ancha chuqur va batafsil ochib berish imkonini beradi.

### **Nazorat savollari:**

1. Jinoylarni kvalifikatsiya qilish tushunchasini aniqlang.
2. Jinoylarni kvalifikatsiya qilishning qanday turlari mavjud?
3. Jinoylarni aniqlik darajasi bo'yicha kvalifikatsiya qilishning turlarini ko'rsating.
4. Jinoylarni kvalifikatsiya qilish turlarining mazmunini yoriting.
5. Jinoylarni kvalifikatsiya qilish bosqichlarini aniqlang.
6. Jinoylarni to'g'ri kvalifikatsiya qilishning ahamiyati nimadan iborat?
7. Jinoylarni noto'g'ri kvalifikatsiya qilishning sababini ko'rsating.

### **3. Sudga qadar bosqichida sud nazoratini amalga oshirish**

#### **Reja:**

1. Dastlabki tergov ustidan sud nazorati tushunchasi va mazmuni
2. Dastlabki tergov bosqichida sud nazoratining tarixiy rivojlanishi
3. “Xabeas korpus” instituti va uning milliy qonunchiligidagi ifodasi
4. Dastlabki tergov bosqichida sud nazoratini amalga oshirish turlari va shakllari
5. Dastlabki tergovda tergov harakatlari, majburlov choralari va ehtiyyot choralarini qo‘llashda sud nazoratini kengaytirish masalalari
6. Dastlabki tergov ustidan sud nazoratini kengaytirishga oid rivojlangan xorijiy davlatlar tajribalarining qiyosiy tahlili

**Tayanch so‘zlar:** sud nazorati, Xabeas korpus, ehtiyyot choralari, protsessual majburlov choralari.

#### **1.1. Dastlabki tergov ustidan sud nazorati tushunchasi va mazmuni**

Dastlabki tergovda sud nazorati tushunchasini izohlashdan oldin, “sud nazorati” tushunchasiga oydinlik kiritib o‘tish darkor. Binobarin ushbu jumla shu paytga qadar quyi bo‘g‘in sudlar faoliyati ustidan yuqori sudlar nazoratiga tatbiqan qo‘llanilgan. “Sud nazorati” atamasi Konstitutsiya, O‘zR JPK hamda “Sudlar to‘g‘risida”gi qonun normalarida bevosita yoki bilvosita ishlatilgan, lekin jinoyat-protsessual huquqi fanida sud faoliyatining yo‘nalishlari tarkibida biz uchun zarur bo‘lgan dastlabki tergovda sud nazorati funksiyasi hozir tilga olinmagan. Bu esa, amaliyotda ancha muammo tug‘diradi, zotan bu shaxs huquqlari va qonuniy manfaatlari, ularni har tomonlama himoyalash va ta’minlash, jamiyatni demokratlashtirish va erkinlashtirishning muhim shartidir.

Bu borada Z.F.Inog‘omjonovaning “Sud nazorati faqat sud tomonidan, sud majlisida qonunda belgilangan qat’iy protsessual shaklda amalda oshiriladi, sud tomonidan ayrim masalalar yuzasidan ishning faktik holatlari asosida, o‘z ichki ishonchiga tayanib tegishli protsessual qaror qabul qilishdan iborat”<sup>1</sup>, degan fikriga to‘la qo‘shilamiz. Mazmunan “bunday qaror fuqarolar huquqlarini buzilishi va cheklanishining oldini olishga buzilgan huquqlarni qayta tiklashga va jinoyat protsessual tartibni buzish oqibatida qabul qilingan, qonuniylik va asoslilik talablariga mos kelmaydigan qarorlarni bekor qilishdan iborat”<sup>2</sup>.

---

<sup>1</sup> Inog‘omjonova Z.F. Jinoyat protsessida sud nazorati va uni amalga oshirish muammolari. Yurid. fanlar doktori darajasi uchun yozilgan dissertatsiya. “Avtoreferat”. TDYUI, T.;2006, B. 9–10.

<sup>2</sup> Mirzayev I. Sud i profilaktika prestupleniy // Huquqshunos. – 2009. – №1. – B. 43-44.

Sud nazorati jinoyat protsessining mustaqil faoliyat yo‘nalishi ekanligi xususida turli-tuman fikrlar bildirilgan. Xususan, V.N.Galuzo “bu faoliyat yo‘nalishi jinoyat protsessining mustaqil funksiyasi bo‘lib, gumon qilinuvchi, ayblanuvchini ushlab turish, qamoqqa olish, qamoqda saqlab turish muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi qarorlarning qonuniyligi va asosliligini ta‘minlashga xizmat qiladi”<sup>3</sup>, deb ta‘kidlab, sud nazoratining faqat bir turi, ya’ni dastlabki tergovda sud nazorati mavjudligini tan oladi. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda sud-huquq sohasida olib borilgan keng qamrovli tub islohotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida sudning fuqarolar haq-huquqlarini himoya qiladigan hokimiyat sifatidagi o‘rni va ahamiyatini oshirishga, inson huquq va erkinliklarini sud tomonidan himoya qilinishi kafolatlarini yanada kengaytirishga, sudda taraflar tengligini va oshkorali kni ta‘minlashga alohida e’tibor qaratildi. Xususan so‘nggi yillarda shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish, lavozimdan chetlashtirish kabi majburlov choralari, shuningdek murdani eksgumatsiya qilish va pochta telegraf jo‘natmalarini xatlash singari tergov harakatlarini amalga oshirishga ruxsat berishning sudlarga o‘tkazilishi sudning odil sudlov organi sifatidagi nufuzini hamda ahamiyatini yanada oshirdi.

Jinoyat sudlov ishlarini yuritish beshta mustaqil, lekin bir-biri bilan uzviy bog‘liqlikda hamda ketma-ketlikda faoliyat ko‘rsatadigan bosqichlardan iborat. Bulariga:

- 1) jinoyat ishini qo‘zg‘atish;
- 2) dastlabki tergov;
- 3) jinoyat ishini sudda ko‘rish uchun tayinlash va sud muhokamasi;
- 4) hukm, ajrim va qarorlarning qonuniyligi, asosliligi vaadolatliligin tekshirish;
- 5) hukmni ijroga qaratish kiradi.

Bu bosqichlarning har biri mustaqilligi, o‘ziga yuklatilgan va faqat unga xos bo‘lgan vazifalarning belgilanganligi, protsessual hujjatlarining mavjudligi, ishtirokchilarining tayinligi va hokazolar bilan tavsiflanadi. Ularning bir-biri bilan uzviy bog‘liqligi va ketma-ketligi shundaki, bir bosqich ikkinchi bosqichga xizmat qiladi, bir bosqich yakunlanmasdan turib, ikkinchi bosqich boshlanmaydi, har bir bosqichning yakuniy hujjati ikkinchi bosqich faoliyatining boshlanishiga asos bo‘ladi. Masalan, jinoyat ishini qo‘zg‘atish qarori bo‘lmasdan turib dastlabki tergovni olib borish mumkin emas, sud muhokamasini o‘tkazmay yakuniy hujjat bo‘lmish hukm chiqarilmaydi, hukm ustidan shikoyat yoki protest tushmasa,

<sup>3</sup> Галузо В.Н. Судебный контроль за законностью и обоснованностью содержания под стражей подозреваемых и обвиняемых на стадии предварительного расследования: Автореф. дисс. ... канд. юрид. наук. – М.: МВШИМ МВД РФ, 1995. – 29 с.

hukm, ajrim va qarorlarni tekshirish bosqichi boshlanmaydi, yoki hukm kuchga kirmasa, uni ijroga qaratishning imkoniyati yo‘q.<sup>4</sup>

Sud nazoratini dastlabki tergov bosqichiga joriy qilish jinoyat protsessining boshqa bosqichlari o‘rtasida uzviy bog‘liqlikni vujudga keltiradi, natijada nazoratning sifati oshadi, maqsadlar tizimi samarali bo‘ladi.<sup>5</sup> Dastlabki tergovning to‘la, har tomonlama, xolisona tekshirilishi sud muhokamasining sifatiga ta’sir etmay qolmaydi.

Jinoyat sudlov ishlarining har bir bosqichi o‘z oldiga qo‘yan vazifani aniq, o‘z vaqtida, chinakam, qonunda belgilangan talablarga qat’iy rioxaya qilgan holda bajarsa, bosqichlar o‘rtasidagi uzviylik yo‘qolmaydi, hamda protsessual faoliyatning natijasi hamisha sifatli va samarali bo‘ladi. Dastlabki tergovda yo‘l qo‘yilgan jiddiy xato va kamchiliklarni keyinchalik bartaraf qilish mushkul bo‘ladi. Bu esa hukmni bekor bo‘lishiga asos bo‘ladi. Dastlabki tergovning sifatiga baho faqat sud muhokamasida beriladi. Jinoyat ishini sudda ko‘rish uchun tayinlash bosqichi ham bundan mustasno emas.<sup>6</sup>

Jinoyat protsessining deyarli barcha bosqichlarida sud nazorati elementlari mavjudligi to‘g‘risidagi fikrga<sup>7</sup> qo‘shilgan holda ishni sudga qadar yuritish bosqichida bu nazoratni qanday shakl va tartibda amalga oshirilishini ko‘rib chiqish zarur. Adabiyotlarda bu jumlaning o‘zi ham turlicha talqin qilingan. Masalan, “Ishni sudga qadar yuritish bosqichida sud nazorati”,<sup>8</sup> “dastlabki tergov hujjatlari ustidan sud nazorati”,<sup>9</sup> “dastlabki tergovning qonuniyligi ustidan sud nazorati”<sup>10</sup>.

Sud nazorati – jinoyat protsessining deyarli barcha bosqichlarida amalda bo‘ladigan, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari muhofaza qilishga qaratilgan, qarorlar, harakat va harakatsizlik hamda dastlabki tergov va sud qarorlarining (kuchga kirgan kirmaganligidan qat’i nazar) qonuniyligi, asosliligi vaadolatlilagini kafolatlashga xizmat qiladigan faoliyat sifatida e’tirof etilgandagina uning huquqiy tabiatini oydinlashadi.<sup>11</sup>

Dastlabki tergovdagi sud nazorati nafaqat jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquq va erkinliklari to‘la ta’milnashini nazorat qiladi, balki

<sup>4</sup> Inog‘omjonova Z.F. Jinoyat protsessida sud nazorati va uni amalga oshirish muammolari. y.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T., 2006 .-B. 47.

<sup>5</sup> Бойков А.Д. Третья власть в России. -М.: 1998. -224 б.

<sup>6</sup> Inog‘omjonova Z.F. Jinoyat protsessida sud nazorati va uni amalga oshirish muammolari. Y.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T., 2006. –B. 54.

<sup>7</sup> Гуськова А.П. Процессуально-правовые и организационные вопросы подготовки к судебному заседанию по УПК РФ. -Оренбург.: 2002. -Б 14.

<sup>8</sup> Концепция судебной реформы в Российской Федерации. -М.: 1992. –Б. 44.

<sup>9</sup> Лазарева В.А. Судебная власть и ее реализация в уголовном процессе. -Самара.: 2007. –Б. 52.

<sup>10</sup> Назаров А.Д. Влияние следственных ошибок на ошибки суда. -СПб.: 2008. 205-б.

<sup>11</sup> Shodiyev G‘. Jinoyat ishlarini sudga qadar yuritish bosqichida sud nazoratining obyekti sifatida shaxsning huquq va erkinliklarini chekllovchi tergov harakatlari // Sud-huquq islohotlari: hozirgi holati va takomillashtirish istiqbollari. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent: TDYUI, 2007 - B. 132.

isbotlash protsessining qonuniy va asosli bo‘lishini kafolatlaydi<sup>12</sup>. Dastlabki tergovda sud nazorati odil sudlovga xizmat qiladi, sud hokimiyati qarorlarining qonuniy, asosli va adolatli bo‘lishiga zamin yaratadi.

Dastlabki tergovdagi sud nazoratining asosiy maqsadi:

1) fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini muhofaza qilish; 2) jinoyat sudlov faoliyatini samarali bo‘lishiga xizmat qilish; 3) mustaqil funksiya sifatida nihoyat odil sudlovni amalga oshirishga shart-sharoit yaratishdan iborat.

Protsessualist olim Z.F.Inog‘omjonovaning fikricha, dastlabki tergovdagi sud nazoratini mohiyatini ochish uchun odil sudlov faoliyati bilan qiyosiy tavsiflash lozim:

1) Dastlabki tergovda qamoqqa olishga sanksiya bergen yoki tergov muddatini uzaytirishga rozilik bergen sudya ishni sudga tayyorlash yoki uni mazmunan ko‘rishda ishtirok eta olmaydi.

2) Dastlabki tergovda yuqorida qayd qilingan vakolatlarni bajargan yoki uning qarorlarini yuqori instansiya sudida ko‘rib chiqqan sudya aynan shu ishni kelgusida yana ko‘rishga haqli emas.<sup>13</sup>

O‘zbekiston Respublikasi JPKsining 76-moddasiga bu masalani rad qilish asoslari sifatida kiritish lozim, ya’ni sanksiya bergen sudya ishni mazmunan ko‘rishda ishtirok etishi mumkin emas.

Yuqorida sud nazoratining obro‘yini oshirish va zarurligini e’tirof etish uchun uni jinoyat protsessining prinsipi darajasiga ko‘tarish lozimligi to‘g‘risida fikr bildirilgan edi. Masalan, A.P. Fokov ham shu fikrga qo‘shilib, «Jinoyat sudlov ishlarini yuritishda sud nazoratini prinsip darajasiga ko‘tarish va sud tomonidan qonun talablari buzilgan har bir holda uni bartaraf qilish majburiyati mavjudligini qayd qilish lozim»<sup>14</sup> deydi. Lekin bu prinsipni boshqaruv yoki ma’muriy nazorat ma’nosida tushunmaslik kerak. Amaliyot xodimlari o‘rtasida “Sud nazorati” degan jumladan cho‘chish, jinoyat va jinoyat protsessual qonuni liberallashib borayotgan bir davrda “sud nazorati” tushunchasini ishlatish yoki uni prinsip darajasiga ko‘tarish o‘rinlimi degan mulohazalar ham yo‘q emas.

Asosiy qomusimiz bo‘lgan Konstitutsiyada sud-fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilinishini ta’minlash kafolati ekanligi ta’kidlanadi. Sud orqali himoyalish huquqining mavjudligini o‘zi, har qanday qonunga xilof harakat yoki harakatsizlik, qonunsiz, asoslantirilmagan, adolatsiz qarorlar sud

<sup>12</sup> Рябинина Т.К. Стадия назначения судебного заседания в свете уголовно-процессуального закона: проблемы теории и практики, пути их решения. // Российский судья -№ 7. 2004. –Б. 6.; Рябинина Т.К. Производства по уголовному делу в суде до судебного разбирательства. Автореф. дисс. ... канд. юрид. наук. –Воронеж.: 2005. –С.23.

<sup>13</sup> Inog‘omjonova Z.F. Jinoyat protsessida sud nazorati va uni amalga oshirish muammolari. y.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Т., 2006;.-B. 68.

<sup>14</sup> Фоков А.П. Судебный контроль в России и перспективы. // Российский судья, 2002. -№ 9. –С. 3.

nazoratida bo‘lishi lozimligidan dalolatdir. Shundan kelib chiqib aytish joizki, aynan sud nazoratining shu xususiyati uning ijtimoiy va huquqiy tabiatini belgilaydi.

Mamlakatimizda inson huquqlari ustuvorligini ta’minalash va uni himoya qilish tizimini bosqichma-bosqich isloh etish va liberallashtirish, xalqaro huquq normalarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Sud nazoratini kengaytirish, odil sudlovning muhim institutlaridan bo‘lgan «Xabeas korpus» instituti normalarini milliy qonunchilikka izchil tatbiq etish jarayoni davom ettirilmoqda. Garchand qonunchiligidan “Xabeas korpus” institutining ayrim elementlari joriy etilgan bo‘lsa-da, bu borada xalqaro huquq normalarini to‘liq tatbiq etish bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish ehtiyoji bor. Zotan, “Xabeas korpus” – ushlab turishning qonuniyligi va asoslilagini keyinchalik sud tomonidan tekshirish tartibi hisoblanadi<sup>15</sup>. Lekin, so‘nggi yillarda jinoyat-protsessual qonunchiligidan ro‘y berayotgan o‘zgarishlardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, ushbu institutning qo’llanish sohasi yanada kengayib bormoqda.

Inson huquqlariga oid dunyo mamlakatlari qonunchiligi rivojlanishining e’tiborli jihatni shundaki, inson huquqlari bo‘yicha ayrim normalar dastlab milliy huquqda paydo bo‘lib, so‘ngra xalqaro-huquqiy normalar va standartlarga aylangan. Anglo-sakson huquq oilasining muhim institutlaridan biri bo‘lgan “Xabeas korpus akt” ham dastlab milliy huquqda paydo bo‘lib<sup>16</sup>, so‘ngra xalqaro darajada umume’tirof etilgan hujjat sifatida tan olingan inson huquqlarini sud orqali himoya qilishga oid jahon mamlakatlari qonunchiligining fundamental asosini tashkil etadi.

Ushbu institut dastlab XII asrdan boshlab Angliyada qo’llanila boshlagan. XIV asrda Eduard I qiroligi davrida esa, ushbu amaliyat urf-odatga aylana boshlagan. Mazkur urf-odat o‘z navbatida inson huquqlari masalasi normativ hujjat ko‘rinishini ola boshlagan davrda, aniqroq aytganda, 1679-yil 26-may kuni Angliyada qabul qilingan «Fuqaro erkinligini yanada yaxshiroq ta’minalash va dengizdan tashqari hududlarda asossiz hibsga olishlarning oldini olish to‘g‘risida»gi qonun yoki «Habeas Sorpus Act»da o‘zining normativ qiyofasini topdi<sup>17</sup>. Ingliz parlamenti tomonidan qabul qilingan ushbu qonun o‘z davri uchun eng demokratik hujjatlardan hisoblangan va g‘arb dunyosini qamrab olishni boshlagan burjua inqiloblarini natijasida vujudga kelayotgan demokratik jamiyatlar tomonidan tezda qabul qilina boshlagan.

<sup>15</sup> Bekmatova D.Sh. Jinoiy ta’qib faoliyatini konseptual rivojlantirish asoslari. Ilmiy risola. –T.: TDYUU, 2016. – B.56.

<sup>16</sup> <http://www.minjust.uz>

<sup>17</sup> <http://www.norma.uz>

“Xabeas korpus” o‘z nomini sudyaning ozodlikdan mahrum etilgan shaxsni sudga olib kelish to‘g‘risidagi buyrug‘ining birinchi so‘zlaridan olingan bo‘lib, “Habeas corpus ad subjiciendum”, ya’ni (sen shaxsni sudga olib kelishga majbursan), degan ma’noni anglatadi<sup>18</sup>. Bu atama 1679-yil 26-may kuni ingliz parlamenti tomonidan qabul qilingan qonun - «Xabeas Korpus Akt» atamasidan olingan. Bu so‘z birikmasi lotinchadan o‘zbek tiliga o‘girilganda «tanani, shaxsni (sudga) keltirish» ma’nosini anglatadi<sup>19</sup>.

Habeas Corpus Act” insoniyat tarixida o‘zboshimchalik bilan hibsga olishni cheklagan birinchi hujjatdir. Unda “Hech bir ozod, erkin fuqaro sud qarorisiz ushlab turilishi, qamoqqa olinishi, mulkidan mahrum qilinishi, qonundan tashqari deb e’lon qilinishi, quvg‘inga olinishi mumkin emas” deyiladi. Jinoyat ishlari bo‘yicha “Habeas Corpus Act” quyidagicha tartibda amalga oshiriladi. Har bir qamoqqa olingan ayblanuvchi o‘zini noto‘g‘ri hibsga olingan deb hisoblasa, shaxsan o‘zi yoki himoyachisi orqali lord-kanslerga shikoyat qilishga haqli. Lord Habeas Corpus buyrug‘ini berish hamda uni tasdiqlaydigan muhrni saqlash huquqiga ega bo‘lgan shaxs hisoblanadi. Murojaatni olgan suda darhol ishga kirishib, qamoqqa olishning qonuniyligini tekshiradi. Agar qamoqqa olish noqonuniy amalga oshirilgan bo‘lsa, shaxs darhol ozod qiladi<sup>20</sup>. Angliya yuridik adabiyotlarida “Habeas Corpus Act” shaxs huquq va erkinligini himoya qilishning oliy darajadagi kafolati va inglizlarning milliy g‘ururi” deb ta’riflanadi<sup>21</sup>

Bosh qomusimizning 19-moddasida “Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo‘yilgan huquq va erkinliklari dahlsizdir, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo‘yishga hech kim haqli emas”, deya belgilangan. Bu esa “Xabeas korpus” institutining mazmuni Konstitutsiyamizda aks etganligidan dalolat beradi.

2005-yil 8-avgustda O‘zbekiston Prezidentining "Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o‘tkazish to‘g‘risida"gi Farmoni e’lon qilindi. Farmonga binoan dastlabki tergovga sud nazoratini bosqichma-bosqich olib kirish mexanizmini ishlab chiqish, bu borada xorijiy davlatlar tajribasini o‘rganish, mavjud qonunlarni takomillashtirish, sudyalarini mazkur institutga tayyorlash hamda prokuratura xodimlarida zaruriy ko‘nikma hosil qilish vazifalari belgilangan edi. Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqining sudlarga o‘tkazilishi jinoyat sudlov qonunchiligidida yangi huquqiy institut hisoblanib, ushbu bosqichda ayblanuvchi (gumonlanuvchi) bilan bir qatorda prokuror va

<sup>18</sup> <http://www.minjust.uz>

<sup>19</sup> Mark E.Cammack and Norman M.Garland. Advanced criminal procedure. – Thomson/West, 2006. –Б. 483

<sup>20</sup> Полянский Н.Н. Уголовное право и уголовный суд в Англии. –М.: 1992. –Б. 284-287.

<sup>21</sup> Ахпанов А.Н., Насыров Г.Х. Арест в качестве меры пресечения: проблемы судебного контроля и санкционирования. (Монография.) –Алматы: 2005. -Б 23.

advokat ham ishtirok etadi. Mazkur yangilik jinoyat-protsessual qonunchilikda e'tirof etilgan taraflarning o'zaro tortishuvi va tengligi tamoyilini dastlabki tergovning shu qismiga joriy etish imkonini beradi. Shuningdek, qamoqqa olishga faqat sudlar tomonidan sanksiya berilishi hech kim sudning rozilgisiz ozodlikdan mahrum qilinishi mumkin emasligi, huquqlar cheklanmasligi tamoyilining mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqining sudlarga o'tkazilishi o'z-o'zidan jinoyat protsessida sud nazoratining joriy etilishini taqozo etadi. Sud nazorati funksiyasi dastlabki tergovda taraflarning faoliyatini muvofiqlashtirib turadi. Ularning qaror va harakatlari qonuniy hamda asosli bo'lishini ta'minlaydi, protsess ishtirokchilarining qonuniy huquq va manfaatlari buzilishining oldini oladi.

2008-yil 1-yanvardan qamoqqa olishga sanksiya berish huquqi sudlarga o'tkazilishi munosabati bilan jinoyat-protsessual qonunchiligi va huquqni qo'llash amaliyotini liberallashtirish sohasidagi dolzarb masalalardan biri – ehtiyyot choralaridan biri sanalgan qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o'tkazish masalasi amaliyotga joriy qilindi. Bu esa sudgacha bo'lган ish yuritish ustidan sud nazorati o'rnatishning ustuvor yo'nalihidir. Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqining sudlarga o'tkazilishi jinoyat protsessida tomonlarning teng protsessual imkoniyatlarga ega bo'lishi borasidagi demokratik tamoyilning amalga oshishini ta'minladi, amalda odil sudlovning boshqa barcha tamoyillarini, shu jumladan, sudning mustaqilligi va xolisligi, aybsizlik prezumpsiyasi, shuningdek, ayblanuvchining samarali advokat yordamiga bo'lган huquqi tamoyillarini mustahkamladi. Shuningdek, ishni sudga qadar yuritish bosqichida amnistiya aktini qo'llashning faqat sud tomonidan amalga oshirilishi tartibining joriy qilinishi ham mamlakatimizda sudgacha bo'lган bosqichda sud nazoratini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2010-yil 12-noyabr kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida bayon etgan "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi"ning II bo'limi sud-huquq tizimini isloh etishga bag'ishlangan. Konsepsiada sud hokimiyatini bosqichma-bosqich mustahkamlash va sud mustaqilligini ta'minlash davlatimizning asosiy vazifalaridan biri ekanligi belgilab qo'yilgan. Unda sud-huquq tizimini isloh qilish borasida davlatimiz oldiga bir qancha tashkiliy-huquqiy choralar qo'yilgan bo'lib, 2012-yil 19-sentabrda kuchga kirgan "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonun konsepsiadagi chora-tadbirlarning amalga oshirilganligidan dalolat beradi. Ushbu Qonunga

asosan, "Prokuratura to‘g‘risida"gi, "Sudlar to‘g‘risida"gi qonunlarga, Jinoyat protsessual, Fuqarolik protsessual hamda Xo‘jalik protsessual kodekslariga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritildi. Konsepsiya ijrosi bo‘yicha o‘tgan davr mobaynida bir qator qonunlar qabul qilindi. Jumladan, amaldagi Jinoyat-protsessual kodeksining 29 va 31-boblariga sudga qadar ish yuritish bosqichida qo‘llaniladigan lavozimdan chetlashtirish va shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish kabi protsessual majburlash choralarini qo‘llash faqat sudning sanksiyasi bilan amalga oshirilishini nazarda tutuvchi o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritildi. Ushbu vakolatlarning sud organlariga o‘tkazilishi esa, surishtiruv va dastlabki tergov jarayonida sud nazoratini kuchaytirish, jinoyat protsessida "Xabeas korpus" institutini qo‘llashni yanada kengaytirish imkonini bermoqda. Qonun mazmuniga ko‘ra, agar ayblanuvchi o‘z ish joyida qolsa, jinoyat ishi bo‘yicha haqiqatni aniqlashga yoki jinoyat oqibatida yetkazilgan zararning o‘rnini qoplashga to‘sinqlik qiladi yoxud jinoiy faoliyatini davom ettiradi, deb hisoblashga yetarli asoslar mavjud bo‘lsa, sud tomonidan lavozimidan chetlashtirilishi mumkin. Ruhiy holati ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilish va ayblov e’lon qilish imkoniyatini istisno etadigan gumon qilinuvchi ham, agar aynan uninig ijtimoiy xavfli qilmish sodir etganligiga yetarlicha dalillar mavjud bo‘lsa, ekspertiza o‘tkazish uchun tibbiy psixiatriya muassasasiga sud orqali joylashtirilishi mumkin. Shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish to‘g‘risidagi iltimosnomasi yopiq sud majlisida, materiallar kelib tushgan paytdan e’tiboran 48 soat ichida ko‘rib chiqiladi.

Ma’lumki, 2014-yil 4-sentabrda qabul qilingan "O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida"gi qonunga muvofiq, uy qamog‘i tarzidagi ehtiyyot chorasi qo‘llash tartibi amalga kiritildi. Ushbu ehtiyyot chorasi gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga yoki sudlanuvchiga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyyot chorasi tanlash uchun asoslar mavjud bo‘lganida, uning yoshi, sog‘lig‘i holati, oilaviy ahvoli va boshqa holatlarni hisobga olgan holda qamoqqa olish maqsadga nomuvofiq deb topilgan taqdirda qo‘llaniladi. Uy qamog‘i gumon qilinuvchining, ayblanuvchining yoki sudlanuvchining jamiyatdan to‘liq yoxud qisman ajratib qo‘yilib, o‘zi mulkdor, ijaraga oluvchi sifatida yoki boshqa qonuniy asoslarda yashab turgan turar joyda taqiqlar (cheklovlardan) yuklatilgan, shuningdek, uning ustidan nazorat amalga oshirilgan holda bo‘lishidan iborat. Bir so‘z bilan aytganda, qayd etilgan majburlov choralarining sudsiga o‘tkazilishiga doir qonun hujjatlari, avvalambor, inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan bo‘lib, xalqaro huquq normalariga to‘liq mos keladi va insonparvarlik tamoyillariga asoslangan demokratik huquqiy davlatni barpo etishga xizmat qiladi.

Ma'lumki, sud-huquq tizimini yanada demokratlashtirish va erkinlashtirish, sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlari faoliyati samaradorligini oshirish, aholining odil sudlovga bo'lgan ishonchini oshirish, jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktabrdagi "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4850-sون Farmoni e'lon qilindi. Ushbu dasturiy hujjatning amalga oshirilishi mamlakatning sud-huquq tizimi faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlari ishonchli himoya qilinishini ta'minlash, shuningdek aholining odil sudlovga bo'lgan ishonchini yanada mustahkamlash imkonini berdi. Shu bilan birga, Farmon mazkur sohadagi davlat siyosatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarib, ustuvor yo'naliishlarni belgilab berdi. Ayniqsa, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirishga qaratilgan prokurorlarning pochta-telegraf jo'natmalarini xatlab qo'yish va eksgumatsiya qilish kabi tergov harakatlarini o'tkazishga sinksiya berish bo'yicha vakolatlarining sndlarga o'tkazilishi muhim o'zgarishlardan biri bo'ldi. Boshqacha aytadigan bo'lsak, shaxsning Konstitutsiya bilan kafolatlangan huquqlarini cheklash bilan bog'liq qarorlarni qabul qilish sudning mutlaq vakolatiga o'tkazildi. Bu esa Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi 10-moddasida belgilangan har bir kishi uning huquq va majburiyatlarini belgilash va unga nisbatan bildirilgan jinoiy ayblovning asosli ekanligini aniqlash uchun teng huquqlilik asosida uning ishi mustaqil va xolis sud tomonidan oshkora vaadolat talablariga rioya etilgan holda ko'rib chiqilishiga haqli ekanligi tamoyiliga to'la muvofiq bo'ladi.

Jinoyat-protsessual qonunchiligidizning 36-moddasiga muvofiq, tergovchi tergovning yo'naliishi va tergov harakatlarini yuritishga oid barcha qarorlarni, prokuror ruxsatini olish qonunda nazarda tutilgan hollarni istisno etganda, mustaqil ravishda qabul qiladi. Yuqorida nomi keltirilgan Prezident farmonida tergov harakatlarini o'tkazishga nafaqat prokuror, balki sudning ham roziligi talab etilishi nazarda tutilgan. Shu paytga qadar dastlabki tergov ustidan sud nazorati faqat majburlov, ehtiyyot choralarini doirasida amal qilar edi. Endilikda esa bu nazorat tergov harakatlarini ham qamrab olmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning 2016-yil 21-oktabrdagi "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni asosida tayyorlangan va 2017-yilning 1-apreldan kuchga kirgan "Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar qabul qilinishi munosabati bilan O'zbekiston

Respublikasining ayrim qonun hujjalariiga o‘zgartish va qo‘sishchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonun sud-huquq tizimini yanada demokratlashtirish va erkinlashtirish, sud, huquqni muhofaza qilish va nazorat organlari faoliyati samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan. Mazkur Qonun bilan sudlar nufuzi yanada oshirilganligini aytib o‘tish zarur. Masalan, pochta-telegraf jo‘natmalarini xatlab qo‘yishga va murdani eksgumatsiya qilishga sanksiyalar berish huquqi prokuraturadan sudlarga o‘tkazildi, sud ishi yurituvida “Xabeas korpus” institutini qo‘llash imkoni yanada kengaytirildi va jinoyat protsessida sud nazorati roli hamda ahamiyati kuchaytirildi. Bundan tashqari, yuqoridagi qonunga muvofiq, onunga muvofiq, sudlarga qamoqqa olish yoki uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash rad etilgan taqdirda muqobil ehtiyot chorasini qo‘llash imkoniyati berildi. Bunda ish bo‘yicha yakuniy qarorlar qabul qilish muddatlarini asossiz kechiktirish bartaraf etildi, sud tomonidan jinoyat ishini qo‘sishcha tergovga qaytarish instituti butunlay bekor qilindi

Dastlabki tergov ustidan sud nazoratini kuchaytirish masalasi uzoq yillardan buyon protsessualist olimlar tomonidan o‘rganilmoqda. Xususan, Z.F.Inog‘omjonova o‘z tadqiqot ishida bosqichma-boqich dastlabki tergovdagagi jiddiy tergov harakatlari: shaxsni o‘z rozilgisiz guvohlantirish (145-modda), murdani eksgumatsiya qilish (148-modda), olib qo‘yish va tintuv o‘tkazish (161-modda), pochta-telegraf jo‘natmalarini xatlab qo‘yish (166-modda), telefon va boshqa so‘zlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan so‘zlashuvlarni eshitib turish (170-modda), shaxsni ekspertiza tadqiqotidan o‘tkazish (181-modda) ustidan sud nazoratining o‘rnatalishi huquqiy davlatda jismoniy hamda yuridik shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning kafolati sifatida namoyon bo‘ladi<sup>22</sup>, deb yozadi. Shuningdek, yuridik adabiyotlarda dastlabki tergovda mol-mulkni xatlash chorasini ham faqatgina sudning sanksiyasi asosida amalga oshirish taklif qilinadi<sup>23</sup>.

Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini surishtiruv va dastlabki tergov davrida cheklovchi barcha protsessual harakatlar ustidan nazorat aynan sud tomonidan amalga oshirilishi zarur. Chunki, jinoyat ishlari yuritushi sub’ektlari ichida faqat sudgina ayblovdan manfaatdor emas va hech qanday tergov mexanizmlariga tobe emas. Sudning tergov qonuniyligiga solgan nazari o‘z tabiatiga ko‘ra, xolis va adolatlidir. Sudning xolisligi yana shu bilan ham belgilanadiki, sudga qadar ish yurituvida sud funksiyasi doimiy xarakterga ega

<sup>22</sup> Inog‘omjonova Z.F. Jinoyat protsessida sud nazorati va uni amalga oshirish muammolari. Yurid. fan. Dok. ...diss. –T.: TDYUI, 2006. – B.291.

<sup>23</sup> Саванков М.А. Предложения по вопросу совершенствования уголовно-процессуального законодательства Республики Казахстан// Вопросы совершенствования уголовного законодательства в рамках разработки нового Уголовно-процессуального кодекса Республики Казахстан: материалы международно-практической конференции. – Алматы, 2012. –С .123.

emas, uning ta'siri sudga surishtiruvchi, tergovchi va prokurorning muayyan protsessual harakatlari ustidan shikoyat qilishda yoxud u yoki bu protsessual harakatni o'tkazishga sud tomonidan ruxsat berilishida namoyon bo'ladi.

Dastlabki tergov bosqichida sud nazoratini amalga oshirish turlari va shakllari borasida fikr bildirish va taxlil qilishimizda biz birinchi navbatda shu soxa nazariyotchi olimlarining bu mavzuga oid o'z fikr-mulohazalarini va taxlil natijasida kelingan xulosalarini bayon etish va bunga o'z munosabatamizni bildirishni lozim topdik.

Jinoyat protsessi nazariyasida sud nazoratini o'ziga xos turli ko'rinishlarda ko'rishimiz mumkin:

- 1) dastlabki tergovdagi sud nazorati;
- 2) jinoyat ishini sudda ko'rish uchun tayinlashdagi sud nazorati;
- 3) hukm, ajrim va qarorlarning qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini tekshirishdagi sud nazorati kiradi.

Bu nazorat turlari, yuqorida ta'kidlaganimizdek, jinoyat protsessining deyarli barcha bosqichlarini o'z ichiga qamrab oladi<sup>24</sup>.

Protsessualist olim N.N.Kovtun ham uch turdag'i sud nazorati haqida fikr bildiradi: 1) jinoyat protsessi ishtirokchilarining konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari bilan bog'liq bo'lgan protsessual majburlov choralarining qonuniyligi va asoslantirilganligini ta'minlash ustidan nazorat; 2) fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini daxlsizligi bilan bog'liq bo'lgan tergov harakatlarini o'tkazishning qonuniyligi va asoslanganligi ustidan nazorat; 3) fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va manfaatlarini cheklash bilan bog'liq qonunga xilof harakatlar (harakatsizliklar) va protsessual hujjatlar ustidan sudga shikoyat qilish, shu bilan sud orqali himoyalanish huquqini amalga oshirish<sup>25</sup>.

Protsessualist olim V.A.Yablokov sud nazoratini quyidagi mezonlarga ko'ra tasniflash zarur deb keng ma'nodagi sud nazorati shakllarini bayon qiladi:

- 1) qarorlarni ijro etish va ularni ustidan nazorat qilishning xronologik tartibiga ko'ra dastlabki va davomli bo'lishiga;
- 2) chegaralangan konstitutsiyaviy huquq bilan bog'liq masalalarni sud tomonidan tekshirishda - shaxs daxlsizligi, turar joy daxlsizligiga oid masalalar;
- 3) nazorat osti aktlariga ko'ra - harakat va qarorlar;
- 4) bajarilishi majburiy bo'lgan alomatiga ko'ra - sanksiya berish, shikoyatlarni ko'rib hal qilish;
- 5) qayta ko'rib chiqish imkoniyatiga ko'ra - bir marta ko'rish, muttasil ko'rish;

<sup>24</sup> Inog'omjonova Z.F. Jinoyat protsessida sud nazorati va uni amalga oshirish muammolari. yu.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T., 2006 .-B. 128

<sup>25</sup> Kovtun Н.Н. Судебный контроль в системе уголовного судопроизводства России. Монография. -Н.: Новгород. 2002. –Б. 143-151.

6) bosqich bilan bog‘liqligiga ko‘ra - jinoyat ishini qo‘zg‘atishda va dastlabki tergovda;

7) hujjat va qarorlarni tekshirish turiga ko‘ra - qamoqqa olish, jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad etish jinoyat ishini tugatish va hokazolar<sup>26</sup>.

Sud nazoratini ogohlantiruvchi turiga:

1) Ehtiyyot chorasi sifatida qamoqqa olish to‘g‘risidagi qarorni ko‘rib chiqish;

2) qamoqda saqlab turish muddatini uzaytirish;

3) gumon qilinuvchi, ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish;

4) tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llash bilan bog‘liq faoliyati kiradi.

Sud nazoratini amalga oshirilgan yoki oshirilayotgan harakat (harakatsizlik)lar va qarorlarni tekshirish turiga:

1) tergov harakatlarining qonuniy ham asoslantirilgan holda o‘tkazilganligini tekshirish;

2) dastlabki tergovda qabul qilingan qarorlar, harakatlar (harakatsizliklar) ustidan tushgan shikoyatlarni ko‘rib chiqishni kiritish mumkin.

Sud nazoratining ob’ekti haqida yuridik adabiyotlarni o‘rganish shundan dalolat berdiki, hozirda bu xususda ham uchta fikr mavjud:

1. Ayrim olimlarning fikricha, sud nazorati dastlabki tergovning ayrim tomonlariga, chunonchi inson huquq va erkinliklari bilan bog‘liq bo‘lgan protsessual majburlov choralariga, ehtiyyot choralari qo‘llanilishida aralashishi mumkin. Eng muhimi, Konstitutsiyada belgilanganidek, sud orqali himoyalanish huquqi prinsipiga amal qilishlari lozim. Dastlabki tergovga mas’ul bo‘lgan mansabdor shaxslar, ularning qarorlari, harakatlari va harakatsizliklari ustidan shikoyatlarni ko‘rib chiqish va tegishli qaror chiqarish vakolatlariga ega bo‘ladilar.

2. Boshqa olimlar sud nazorati dastlabki tergovda inson huquq va erkinliklari bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarda hamda jinoyat ishlarini yuritishga to‘sqinlik qiluvchi holatlarda (Jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad etish, jinoyat ishini tugatish, jinoyat ishini to‘xtatish xollarida) aralashishi kerak deb hisoblaydilar.

3. Ba’zi bir olimlar esa dastlabki tergovda sud nazorati tatbiq qilinmasdan oldin ham jinoyat ishi yuzasidan haqiqat ochilib, aybdorlar fosh etilib, jinoyatga qarshi kurash va uni oldini olish siyosati yaxshi olib borilgan. Odil sudlov sud hokimiyatining faoliyati sifatida o‘z o‘rniga va obro‘siga ega bo‘lgan. Sudning dastlabki tergovga aralashuvi uning mustaqilligiga ta’sir etishi bilan bir qatorda

---

<sup>26</sup> Яблоков В.А. Реализация судебной власти на досудебных стадиях уголовного процесса России. Автореф. дисс. ... канд. юрид. наук. – Самара. 2001. –Б. 11-12.

dastlabki tergovga juda katta salbiy ta'sir ko'rsatadi, chunki uning faoliyatida muhim bo'lgan sir saqlash talabi buziladi, degan fikrdalar.<sup>27</sup>

Fikrimizcha, dastlabki tergovdagi sud nazoratining ob'ektiga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Qonun bilan belgilangan tartibda jinoyat protsessining vakolatlari sub'ektlari tomonidan fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini cheklash bilan bog'liq bo'lgan masalalarga sudning roziligi hamda qarori zarur bo'lgan holatlar;

2. Jinoyat ishi natijasidan manfaatdor bo'lgan barcha ishtirokchilarning dastlabki tergov organlari va prokurorning jinoyat ishini yuritishga tusqinlik qiladigan hujjatlari (sodir bo'lgan jinoyat haqida berilgan arizani qabul qilmaslik, jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish, jinoyat ishini tugatish kabilar) ustidan berilgan shikoyat;

3. Jinoyat protsessual qonunchiligidagi belgilangan ish yuzasidan nazorat qiluvchi yoki prokurorlik nazoratini olib boruvchi shaxslar surishtiruvchi, tergovchi va prokurorning qarorlari, harakatlari (harakatsizlik) ustidan tushgan shikoyatlarni o'z vaqtida ko'rmayotganliklari to'g'risidagi ariza.

Yuqorida sanab o'tilgan holatlar yuzasidan surishtiruvchi, tergovchi va prokuror fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini cheklash, jinoyat ishini yuritishga tusqinlik qilish, shuningdek, surishtiruv organining boshlig'i, tergov bo'limi va tergov boshqarmasining boshlig'i yoki prokurorning berilgan shikoyatga nisbatan rad etish tarzidagi faoliyati sud nazoratining predmetini tashkil etishi mumkin.

Dastlabki tergovda sud nazoratining hajmi va chegarasi qat'iy belgilanishi sudyalarining mustaqilligini ta'minlaydi. Dastlabki tergovda xolis sudyalarining faoliyati jinoyat protsessining keyingi bosqichlarida davom etadigan sud nazoratini mantiqan boshlab berishi kerak.

Dastlabki tergovda sud nazorati sud majlisi shaklida yopiq olib boriladi. Chunki, sud majlisi - nazariy va amaliy jihatdan o'zini oqlab kelayotgan shakl. Sud hokimiyati o'z vakolatlarini aynan shu shakl orqali amalga oshiradi. Qonunda belgilangan tartib asosida amalga oshiriladigan bu shakl jinoyat sudlov ishlarini yuritishdagi vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam beradi.

Bundan davlat, jamiyat va shaxs birday manfaatdor. Eng muhimi, huquqiy manfaatga ega bo'lgan ishtirokchilar (gumon qilinuvchi, ayblanuvchi) uning nomidan ish ko'rvuchi (himoyachi, qonuniy vakil) isbotlash burchi yuklatilgan vakolatli shaxslar (tergovchi, prokuror) demokratiya va sud madaniyatiga asoslangan holda umumiyligi va shaxsiy manfaatlarni qonuniy va asosli hal

<sup>27</sup> Ефимичев С.П. Разделение властей и проблемы борьбы с преступностью // Проблемы совершенствования прокурорского надзора. -М.: 1997. -Б. 176-183.

bo‘lishiga erishadilar. Sud majlisini o‘tkazish tartibi ham protsessual qonunda aniq belgilangan. Xorijiy davlatlarning jinoyat protsessual qonunchiligidagi aniq ko‘rsatilgan, ya’ni dastlabki tergovda sud nazoratini amalga oshirish uchun o‘tkaziladigan sud majlisi besh qismdan iborat bo‘ladi (Rossiya Federatsiyasi JPKning 125-moddasi, Qozog‘iston Respublikasi JPKning 109-moddasi, Belorus Respublikasi JPKning 144-moddasi va h.k.). sudga kelib tushgan shikoyat, iltimosnama, talabnomalar asosida:

1) sud majlisiga tayyorgarlik ko‘riladi. Bunda sudya qamoqqa olishga yoki qamoq muddatini uzaytirishga sabab bo‘lgan jinoyat ishidagi materialni, ushbu qarorni qabul qilgan mansabdor shaxsning tushuntirishini talab qilib oladi va mansabdor shaxsni, shikoyat bergen gumon qilinuvchi, ayblanuvchini sud majlisining o‘tkazilish vaqtida haqida xabardor qiladi. Sud majlisi unumli o‘tishi uchun sudya boshqa choralarini ham ko‘rishi mumkin;

2) sud majlisi sud muhokamasiga chaqirilganlarning kelgan-kelmaganligini, gumon qilinuvchi, ayblanuvchining shaxsini aniqlaydi va raislik qiluvchi tushgan shikoyat, iltimosnama va talabnomani o‘qish bilan sud majlisining asosiy qismini boshlab beradi. So‘ngra shikoyat bergen protsess ishtirokchisiga, uning himoyachisiga, qonuniy vakiliga so‘z beradi. Ular tergovchi, prokuorning qamoqqa olish yoki qamoq muddatini uzaytirishi to‘g‘risidagi qarorlarining noqonuniy yoki asossiz ekanligi xususida dalillar keltiradilar. O‘z o‘rnida tergovchi, prokuror ham o‘z qarorlarini qonuniy, asosli ekanligini isbotlovchi dalillar keltiradilar;

3) sudya taqdim etilgan materiallarni tahlil qiladi va ular yuzasidan izoh talab qiladi;

4) sud majlisida ishtirok etayotgan taraflarning (himoyachi, qonuniy vakil, prokuror) so‘zlarini eshitadi;

5) sud qaror qabul qilish uchun maslahatxonaga kiradi va qarorini e’lon qiladi.

Ushbu faoliyatni dastlabki tergovda sud nazoratini isbotlash deb aytish mumkin, chunki isbotlashning ob’ekti - qamoqqa olish yoki qamoqda ushlab turish to‘g‘risidagi qarorlarining qonuniyligi hamda asoslilagini tasdiqlash yoki rad etish; isbotlash burchi yuklatilgan jinoyat ishlari bo‘yicha sudya; isbotlashda ishtirok etadiganlar gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, himoyachi, qonuniy vakil, tergovchi, prokuror, isbotlash vositalari - tergov organlari, prokuror tomonidan taqdim etilgan materiallar hamda qo‘srimcha talab qilib olingan yoki taqdim etilgan materiallar va tushuntirishlari.

Sudya qamoqqa olish ehtiyyot chorasini qo‘llash, qamoqda saqlab turish muddatini uzaytirishni yoki harakat (harakatsizlik), chiqarilgan qarorlarning qonuniyligi va asoslantirilganligini atroflicha o‘rganib, ajrim chiqaradi. Agar

taqdim etilgan materiallar asosidagi iltimosni noqonuniy yoki asossiz deb topsa, to‘plangan dalillar nomaqbul deb hisoblanadi. Bunday holda jinoyat ishlari bo‘yicha sudya bu harakatni o‘tkazishga rozilik bermasligi mumkin<sup>28</sup>.

Masalaga bunday yondashish juda muhim ahamiyatga ega, chunonchi: 1) bu - inson huquq va manfaatlarini himoya qilishning qo‘sishimcha kafolati bo‘lishi bilan birga tergovchini qonuniy va asoslantirilgan faoliyat yuritishga undaydi; 2) yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklarning o‘z vaqtida bartaraf etilishi dalillar tizimining qarama-qarshi bo‘lmasligini, tergov ishlarini to‘la, har tomonlama, xolisona olib borilishini, haqiqatni o‘z vaqtida yuzaga kelishini ta’minlaydi.<sup>29</sup>

Yuqoridagilardan ma’lumki, qaror qabul qiluvchi sudya taqdim etilgan materialarga ham, protsess ishtirokchilarining izohiga ham befarq emas, lekin shu o‘rinda o‘zining mustaqil fikriga ham ega. Sud majlisida bayonnomma yuritiladi. Lekin bayonnomma yuritishi shartmikan degan mulohaza ham yo‘q emas. Nazariy, amaliy jihatdan bu mulohazani qabul qilib bo‘lmaydi, albatta. Chunki, sud majlisining bayonnomasi uning oynasi hisoblanadi. Yuqori sudga tushgan shikoyat asosida ish yuritganda, dalil manbai sifatida sud bayonnomasi o‘rganiladi.

### **Nazorat savollari:**

1. Shaxsga nisbatan qaysi holatlarda qamoqqa olish tarzidagi ehtiyyot chorasi qo‘llaniladi
2. Pasportning (harakatlanish hujjatining) amal qilishini to‘xtatib turish majburlov chorasi mohiyatini tushuntiring.
3. Ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to‘g‘risidagi iltimosnomani ko‘rib chiqish tartibini tushuntiring.
4. Sud ekspertizasini o‘tkazish uchun shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish asoslari va muddatlariga to‘xtaling.
5. Murdani eksgumatsiya qilish asoslarini tushuntiring
6. Pochta-telegraf jo‘natmalarini xatlab qo‘yish tartibiga to‘xtaling.

<sup>28</sup> Inog‘omjonova Z.F. Jinoyat protsessida sud nazorati va uni amalga oshirish muammolari. yu.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T., 2006 . -B. 42

<sup>29</sup> Abdumajidov G‘.A. Sud nazorati yana-da kuchaytirilishi lozim // Dastlabki tergovda sud nazoratini tashkil qilish muammolari mavzusida ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – T.: TDYUI, 2005. –B.44.

#### **4. Sud qarorlarining qonuniyligi, asosligi va adolatliligin tekshirish masalalari**

**Reja:**

1. Hukm, ajrim va qarorlarning qonuniyligi, asosliligi va adolatliligin tekshirish turlari
2. Sud qarorlari ustidan shikoyat berish va protest bildirish huquqi hamda uning ta'minlanishi
3. Jinoyat ishining yuqori sud tomonidan ko'rilishida prokurorning ishtiroki
4. Yuqori sudda jinoyat ishini ko'rish chegarasi va muddatlari
5. Hukmni bekor qilish yoki o'zgartirish asoslari

**Tayanch so'zlar:** apellyatsiya, kassatsiya, nazorat instansiysi, protest, shikoyat, hukmni bekor qilish, hukmni o'zgartirish.

Jinoyat ishlarini apellyatsiya, kassatsiya va nazorat tartibida ko'rish chiqarilgan sud qarorlarining qonuniyligi, asosliligi va adolatliligin yuqori instansiya sudi tomonidan tekshirishning muhim shakli bo'lib, sud xatolarini bartaraf etishga qaratilgandir.

Jinoyat-protsessual qonunda nazarda tutilgan himoyalanishga bo'lgan huquq protsessning barcha ishtirokchilariga sudda ish yuritishning har qanday bosqichida ta'minlanmog'i lozim. Shunga muvofiq JPKning 497<sup>2</sup>, 498 va 510-moddalarida nazarda tutilgan protsess ishtirokchilari birinchi instansiya sudi chiqargan hukm va ajrim ustidan apellyatsiya hamda kassatsiya tartibida shikoyat berish va protest bildirishga, shuningdek sud qarorlari ustidan nazorat tartibida shikoyat berishga haqli. Sud apellyatsiya, kassatsiya shikoyati tushganligi, shuningdek apellyatsiya, kassatsiya va nazorat protesti bildirilganligidan mazkur shikoyat va protest protsess ishtirokchilaridan qaysi birining manfaatlariga taalluqli bo'lsa, shu ishtirokchilarning barchasini xabardor qiladi hamda bu hujjalarning ko'chirma nuxxalarini mahkumga, jabrlanuvchiga va oqlangan shaxsga yuboradi. Yuqorida zikr etilgan shaxslarning barchasi ish bilan, shuningdek taqdim etilgan qo'shimcha hujjalalar bilan tanishib chiqish va sudga o'z e'tirozlarini bildirish huquqiga ega.

Jinoyat ishlarini apellyatsiya, kassatsiya va nazorat tartibida ko'rish-ga, agar ishni qayta ko'rish uchun asos bo'layotgan hamda og'irroq jinoyat to'g'risidagi qonunni, jazoni kuchaytiradigan (og'irlashtiradigan) yoki mahkumning (mahbusning), oqlangan shaxsning ahvolini yomon-lashtiradigan qonunni qo'llashni ko'zda tutuvchi shikoyat yoki protest mahkumga (mahbusga),

oqlangan shaxsga tegishli tartibda tanishish uchun topshirilgan bo'lsa va shu asnoda ularga shikoyat yoki protest o'z e'tirozlarini bildirish huquqi real tarzda ta'minlangan bo'lsagina yo'l qo'yiladi.

Sud ish ko'rila'digan kun va joyni belgilaydi hamda bu haqda apellyatsiya yoki kassatsiya shikoyati bergen shaxsni va shikoyat yoki protest protsess ishtirokchilaridan qaysi birining manfaatlariga taaluqli bo'lsa, shu ishtirokchilarni xabardor etadi.

Jinoyat-protsessual kodeksida apellyatsiya instansiyasida ish ko'rila'yotganda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan shaxslar aniq sanab o'tilgan. Bular mahkum, oqlangan shaxs, ularning himoyachi va qonuniy vakillari, jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar va ularning vakillaridir. Ishda taraf bo'l magan shaxslar ham sud hukmining o'z huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor qismi ustidan shikoyat bergen bo'lsalar, ular ham apellyatsiya instansiyasida ish ko'rili'shida ishtirok etishga haqlidirlar. Ko'rsatilgan ishtirokchilarning hammasi, jazoni ijro etish muassasasidagi mahkumni istisno etganda, ishni kassatsiya va nazorat tartibida ko'rib chiqishda ham ishtirok etishga haqlidir. Jazoni ijro etish muassasasidagi mahkumning ishni ko'rishda ishtirok etishi, shuningdek mahkumni kassatsiya va nazorat instansiyasi sudi majlisiga olib kelinishi zarurligi to'g'risidagi masalani ishni kassatsiya yoki nazorat tartibida ko'rayotgan sud hal qiladi.

Jinoyat ishining apellyatsiya, kassatsiya yoki nazorat tartibida ko'rili'shida prokuror ishtirok etadi.

Jinoyat-protsessual kodeksida jinoyat ishini yuqori instansiya sudi tomonidan ko'rish chegarasi belgilangan. Yuqori instansiya sudi hukm, ajrim va qarorlarning qonuniyligi, asosliligi va adolatlilagini ishdagi mavjud materiallar hamda protsess ishtirokchilari qo'shimcha taqdim etgan yoki sud talab qilib olgan materiallar asosida, yangi ochilgan holatlar bo'yicha ish qayta ko'rila'yotganda esa shu holatlarni o'rganish materiallari asosida tekshiradi.

Jinoyat ishini apellyatsiya, kassatsiya instansiyasi sudida ko'rish ish shikoyat yoki protest bilan kelib tushgan kundan e'tiboran o'n besh kundan, nazorat instansiyasi sudida esa bir oydan kechikmay boshlanishi lozim. Qonun hujjatlarida o'ta murakkab ishlarni ko'rishda va boshqa alohida hollarda mazkur muddatni uzaytirish imkoniyati nazarda tutilgan. Bunday huquqqa quyidagilar ega: bu muddatni tegishli sud raisi ko'pi bilan o'n besh kunga, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining raisi yoki uning o'rinbosari ko'pi bilan bir oyga uzaytirishga haqli. Jinoyat ishining ko'rib chiqilishi muddatini uzaytirish to'g'risida qabul qilingan qaror haqida protsessning barcha manfaatdor ishtirokchilarini yuqori sud xabardor qiladi.

Ish ko‘rishni boshqa kunga qoldirishga uzrli sabablar bo‘lgandagina yo‘l qo‘yiladi. Agar ish ko‘rishda ishtirok etuvchi shaxslar ish ko‘rilishi haqida o‘z vaqtida va tegishli tartibda xabardor qilingan bo‘lsa-yu, sudda hozir bo‘lmasa va sudga kelmaganligining uzrli sabab-lari to‘g‘risida biron-bir tarzda xabar bermasa, bunday hollarda sud ishni ularning ishtirokisiz ko‘rish to‘g‘risidagi masalani muhokama qilishi va ajrim chiqarishi lozim, bu ajrim sud majlisi bayonnomasiga kiritiladi.

Qonunda apellyatsiya, kassatsiya va nazorat instansiysi sudi hukmni bekor qilishga (yoki uni o‘zgartirishga) haqliligi yoki haqli emasligi to‘g‘risidagi masalani hal qilishda ortiqcha rasmiylashtirishdan xoli bo‘lish va shu bilan birga ish yuritishda yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan barcha qoidabuzarliklarni qamrab olish imkonini beradigan umumlashma asoslar (JPKning 484-moddasi) tizimi nazarda tutilgan bo‘lib, bu asoslar yuqorida zikr etib o‘tilgan taqiqlarga rioya etilgan holda hukmni bekor qilish yoki uni o‘zgartirishga olib keladi.

Hukmni bekor qilish yoki o‘zgartirish asoslari ishni yuritishda yo‘l qo‘yilgan, hukmnинг qonuniy va asosli emasligidan dalolat beruvchi hamda hukmni bekor qilish yoki o‘zgartirishni taqozo etuvchi qoida-buzarliklardir.

Ana shu asoslar, ish apellyatsiya, kassatsiya yoki nazorat tartibida ko‘rilayotganligidan qat’i nazar, u yoki bu tarzda ish yuritishning mazmun va chegarasini belgilab beradi. Yuqori sud ham, hukm ustidan shikoyat bergen yoki protest bildirgan subektlar ham o‘z faoliyatlarida hukmni bekor qilish yoki o‘zgartirishning umumiylarini belgilov-chi apellyatsiya, kassatsiya yoki nazorat asoslari ishda bor-yo‘qligiga qarab ish tutadilar.

Apellyatsiya, kassatsiya yoki nazorat tartibida hukmni bekor qilish yoxud o‘zgartirish uchun quyidagilar asos bo‘ladi:

*1. Sud tergovining to‘liq emasligi yoki bir yoqlama olib borilganligi.* Hukm chiqarishda aniqlanishi muhim ahamiyatga ega bo‘lgan holatlar aniqlanmay qolgan sud tergovi bir yoqlama olib borilgan yoki to‘liq bo‘lmagan tergov hisoblanadi. Bu asos mazkur ish bo‘yicha isbotlash predmetiga kiradigan holatlarning hammasi tekshirilganligi va aniqlanganligi, shu asnoda ish holatlari har taraflama, to‘liq va xolisona tekshirilishiga oid talabga rioya etilganligi tekshirilishini ta’minlashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 485-moddasida sud tergovining to‘liq emas yoki bir yoqlama o‘tkazilgan deb topishga asos bo‘ladigan qoidabuzarliklar alohida ko‘rsatib o‘tilgan: a) ayblastish va hukm qilish uchun, reabilitatsiya etish uchun, ayblilik to‘g‘risidagi masalani hal qilmay turib jinoyat ishini tugatish uchun asos bo‘ladigan holatlar yetarlicha to‘la aniqlanmagan bo‘lsa; b) ko‘rsatuvlari ishni hal qilishga ta’sir etishi mumkin bo‘lgan shaxslar so‘roq qilinmagan, zarur bo‘lishiga qaramay ekspertiza

o‘tkazilmagan, hujjalalar yoki ashyoviy dalillar talab qilib olinmagan yoxud natijalari ish uchun ahamiyatli bo‘lishi mumkin bo‘lgan boshqa sud-tergov harakatlari o‘tkazilmagan bo‘lsa; d) ishni yangidan apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida ko‘rib chiqishga yuborgan nazorat instansiyasi sudining ajrimida yoki qarorida bayon qilingan holatlar tekshirilmagan bo‘lsa.

2. *Hukmda bayon qilingan sud xulosalari jinoyat ishining haqiqiy holatlariga muvofiq emasligi*. Mazkur asos quyidagi hollarda o‘rinli deb hisoblanadi: a) sud xulosalari sud majlisida ko‘rilgan dalillar bilan tasdiqlanmagan bo‘lsa; b) sud o‘z xulosasiga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan holatlarni hisobga olmagan bo‘lsa; d) ish uchun muhim ahamiyatga molik holatlarga oid dalillar bir-biriga zid bo‘lgani holda, sud qaysi asoslarga ko‘ra dalillardan ba’zilarini ishonarli deb topib, boshqalarini rad etganligi hukmda ko‘rsatilmagan bo‘lsa; f) sudning hukmda bayon qilingan xulosa-larida jiddiy ziddiyatlar mavjud bo‘lib, ular sudlanuvchining aybliligi masalasini hal qilishga, Jinoyat kodeksi normalarini to‘g‘ri qo‘llashga yoki jazo chorasini belgilashga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lsa.

Boshqa asoslar kabi mazkur asoslar ham hukmning asosli emasligini ochib beradi. Bunday asosning mavjudligi sud hukmda haqiqatni aniqlamaganligidan dalolat beradi. Mazkur asos bo‘yicha hukm yo bekor qilinishi yoki o‘zgartirilishi kerak. Hukm sud xulosalarining ishdagi haqiqiy holatlarga nomuvofiqligi mahkumning aybliligi yoki oqlangan shaxsning aybdor emasligi masalasini hal etishga ta’sir etishi mumkin bo‘lgan hollarda bekor qilinadi. Boshqa hollarda esa hukm o‘zgartirilishi mumkin.

3. *Jinoyat-protsessual qonuni normalarining jiddiy buzilishi*. Jinoyat-protsessual qonuning normalarini jiddiy buzish deganda ishni yuritishda protsess ishtirokchilarini qonun bilan kafolatlangan huquqlari-dan mahrum etish yoki bu huquqlarni cheklash bilan yoxud boshqa yo‘l bilan sudga ishni atroflicha, har tomonlama ko‘rishga xalaqit beruvchi qonuniy, asosli va adolatli hukm chiqarishga ta’sir etuvchi yoki ta’sir etishi mumkin bo‘lgan qonunbuzarliklar tushuniladi. Jinoyat-protsessual qonuni normalarining jiddiy buzilishi ish yuritishning qonun bilan belgilangan tartibining umumiyligi negiziga zarba beradi va qoida tariqasida, hukm bekor qilinishiga olib keladi. Bu asos baho berish xususiyatiga ega. U yoki bu qoidabuzarlikning jiddiy qoidabuzarliklar toifasiga kiritilishi yoki kiritilmasligini alohida olingan jinoyat ishining muayyan, aniq holatlaridan kelib chiqib hal etish mumkin. Qonun normalarini u yoki bu tarzda buzishni jiddiy buzilish deb e’tirof etish muayyan ishning holatlari bilan belgilanadiki, uning oqibatida bunday qoidabuzarlikni shartli qoidabuzarlik deb nomlashga odatlanilgan.

Ayni chog‘da jinoyat-protsessual qonunida shartli jiddiy qoidabuzarlik tavsifi berilishi bilan bir qatorda hukmning qonuniyligi va asosliligiga ta’sirini aniqlash talab etilmaydigan qonunbuzarliklarning alohida guruhi ham ajratib ko‘rsatilgan. Ular barcha sharoitda va ko‘rilayotgan har qanday jinoyat ishi bo‘yicha jiddiy buzilish deb topiladi. Bunday asosni ko‘rib chiqish oqibati hukmnii bekor qilishda o‘z ifodasini topadi, chunki bunday qoidabuzarlik hamma vaqt hukmningadolatlilagini shubha ostiga qo‘yadi. Ana shu jiddiy qoidabuzarliklarni qonunning shak-shubhasiz jiddiy buzilishi deb ataydilar.

Qonun normalarining shak-shubhasiz jiddiy buzilishi deb ataladigan guruhga quyidagilar kiradi: a) hukmnii qonunga xilof tarkibdagi sud chiqargan bo‘lsa; b) sudyaning hukmnii yakka o‘zi chiqarishi tartibi yoki hukm chiqarishda sudyalar maslahatlashuvining sir saqlanishi buzilgan bo‘lsa; d) qonunga ko‘ra sudlanuvchi sudga kelishi shart bo‘lgani holda ish uning yo‘qligida ko‘rilgan bo‘lsa; e) surishtiruv yoki dastlabki tergov tamomlanganidan so‘ng ayblanuvchi ishdagi barcha materiallar bilan tanishtirilmagan va bu qoidabuzarlik hukm chiqargan sud tomonidan bartaraf etilmagan bo‘lsa; f) himoyachiga ega bo‘lmagan sudlanuvchiga himoya nutqi uchun so‘z berilmagan bo‘lsa; g) sudlanuvchiga oxirgi so‘z berilmagan bo‘lsa; h) sudlanuvchining ona tilidan va tarjimon xizmatidan foydalanish huquqi buzilgan bo‘lsa; i) qonunga ko‘ra himoyachining ishtiroki shart bo‘lsa-da, ish uning ishtirokisiz tergov qilingan yoki ko‘rib chiqilgan bo‘lsa; j) ishni yuritishni istisno etadigan holatlari bo‘la turib, surishtiruv, dastlabki tergov va sud muhokamasi o‘tkazilgan bo‘lsa; k) sud majlisi bayonnomasi ishga tikilmagan yoki imzolanmagan bo‘lsa.

Yuqorida sanab o‘tilgan qoidabuzarliklar jinoyat-protsessual qonuning normalarini, shak-shubhasiz, jiddiy buzishdir.

*4. Jinoyat kodeksi normalarining noto‘g‘ri qo‘llanishi.* Bunday asos quyidagi hollarda mujassam bo‘ladi: a) sud qo‘llanilishi kerak bo‘lgan qonunni qo‘llamagan bo‘lsa; b) sud qo‘llanilishi kerak bo‘lmagan qonunni qo‘llagan bo‘lsa; d) qonun noto‘g‘ri, ya’ni aniq mazmuniga zid tarzda talqin etilgan bo‘lsa. Bu toifadagi asoslarning ancha keng uchraydigan varianti ayblanuvchining (mahkumning) harakatlarini jinoyat – huquq bo‘yicha tavsiflashdagi xatoliklarda uchraydi. Jinoyat to‘g‘risidagi qonun normalari noto‘g‘ri qo‘llanilganligini aniqlagach, sud hukmnii o‘zgartiradi.

Jinoyat-protsessual kodeksining 488-moddasiga ko‘ra, Jinoyat kodeksi normalari quyidagi hollarda noto‘g‘ri qo‘llanilgan deb e’tirof etiladi, basharti:

- 1) Jinoyat kodeksi Umumiy qismi moddalarining talablari buzilgan bo‘lsa;
- 2) jinoyat tavsifi Jinoyat kodeksining qo‘llanilishi kerak bo‘lgan moddasi (moddaning qismi, bandi) o‘rniga boshqa moddasi (moddaning qismi, bandi) bilan berilgan bo‘lsa;

3) mahkumga Jinoyat kodeksining mazkur moddasida nazarda tutil-magan jazo turi va me'yori tayinlangan bo'lsa.

5. *Jazoningadolatsizligi*. Bunday asosning mazmun va darajasi jinoyat to'g'ri tavsiflangan, jazo ham to'g'ri qo'llanilgan qonun doirasida belgilangan, ammo jinoyat huquqi nuqtai nazaridan mazkur jazo sodir etilgan jinoyatning og'irlilik darajasi va mahkumning shaxsiga nomuvofiq bo'lgan hollarni qamrab oladi. Buni mustaqil asos sifatida ajratib ko'rsatilishi muxim ahamiyatga ega. Chunki u sudning e'tiborini jazo me'yorini individuallashtirish bilan bog'liq vazifaga, tom ma'noda adolatli bo'ladigan jazo tayinlashga qaratadi.

*Jinoyat ishini apellyatsiya, kassatsiya yoki nazorat tartibida ko'rvuchi sudning vakolatlari*. Sud jinoyat ishini apellyatsiya, kassatsiya yoki nazorat tartibida ko'rib chiqib, JPKning 497<sup>13</sup>, 506<sup>1</sup> va 521-moddala-riga muvofiq qaror qabul qiladi.

Nazorat instansiyasi sudi jinoyat ishini nazorat tartibida ko'rib qisman sud tergovi o'tkazish yo'li bilan kamchiliklarni to'ldirish yoki aniqlangan kamchiliklarni yoxud protsessual qoidabuzarliklarni bartaraf etish imkoniyati bo'lman taqdirda, apellyatsiya yoki kassatsiya ajrimini bekor qiladi, shuningdek agar keyin sud ajrimlari, qarorlari chiqarilgan bo'lsa, ularni ham bekor qiladi va ishni yangitdan apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida ko'rib chiqishga o'tkazadi.

Apellyatsiya, kassatsiya instansiyasi sudi to'liq yoki qisman sud tergovi o'tkazishga, hukmni bekor qilishga va yangi hukm chiqarishga yoxud hukmga o'zgartirishlar kiritishga haqlidir.

Nazorat instansiyasi sudi, agar birinchi instansiya, apellyatsiya yoki kassatsiya instansiyalari sudi tomonidan yo'l qo'yilgan kamchiliklarni to'ldirish va protsessual qoidabuzarliklarni bartaraf etish imkoniyati bo'lsa, qisman sud tergovi o'tkazish va hukmga o'zgartishlar kiritishga haqlidir.

Yuqori instansiya sudi asoslar mavjud bo'lgan taqdirda, mahkumni o'ta xavfli retsidivist deb topishga, unga jazoni ijro etish koloniyasining qattiqroq turini belgilashga, jinoyat oqibatida yetkazilgan zararni qoplash miqdorini ko'paytirishga haqlidir.

Yuqori instansiya sudi hukmning ayrim mahkumlarga qo'yilgan ayblov qismini yoki fuqaroviy da'vo qismini bekor qilishga yoki o'zgartirishga haqlidir.

### **Nazorat savollari:**

1. Hukm, ajrim va qarorlarning qonuniyligi, asosliligi vaadolatlilagini tekshirishning qanday turlari bor?

2. Jinoyat ishining yuqori sud tomonidan ko‘rilishida ish ko‘riladigan joy va vaqt haqida o‘z vaqtida ogohlantirilgan shaxslarning uzrsiz sabablarga ko‘ra kelmaganligi qanday oqibatga iolib keladi?

3. Yuqori sudda jinoyat ishini ko‘rish chegarasi nimalarni o‘z ichiga oladi?

4. Apellyatsiya, cassatsiya yoki nazorat tartibida hukmni bekor qilish yoki o‘zgartirish uchun nimalar asos bo‘ladi?

## **5. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha zamonaviy talab va standartlar**

### **Reja:**

1. Korrupsiyaga qarshi kurashishning tushunchasi, mazmun mohiyati.
2. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha xorijiy tajribani manbalar asosida o‘rganish va tahlil qilish.

#### **1. Korrupsiyaga qarshi kurashishning tushunchasi, mazmun mohiyati**

**korrupsiya** – atama lotincha “corruptio” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “buzish”, “sotib olish” degan ma’nolarni anglatadi. Ushbu ikki so‘z korrupsiyaning mazmun-mohiyatini belgilab beradi.

**korrupsiya** – shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

**korrupsiyaga oid huquqbazarlik** – korrupsiya alomatlariga ega bo‘lgan, sodir etilganligi uchun qonun hujjalardan javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

**manfaatlар to‘qnashuvi** – shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatayotgan yoxud ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyat.

BMT Bosh kotibi A.Gutterish tomonidan keltirilgan ma’lumotlarga asosan jahon hamjamiyatida har yili **1 trillion** AQSh dollar hajmida pora berish va olish holatlari sodir etiladi. Dunyo iqtisodiyoti har yili korrupsiya tufayli **2,6 trillion** AQSh dollaridan ortiq mablag‘dan ayrıldi, bu jahon yalpi ichki mahsulotining **5 foizini** tashkil etishini ma’lum qilgan edi.

Agarda milliy doirda korrupsiyaga oid jinoyatlarning sodir etilish statistik raqamlarga to‘xtaladigan bo‘lsak, 2017–2020 yillar davomida **6.127 nafar** mansabdor shaxsning jinoiy javobgarlik masalasi hal qiligan. Bulardan 2018-yil davomida davlat ulushi bo‘lgan ho‘jalik yurituvchi sub’ektlar mansabdor shaxslariga jami **351 ta (2019-y. 129 ta)**, davlat ulushi bo‘lmagan ho‘jalik yurituvchi sub’ektlar mansabdor shaxslariga 2018-yil davomida **362 ta (2019-y. 401 ta)** jinoyat ishi mayjud ekanligini ko‘rsatmoqda.

Shuningdek, mansabdor shaxslarning korrupsiyaga oid jinoyatlari oqibatida davlat va jamiyat manfaatlariga 2017-yilda **142 mlrd. 662 mln. so‘m**,

2018 yilda **559 mlrd. 174 mln. so‘m**, 2019-yilda esa **1 trln. 853 mlrd. so‘m** miqdorida moddiy zarar yetkazilgan.

1979-yil 17-dekabrda qabul qilingan Huquqiy tartibotni saqlash bo‘yicha mansabdor shaxslarning xulq-atvor kodeksida: “Korrupsiya tushunchasi milliy huquqda belgilanishi lozim”, deb qayd etilgan, lekin mazkur hodisaning namunaviy ta’rifi keltirilgan: “...mansabdor shaxs o‘z mansab vakolatlari sohasida har qanday shakldagi haq evaziga mazkur haqni beruvchining manfaatlarida, lavozim yo‘riqnomasi qoidalarini buzgan holda yoki buzmasdan muayyan harakatlarni bajarishi yoki harakatsizligi”.

BMTning xalqaro miqyosda korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha ma’lumotida korrupsiya tushunchasiga quyidagicha ta’rif berib o‘tiladi: **“Korrupsiya – bu shaxsiy maqsadlarda naf ko‘rish uchun davlat hokimiyatini suiiste’mol qilish”**.

1994-yilning 31-dekabrida “Finansial Times” gazetasi 1995-yilni “Korrupsiya yili” deb e’lon qilganligi ko‘pchilikka ma’lum. Birlashgan Millatlar Tashkiloti esa korrupsiyaga oid savodxonlikni tashviqot qilish uchun 9-dekabrnii **“Korrupsiyaga qarshi kurash xalqaro kuni”** deb ta’sis etdi va ushbu kun 2004-yildan boshlab xalqaro doirada nishonlanib kelinadi.

Korrupsiya rivojlangan jamiyatlarda uning quyidagi turlari tez-tez uchraydi:

- *Maishiy korrupsiya, asosan mansabdor shaxslar va davlat xizmatchilarining kundalik ish faoliyatida fuqarolar bilan munosabatlarida manfaatlar to‘qnashadi;*
- *Ishbilarmonlik korrupsiyasi, bu hokimiyat vakillarining tadbirkorlik sub’ekt (biznesmen)lari bilan munosabatlarida uchraydi;*
- *Oliy hokimiyat organlari korrupsiyasi, bu demokratik jamiyatlarda siyosiy hukmron doiralar hamda odil sudlov tizimi faoliyatida ko‘zga tashlanadi.*

**Korrupsiyaning miqyosi va qamrovini belgilovchi omillarning quyidagi guruhlarini ajratib ko‘rsatish mumkin.**

**Antropologik omillar:** **insonning ziddiyatli tabiati, ezgulik va yovuzlikning doimiy kurashi, insonning kam kuch sarflab ko‘proq foyda olishga intilishi va sh.k.**

<b>Iqtisodiy omillar:</b>	tadbirkorlik faoliyatining yuqori darajadagi transaksiyaviy xarajatlari (“qonunga bo‘ysunish bahosi”), bozor xo‘jaligi doirasidagi raqobat, iqtisodiyotning turli sektorlarining notekis rivojlanishi, inflyatsiya, almashuv kurslarining keskin o‘zgarib turishi, soliqqa tortish tizimi va boshqalar.
<b>Ijtimoiy omillar:</b>	jamiyatning ijtimoiy tabaqalashuvi, «xavf guruhlari»ning mavjudligi, mehnat qonunchiligining buzilishi, muhojir ishchilar, ayollar va o‘smlar mehnatidan foydalanishda ijtimoiy adolat prinsiplariga rioya etilmasligi va h.k.
<b>Huquqiy omillar:</b>	tadbirkorlikning huquqiy asosi nomukammalligi, bozor xo‘jaligining o‘zgarib boruvchi shart-sharoitlari bilan mavjud qonunchilik bazasi o‘rtasida ziddiyat mavjudligi, uy xo‘jaligining tartibga solinmasligi va sh.k.
<b>Axloqiy omillar:</b>	qonunchilik hamda tadbirkorlikning axloqiy asoslari o‘rtasidagi ziddiyatlar, davlat va jamiyat, davlat va individ manfaatlari o‘rtasidagi ziddiyatlar; milliy an’analarning hisobga olinmasligi, diniy qoidalarning ta’siri va boshqalar.
<b>Siyosiy omillar:</b>	hokimiyat va yirik kapital o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, oligarxiyaning shakllanishi, hokimiyat kuchi hamda iqtisodiy faoliyatga ta’sir ko‘rsatishning kuchga asoslangan usullari o‘rtasidagi nisbat. Iqtisodiyotni rivojlantirishning ob’ektiv ehtiyojlari va davlat siyosati o‘rtasidagi ziddiyat va sh.k.

Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirishda qo‘yidagi masalalarga alohida ahamiyat berish zarur:

**Birinchidan**, qonun hujjatlarida hali-hamon korrupsiogen (korrupsiyaviy omillar keltirib chiqaruvchi) normalar mavjudligi va ushbu normalarni ekspertizadan o‘tkazishning samarali mexanizmi amalda yo‘lga qo‘yilmaganidir. Ya’ni qonun hujjatlaridagi u yoki bu normalarning o‘zi korrupsiya holatlariga yo‘l qo‘yib berishi, ayrim davlat idoralariiga ortiqcha vakolat berilayotgani yoki vakolatning suiiste’mol qilinishiga huquqiy asosning ruxsat berish holatlari mavjudligidir.

**Ikkinchidan**, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini tubdan isloh etish zarur. Ya’ni mavjud tizim negizada, davlat rahbari tomonidan lavozimiga

tayinlanadigan va parlament yuqori palatasiga hisobdor bo‘lgan mustaqil davlat agentligini tayushkil etish maqsadga muvofiq. Korrupsiyaga qarshi tuzilmalarning bir nechta davlat idoralarida faoliyat ko‘rsatishi bir-birining faoliyat va vakolatlarini takrorlasa, ikkinchi jihatdan bitta idorada ham ushbu tuzilma va tergov organining faoliyat yuritishi o‘z-o‘zidan shu organga sudlar faoliyatiga ta’sir etish mexanizmini taqdim etadi, sudlar mustaqilligiga putur yetadi, pirovardida esa odil sudlovnii to‘la ta’minlash qiyinlashadi.

**Uchinchidan**, bugungacha korrupsiya deyilganda, aholining ko‘pchilik qismi O‘zbekiston Respublikasi JKning (210-moddasi) pora olish, (211-moddasi) pora berish, (212-moddasi) pora olish-berishda vositachilik qilishni nazarda tutuvchi dispozitsiyalarni tushunishardi. Vaholanki, shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatayotgan yoxud ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik, guruhlar manfaatlari yo‘lidagi harakatlar, xodimlarni pora va boshqa haq evaziga og‘dirish yo‘lidagi harakatlarga e’tibor kam. Shu boisdan “manfaatlar to‘qnashuvi”ni JKda huquqiy norma sifatida aniq yoritish, Oliy sud tomonidan rasmiy tushuntirish berilishi, bu borada sanksiya masalasini ham qayta ko‘rib chiqish lozim.

**To‘rtinchidan**, noqonuniy (ro‘yxatdan o‘tmagan) biznesning umumiyligi biznesdagi salmoqli o‘rni, ya’ni yashirin iqtisodiyot, naqd pulning noqonuniy aylanmasi, soliqqa tortilmaydigan mablag‘ning katta miqdori saqlanib qolayotgani hamda ushbu noqonuniy biznes va pul aylanmasini qonunlashtirish, legallashtirish yo‘liga o‘tkazishning samarali mexanizmi joriy etilmagan. Shuningdek, daromadni deklaratsiya qilish tizimini mukammal tartibga solish lozim bo‘ladi.

**Beshinchidan**, har bir jabhada parlament nazoratini takomillashtirish lozim bo‘ladi.

**Oltinchidan**, rivojlangan qator davlatlarda aynan korrupsiyaga qarshi kurash borasida ham shu tashkilotlarning jamoatchilik bilan aloqalar tuzilmasi rahbarlik tuzilmalaridan biri sanaladi hamda OAV bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik qiladi va jamoatchilik nazorati asosiy rol o‘ynaydi.

**Yettinchidan**, korrupsiyaga qarshi kurashda aholining huquqiy savodxonlik masalasini oshrish lozim bo‘ladi. Shu bois maktablarda, oliy ta’lim va undan keyin, ayniqsa, korrupsiyaga qarshi kurash tizimi uchun kadrlar zaxirasini shakllantirishda ma’naviyat darslarini keng yo‘lga qo‘yish ayni muddao.

## **2. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha xorijiy tajribani manbalar asosida o‘rganish va tahlil qilish**

**Korrupsiyaga qarshi kurashning Yevropa mexanizmi** - Korrupsiyaga qarshi kurash Yevropa ittifoqi va Yevropa Kengashining korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi hujjatlar tashkil etadi. Bular: Yevropa Kengashining korrupsiya uchun jinoiy javobgarlik to‘g‘risidagi Konvensiyasi (Strasburg, 1999-yil 27-yanvar); Yevropa Kengashining korrupsiya uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik to‘g‘risidagi Konvensiyasi (Strasburg, 1999-yil 9-sentabr); Yevropa Kengashining jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni tozalash, aniqlash, olib qo‘yish va musodara qilish to‘g‘risidagi Konvensiyasi (Strasburg, 1990-yil 8-noyabr); Korrupsiyaga qarshi kurashning yigirmata prinsipi (Yevropa Kengashi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan 1997-yil 6-noyabr); Davlat xizmatchilari uchun Model xulq-atvor kodeksi (Yevropa Kengashi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan 2000-yil 11-may); Siyosiy partiyalarni va saylov kampaniyasini moliyalashtirishda korrupsiyaga qarshi yagona qoidalari (Yevropa Kengashi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan 2003-yil 8-aprel); Moliyaviy tizimdan pulni tozalash maqsadlarida foydalanishga yo‘l qo‘ymaslik to‘g‘risidagi YeII Direktivasi (1991-yil 10-iyun); Pulni legallashtirishga qarshi Parij deklaratsiyasi (Yevropa Ittifoqining pulni tozalashga qarshi parlamentar konferensiyasining Yakuniy deklaratsiyasi 2002-yil 8-fevral).

**Korrupsiyaga qarshi kurashning Yevropa Kengashi xujjatlari** – Yevropa Kengashi 1949-yil 5-mayda tashkil qilingan bo‘lib, 47 davlatni o‘z ichiga olgan. U umumiy yevropa masalalarini muhokama qilish bo‘yicha forum hisoblanadi. Uning nizomi a’zo davlatlar o‘rtasida iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni qo‘llab quvvatlash, hamkorlikni takomillashtirish masalalarini qamrab olgan. Yevropa Kengashining korrupsiyaga qarshi siyosatini amalga oshirishda ikkita konvensiya alohida o‘rin tutadi: **Korrupsiya uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik to‘g‘risidagi konvensiya va Korrupsiya uchun jinoiy javobgarlik to‘g‘risidagi konvensiya**. Ikkala konvensiya ham 1999-yil qabul qilingan. Korrupsiya uchun jinoiy javobgarlik to‘g‘risidagi konvensiya 1999-yil 27-yanvarda, unga qo‘srimacha protokol 1999-yil 15-may qabul qilindi. Bu konvensiya OESR konvensiyasidan farq qilgan holda, xorijiy mansabdor shaxslarning passiv poraxo‘rligi uchun jinoiy ta’qib qilish, xususiy sektordada ham poraxo‘rlikka qarshi kurashishi masalalarini ham o‘z ichiga olgan.

### **Korrupsiyaga qarshi kurashishda xalqaro huquqiy asoslar.**

BMT, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OESR), YeXHT, Yevropa Kengashi, YeI, FATF kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi bir qator huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Bular ichida

BMTning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash to‘g‘risidagi Konvensiyasi (BMT Bosh assambleyasining Rezolyusiyasi bilan 2000-yil 15-noyabrda qabul qilingan), BMTning Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risidagi Konvensiyasi (BMT Bosh assambleyasining Rezolyusiyasi bilan 2003-yil 31-oktabrda qabul qilingan), Terrorizmni moliyalashtirish bilan bog‘liq operatsiyalarni aniqlash bo‘yicha moliyaviy tashkilotlar uchun FATF tavsiyalari (2002-yil), Ish yuzasidan xalqaro operatsiyalarni amalga oshirishda chet elliq davlat mansabdor shaxsi tomonidan pora berishga qarshi kurash to‘g‘risidagi Konvensiya (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OESR) tomonidan qabul qilingan 1997-yil 21-noyabr), Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risidagi Amerikalararo konvensiyasi (Karakas, 1996-yil 29-mart), Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OESR) tomonidan qabul qilingan Korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi Stambul harakat dasturi 2003-y. alohida ahamiyat kasb etadi.

BMT tomonidan qabul qilingan Korrupsiyaga qarshi kurash rezolyusiyasi (1995-y.), Davlat mansabdor shaxslarining xalqaro axloq kodeksi (1996-y.), Xalqaro tijorat tashkilotlarida korrupsiya va poraxo‘rlikka qarshi kurash haqidagi deklaratsiya (1997-y.), Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash konvensiyasi (2000-y.) va boshqa xalqaro hujjatlarning qabul qilingani mazkur illatga qarshi kurashda muhim omil vazifasini o‘tamoqda.

Korrupsiyaning nafaqat milliy jinoyatchilik, balki transmilliy jinoyatchilik ekanligi to‘grisidagi fikrlar o‘tgan asming 80-yillaridan boshlab aytila boshlangan edi.

1998-1999-yillarda Yevropa komissiyasidagi bir qator shaxslarning o‘z mansab mavqeini suiiste‘mol qilishi, moliyaviy nayranglarda ayblanishi xalqaro jamoatchilikni yanada hushyorroq bo‘lishga undadi.

1990-yillarda korrupsiyaviy qilmishlar xalqaro sport tashkilotlari faoliyatida ham yuz bergapi ko‘pchilikka ma’lum bo‘lsa kerak.

Keyingi o‘n yillikda qator xalqaro tashkilotlar korrupsiyaga qarshi kurashda tashabbuskorlik ko‘rsatib, xalqaro hamjamiyatni bu illatning oldini olishda hamkorlikka da’vat etib kelmoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurashga o‘z faoliyatida alohida e’tibor berib kelayotgan quyidagi xalqaro tashkilotlarni ko‘rsatib o‘tish mumkin:

### **BMTning korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi hujjatlari:**

- 1) “Huquqiy tartibotni saqlash bo‘yicha mansabдор shaxslarning xulq-atvor Kodeksi” (BMT Bosh assambleyasining Rezolyusiyasi bilan 1979-yil 17-dekabrda qabul qilingan);
- 2) Huquqiy tartibotni saqlash bo‘yicha mansabдор shaxslarning xulq-atvor Kodeksini samarali amalga oshirilishi uchun rahbariy prinsiplar (BMTning Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengashi rezolyusiyasi bilan 1989-yil 24-mayda qabul qilingan);
- 3) Davlat mansabдор shaxslarining Xalqaro xulq-atvor kodeksi (BMT Bosh assambleyasining Rezolyusiyasi bilan 1996-yil 12-dekabrda qabul qilingan);
- 4) BMTning Xalqaro tijorat operatsiyalarida korrupsiya va poraxo‘rlikka qarshi kurash to‘g‘risidagi Deklaratsiyasi (BMT Bosh assambleyasining Rezolyusiyasi bilan 1996-yil 16-dekabrda tasdiqlangan);
- 5) Terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to‘g‘risidagi xalqaro konvensiya (BMT Bosh assambleyasining Rezolyusiyasi bilan 1999-yil 9-dekabrda qabul qilingan);
- 6) BMTning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash to‘g‘risidagi Konvensiyasi (BMT Bosh assambleyasining Rezolyusiyasi bilan 2000-yil 15-noyabrd qabul qilingan);
- 7) BMT Forumining ofshorlar bo‘yicha Kommyunikesi (Kayman orollari, 2000-yil 30-31-mart);
- 8) Korrupsiyaga qarshi kurash choralari. Pulni tozalashga qarshi kurash choralari. Jinoyatchilik va odil sudlov: XXI asr chorloviqa javoblar to‘g‘risidagi Vena deklaratsiyasini amalga oshirish harakat Rejası (BMT Bosh assambleyasining Rezolyusiyasi bilan 2002-yil 15-aprelda qabul qilingan)
- 9) BMTning Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risidagi Konvensiyasi (BMT Bosh assambleyasining Rezolyusiyasi bilan 2003-yil 31-oktabrda qabul qilingan).

Bu haqida 1996-yilda qabul qilingan BMTning «**Xalqaro tijorat operatsiyalarida poraxo‘rlik va korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida»gi Deklaratsiyasi ham mavjud. Ushbu Deklaratsiyada a’zo davlatlarning xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar doirasida korrupsiyaning barcha shakllariga qarshi kurashishda aniq va samarali choralarini ko‘rishi, amaldagi qonunlarning**

samarali ijro etilishi, xorijiy davlat mansabdon shaxslarining poraxo‘rligi uchun jinoiy javobgarlikni belgilashda samarali usullarni qo‘llash, poraxo‘rlikning asosiy belgilari, mansabdon shaxslarning ta’magirligi, xalqaro tijorat operatsiyalarida mansabdon shaxslarning o‘z vazifasidan chetga chiqishi, korrupsiyaga qarshi kurashda davlatlar hamkorligidan maksimal darajada hamkorlik qilish, hamkorlik qilish shakllari, ma’lumotlarni almashish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

BMT doirasida qabul qilingan 1996-yildagi rezolyusiyasi bilan tasdiqlangan “**Davlat mansabdon shaxslari axloqining xalqaro kodeksi**”da davlat mansabdori shaxslari faoliyatining prinsiplari belgilab berilgan edi. Ushbu kodeksda davlat mansabdon shaxslarining vazifalari, davlatlar manfaatlari kolliziyasi, aktivlar haqida ma’lumot almashish, sovg‘alar va diqqatni jalg qiluvchi boshqa belgilar, mahfiy ma’lumotlar kabi masalalar keltirilgan.

BMTning yuqorida qayd etilgan hujjatlarida korrupsiyaning xalqaro xarakteri va unga qarshi kurashning vositalari va metodlari hakida tavsiyaviy qoidalar o‘z aksini topgan. BMT tomonidan 2000-yil 15-noyabrda qabul qilingan “**Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash**” Konvensiyasida korrupsiyaning transmilliy xarakterdagi jinoyat ekanligi va unga qarshi kurashda Konvensiyaga qo‘shilgan mamlakatlarning majburiyatları va korrupsiyaga qarshi kurashning keng qamrovli choralar o‘z aksini topgan.

**BMTning korrupsiyaga qarshi konvensiyasi** - Korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi eng asosiy xalqaro hujjat. Konvensiya 2003-yil 31-oktabrda qabul qilingan BMT tomonidan qabul qilingan. Konvensiya muqaddima hamda 8 ta bob, 71 ta moddadan iborat bo‘lib, 1-bobda (1-4) umumi qoidalar, 2-bobda (5-14) korrupsiyaning oldini olish choralar, 3-bobda (15-42) jinoyatchilik va huquqni muhofaza qilish faoliyati, 4-bobda (43-50) xalqaro hamkorlik, 5-bobda (51-59) aktivlarni qaytarish bo‘yicha choralar, 6-bobda (60-62) texnik yordam va ma’lumot almashinuvi, 7-bobda (63-64) amalga oshirish mexanizmlari, 8-bobda (65-71) yakuniy qoidalar aks etgan.

**“Ommaviy mansabdon shaxs”** – quyidagilarni hisoblanadi:

1) shaxsning mansab darajasidan qat’i nazar, doimiy yoki muvaqqat asosda, ish haqi uchun yoki ish haqini olmasdan ishtirokchi davlatning qonunchilik, ijroiya, ma’muriy yoki sud organida biron lavozimni egallab turgan har qanday tayinlanadigan yoki saylanadigan shaxs;

2) shuningdek, ommaviy mussasa yoki ommaviy korxona uchun biron ommaviy vazifani bajarayotgan yoki ishtirokchi davlatning ichki qonunchiligidagi belgilangan tartibda va ushbu ishtirokchi davlatning huquqiy tartibga solishning tegishli sohasida qo‘llaniladigan tartibda biron ommaviy xizmatni taqdim etayotgan har qanday boshqa shaxs;

3) ishtirokchi Davlatning ichki qonunchiligidagi “ommaviy mansabdor shaxs” sifatida belgilanadigan har qanday boshqa shaxs.

**“Xorijiy ommaviy mansabdor shaxs”** – xorijiy davlatning qonunchilik, ijroiya, ma’muriy yoki sud organida biron lavozimni egallab turgan har qanday tayinlanadigan yoki saylanadigan shaxs va xorijiy davlat uchun, shu jumladan ommaviy muassasa yoki ommaviy korxona uchun biron ommaviy vazifani bajaradigan shaxs ko‘zda tutiladi.

**“Nazorat ostida yetkazib berish”** – biron jinoyatni tergov qilish yoki unda ishtirok etgan shaxslarni aniqlash maqsadida vakolatli organlarning ruxsati bilan va nazorati ostida noqonuniy yoki shubha uyg‘otadigan yuklar turkumlarini bir yoki bir necha davlatlar hududlaridan olib chiqish, ushbu hududlarga olib o‘tish yoki olib kirishga yo‘l qo‘yiladigan uslub nazarda tutiladi.

Bugungi kunda xalqaro hamjamiatning eng muhim yutug‘i BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi (UNCAC) bo‘lib, u Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh assambleyasi, Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash (YeCOSOS) va IHRT, Yevropa Kengashi va boshqa mintaqaviy organlarning avvalgi harakatlariga asoslanadi. Ushbu Konvensiya Bosh Assambleyaning 2003-yil 31-oktabrdagi 58/4 rezolyusiyasi bilan qabul qilingan.

O‘zbekiston Respublikasi mazkur xalqaro hujjatni ratifikatsiya qilgan: O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan **“BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga O‘zbekiston Respublikasining qo‘silishi to‘g‘risida”gi Qonuni** 2008-yil 24-iyunda qabul qilindi va 2008-yil 27-iyunda O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Senati tomonidan ma’qullandi va 2008-yil 28-avgustdan e’tiboran kuchga kirdi.

BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi muqaddima hamda **8 ta bob, 71 ta moddadan iborat bo‘lib**, 1-bobda (1-4) umumiyligi qoidalar, 2-bobda (5-14) korrupsiyaning oldini olish choralar, 3-bobda (15-42) jinoyatchilik va huquqni muhofaza qilish faoliyati, 4-bobda (43-50) xalqaro hamkorlik, 5-bobda (51-59) aktivlarni qaytarish bo‘yicha choralar, 6-bobda (60-62) texnik yordam va ma’lumot almashinuvi, 7-bobda (63-64) amalga oshirish mexanizmlari, 8-bobda (65-71) yakuniy qoidalar aks etgan.

(UNCAC) korrupsiya, poraxo‘rlik va ularning boshqaruv tizimiga va hukumat tuzilmalariga zararli ta’siriga qarshi yagona global va qonuniy majburiy bo‘lgan javobdir va ushbu muammoni hal etishga kompleks yondoshish rejasini aks ettiradi. (UNCAC) qabul qilinishidan oldin sa’y-harakatlar faqat poraxo‘rlik va korrupsiyani kriminallashtirishga qaratilgan, shu bilan birga (UNCAC) korrupsiyaga kompleks yondoshadi va beshta asosiy chora-tadbirlarga e’tibor qaratadi:

1. Korrupsiyaning oldini olish choralar (II bob);

2. Jinoatchilik va huquqni muhofaza qilish (III bob);
3. Xalqaro hamkorlik (IV bob);
4. Aktivlarni tiklash bo‘yicha choralar (V bob);
5. Amalga oshirish mexanizmlari (VII bob).

Office siyosatchilar va amaliyotchilar uchun bir qator texnik vositalar va qo‘llanmalarini ishlab chiqdi va boshqa bir qator korrupsiyaga qarshi nashrlarni ishlab chiqdi, shu jumladan:

- BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasini amalga oshirish bo‘yicha qonuniy qo‘llanma;
- BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasini amalga oshirish bo‘yicha texnik ko‘rsatmalar;
- Prokuror va tergovchilar uchun korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha amaliy choralar bo‘yicha BMT qo‘llanmasi;
- o‘zaro huquqiy yordam so‘rab murojaat qilish uchun ariza;
- Sudyalarning mustaqilligini oshirish va sud tizimining imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha qo‘llanma;
- «Korruptsiyaga qarshi kurashda jamoat yordamini kuchaytirish: korrupsiyaga qarshi idoralar nima uchun va qanday qilib birgalikda ishlashlari kerak» nomli amaliy qo‘llanma;
- Davlat xaridlari va davlat moliyasini boshqarish bo‘yicha korruptsiyaga qarshi qo‘llanma;
- Jahon banki/ UNODC qo‘shma loyihasining “STAR” tashabbusi doirasida ‘rishilgan yutuqlar to‘g‘risidagi hisobotlar.

O‘zbekiston Respublikasi mazkur konvensiyaga bir nechta bildirishlar, bayonetlar va shartlar bilan qo‘shilgan.

Konvensianing 15-moddasi “Milliy ommaviy mansabdor shaxslarni pora evaziga og‘dirish”; 16-moddasi “Xorijiy ommaviy mansabdor shaxslarni va ommaviy xalqaro tashkilotlarning mansabdor shaxslarini pora evaziga og‘dirish”; 17-moddasi “Ommaviy mansabdor shaxs tomonidan mol-mulk talon-toroj qilinishi, noqonuniy o‘zlashtirilishi yoki ko‘zda tutilmagan maqsadlarda ishlatilishi”; 18-moddasi “G‘arazli maqsadlarda mavqeidan foydalanish”; 19-moddasi “Xizmat mavqeining suiiste’mol qilinishi”; 21-modda “Xususiy sektorda pora evaziga og‘dirish”; 22-moddasi “Xususiy sektorda mulkning talon-toroj qilinishi”; 23-moddasi 1-bandi “Jinoiy yo‘l bilan topilgan daromadlarni legallashtirish”; 24-moddasi “Yashirish”; 25-moddasi “Odil sudlovning amalga oshirilishiga to‘sinqinlik qilish”; 27-moddasi “Ishtirok va suiqasd” deb nomlangan.

Konvensianing mansab mavqeini suiiste’mol qilish shakllari juda rang-barang bo‘lgani bois, turli mezonlarga ko‘ra korruksianing har xil turlari farqlanadi.

## **Korrupsiyani bir nechta asosiy turlarga ajratish mumkin:**

- 1) sub'ektlarning maqomiga ko'ra:
  - a) hokimiyat organlaridagi korrupsiya;
  - b) xususiy sektordagi korrupsiya;
  - v) siyosatdagi korrupsiya yoki siyosiy korrupsiya;
- 2) darajasiga ko'ra:
  - a) quyi darajadagi korrupsiya;
  - b) yuqori darajadagi korrupsiya;
  - v) vertikal korrupsiya;
- 3) ijtimoiy xavflilik darajasiga ko'ra:
  - a) korrupsiya-qilmish;
  - b) korrupsiya-jinoyat.

## **Konvensiyaga muvofiq korrupsiyaning uchta asosiy shaklini ajratish mumkin:**

**1)** siyosiy. Mansabdar shaxs yuzaga kelgan qarindosh-urug'chilik munosabatlari tufayli qonunga zid harkat qiladi;

**2)** jinoyat faoliyati bilan bog'liq bo'lib, mansabdar shaxslarni sotib olishga asoslangan. Ular esa mukofot puli olish evaziga g'ayoriqonuniy xizmatlar ko'rsatadi;

**3)** taraflardan biri o'ziga eng qulay tartib vujudga keltirish uchun jinoyatga mansabdar shaxslarning tegishli toifalarini izchillik bilan jalb etishni nazarda tutadi. Korrupsiyaning bu shakli uyushgan jinoyatchilik bilan mustahkam bog'langan bo'lib, mansabdar shaxslarga nisbatan sotib olish, provakatsiya qilish va tahdid solishni anglatadi.

Korrupsiyaning pora olish va xizmat mavqeini suiiste'mol qilish kabi odadagi shakllaridan tashqari, korrupsiya amalda namoyon bo'lishining quyidagi shakllarini farqlash mumkin:

mansabdar shaxslar, davlat xizmati xodimlari, deputatlar tijorat faoliyatida shaxsiy yoki korporativ naf ko'rish uchun bevosita ishtirok etishi;

davlat pul mablag'larini o'zlashtirish niyatida tijorat tuzilmalariga o'tkazish uchun o'z xizmat mavqeidan foydalanish;

o'z korporativ (siyosiy, diniy, milliy va sh.k.) guruhiga davlat resurslari hisobidan imtiyozlar berish;

shaxsiy yoki korporativ naf ko'rish maqsadida ommaviy axborot vositalariga tazyiq o'tkazish uchun o'z xizmat mavqeidan foydalanish;

mansabdar shaxslar va davlat xizmati xodimlari shaxsiy boyish maqsadida tijorat tuzilmalarida soxta shaxslardan va qarindoshlaridan foydalanishi;

shaxsiy yoki korporativ naf ko‘rish maqsadida axborotni manipulyatsiya qilish (buzib ko‘rsatish, bermaslik, berish muddatlarini cho‘zish va sh.k.) uchun xizmat mavqeidan foydalanish;

tor guruhiy manfaatlarda normativ hujjatlar qabul qilish haqidagi qarorlarni ilgari surish;

ayrim nomzodlarning saylov fondlariga davlat moliyaviy va moddiy resurslarini taqdim etish.

O‘zbekiston tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilgan ishlar dunyoning barcha davlatlarida qiziqish o‘yg‘atmoqda. O‘zbekiston 2008-yilda BMTning Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi konvensiyaga, 2010-yilda Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti Korrupsiyaga qarshi kurashish tarmog‘ining Istanbul harakatlar rejasiga qo‘sildi.

Monitoring natijalari bo‘yicha O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi olib borilayotgan islohotlarga ijobiy baho berilmoqda, 2019-yilgacha O‘zbekistonda amalga oshirilgan ishlar monitoring guruhlari tomonidan 4 marta o‘rganilgan. Xar bosqichning yakunlari bo‘yicha IHRT hisobotlari taqdimotlari o‘tkaziladi.

### **Nazorat savollari:**

1. Korrupsiyaning miqyosi va qamrovini belgilovchi omillari nimalarda namoyon bo‘ladi?
2. Korrupsiya yuzaga kelish asosiga ko‘ra necha turga bo‘linadi?
3. Korrupsiya tushunchasini yoritib berishda qanday zaruriy elementlarga urg‘u berish lozim bo‘ladi?
4. Korrupsiyani yuzaga keltiruvchi korruputsiyaviy omillarning iqtisodiy va iqtisodiy asoslari deganda nimalar tushuniladi?
5. Korrupsiyaviy holatlarni yuzaga keltiruvchi manfaatlar to‘qnashuvi deganda nima tushuniladi?
6. Qaysi davrga kelib korrupsiya dunyo miqyosida yanada globallashuv bosqichiga o‘tdi?
7. Korrupsiyaga oid huquqbazarliklar deganda nima tushuniladi?
8. Korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni yuzaga keltiruvchi sabablarni umumiy ma’noda qanday guruhlarga ajratish mumkindir?

## **IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI**

### **1-amaliy mashg‘ulot. Zamonaviy jinoyat huquqi rivojlanishining umumiy qoidalari. Jinoyat qonunchiligining asoslari**

#### **1-topshiriq**

Toshkent shahar jinoyat ishlari bo‘yicha sudi tomonidan fuqaro A. turmush o‘rtog‘i B.ni qasddan o‘ldirganlikda aybdor deb topilib, Jinoyat kodeksining 97-moddasi 1-qismi bilan 10 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlandi. Fuqaro A. jazoni ijro etib chiqqanidan so‘ng, kunlarning birida ishdan qaytayotib sobiq turmush o‘rtog‘i B.ni tirik ekanligiga ishonmadi va uni kuzata boshladи. A.ning kuzatuvlari natijasida turmush o‘rtog‘i B. tirik ekanligiga ishonch hosil qildi va uning uchun 10 yil ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etib uchun uni uldirdi. Mazkur holat yuzasidan jinoyat ishi qo‘zg‘atilib, dastlabki tergov olib borildi va sud jarayonida A.ning himoyachisi sudyaga himoyasi ostidagi fuqaro A. muqaddam turmush o‘rtog‘i B.ni o‘ldirganlikda ayblanib, javobgarlikka tortilganligi Jinoyat kodeksining 8-moddasida (Odillik prinsipi) hech kim aynan bitta jinoyat uchun ikki marotaba javobgarlikka tortilishi mumkin emasligi belgilab qo‘yilganligini aytib, suddan A.ga nisbatan qo‘zg‘atilgan jinoyat ishini tugatishni so‘radi.

1. A. ning qilmishini JK ning 8-moddasi (Odillik prinsipi) da belgilangan qoidalari asosida tahlil qiling?
2. Ushbu holatda himoyachining talablari to‘g‘rimi?

#### **2-topshiriq**

Fuqaro K. 2019-yil 22-noyabr kuni fuqaro S.ga nisbatan JK 109-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgan. K.ga nisbatan qo‘zg‘atilgan jinoyat ishi yuzasidan dastlabki tergov harakatlari olib borilishi davomida S. bilan yarashib, aybini bo‘yniga olish to‘g‘risida arz qilib, amalda pushaymon bo‘lib, yetkazilgan zararni to‘liq qoplaganligi sababli tergovchi A. fuqaro K.ga nisbatan

qo‘zg‘atilgan jinoyat ishini yarashganligi munosabati bilan tugatish to‘g‘risida qaror chiqaradi.

1. K.ning qilmishini JK ning 10-moddasi (Javobgarlikning muqarrarligi prinsipi)da belgilangan qoidalar asosida tahlil qiling?
2. Mazkur holatda tergovchi A. Jinoyat kodeksining 10-moddasida nazarda tutilgan javobgarlikning muqarrarligi prinsipiga rioya qilganmi?

## **2-amaliy mashg‘ulot. Sudga qadar bosqichida sud nazoratini amalga oshirish**

### **1-topshiriq**

1. Pasportning (harakatlanish hujjatining) amal qilishini to‘xtatib turish uchun shaxs ...
2. Sudyaning passportning (harakatlanish hujjatining) amal qilishini to‘xtatib turish to‘g‘risidagi ajrimi ustidan qancha vaqt ichida shikoyat qilish mumkin?

### **2-topshiriq**

1. Qamoqqa olinganlar vaqtincha saqlash hibxonalarida saqlanishi mumkinmi?
2. Uy qamog‘ida bo‘lgan shaxsning uy-joyidan chiqishi bo‘yicha o‘rnatilgan taqiqlarga (cheklovlarga) rioya etishi ustidan tekshiruv tartibi?

### **3-amaliy mashg‘ulot. Jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquq va manfaatlarini himoya qilish**

#### **1-topshiriq**

1. Jinoyat protsessida shaxs huquqlari qaysi normativ-huquqiy hujjat bilan ta'minlanadi yoki kafolatlanadi?
2. Jinoyat protsessida shaxsning huquq va manfaatlarini ta'minlashga yo'naltirilgan normalar qanday ko'rinishda Jinoyat-protsessual kodeksida aks ettirilgan?
3. Jinoyat protsessida "Xabeas korpus" instituti qanday kafolatlardi ta'minlaydi?

#### **2-topshiriq**

1. Jinoyat ishlari yurituvining qaysi bosqichda himoyachi ishtirok etishi mumkin?
2. Jinoyat ishlari yurituvida himoyachining ishtirok etishi shart bo'lgan holatlarni ko'rsating.
3. Jinoyat ishida shaxsni jabrlanuvchi sifatida jalb etish asoslari qanday?

## **4-amaliy mashg‘ulot. Sud qarorlarining qonuniyligi, asosligi va adolatliligin tekshirish masalalari**

### **1-topshiriq**

1. Sud hukmi, ajrimi va qarorlarining qonuniyligi, asosliliği va adolatliligi apellyatsiya, kassatsiya va nazorat tartibida tekshirilishi mumkin.

Yuqori sudda jinoyat ishini ko‘rish chegarasi, muddatlarini va uni uzaytirish tartibini bayon qiling.

2. Apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida ko‘rib chiqilgan ishlar bo‘yicha chiqarilgan hukm va ajrim (qaror) ustidan nazorat tartibida shikoyat berilishi mumkin.

Nazorat tartibida berilgan shikoyatlarni ko‘rib chiqmasdan qaytarish asoslari bayon qiling.

3. Jinoyat-protsessual qonunchiligiga ko‘ra sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi ustidan kassatsiya tartibida shikoyat berish yoki protest bildirish mumkin.

Hukm ustidan kassatsiya tartibida shikoyat berish va protest bildirish tartibi va muddatini tahlil qilgan holda bayon qiling.

### **2-topshiriq**

1. Jinoyat-protsessual qonunchiligiga ko‘ra hukm, ajrim va qarolarning qonuniyligi, asosliliği va adolatliligin tekshirish turi sifatida kassatsiya instansiyasida ish yuritish ham belgilangan.

Kassatsiya instansiyasi sudida jinoyat ishini ko‘rish tartibini bayon qiling.

2. O‘zbekiston Respublikasi JPKning 511-moddasida ko‘rsatilgan shaxslar o‘z vakolatlari doirasida tekshirish va nazorat tartibida protest bildirish haqidagi masalani hal etish uchun har qanday jinoyat ishini suddan talab qilib olishga haqli ekanligi belgilangan.

Jinoyat ishini nazorat tartibida tekshirish uchun talab qilib olish tartibini bayon qiling.

**5-amaliy mashg‘ulot. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha  
zamonaviy talab va standartlar**

**1-topshiriq**

1. “Ommaviy mansabdor shaxs”lar turini sanang.

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

2. “Xorijiy ommaviy mansabdor shaxs” deb nimaga aytiladi?

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

## **2-topshiriq**

1. Korrupsiyani nechta asosiy turlarga ajratish mumkin?

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

2. BMTning korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga muvofiq korrupsiyani nechta asosiy shaklga ajratish mumkin?

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

## V. KEYSLAR BANKI

Amaliy yo‘naltirilgan, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlovchi uslublar o‘z xususiyatlariga ko‘ra innovatsion hisoblanadi. Ularga: tashkiliy-faoliyatli o‘yinlar (TFO‘), ishchan va rolli o‘yinlar, personallarning muloqoti, ijodiy ishlar, psixotexnika, rolli trening, “Case-study” va boshqalar kiradi. “Case-study” – turli vaziyatlarning tavsifidan, ya’ni keyslardan foydalangan holda o‘quvchilarda aniq ko‘nikmalarini shakllantirish texnikasidir

*Keys* — biror tashkilotdagi qandaydir aniq real vaziyatning yozma tavsifidir. Undan foydalanish mobaynida o‘quvchilardan vaziyatni tahlil qilish, muammoning mohiyatini ko‘rib chiqish, mumkin bo‘lgan variantlarni taklif etish va ulardan eng maqbulini tanlash so‘raladi.

Ixtiyoriy *keys* o‘qituvchiga, uni ta’lim jarayonining ixtiyoriy bosqichlarida, jumladan, o‘qitish va uning natijalarini nazorat qilish mobaynida foydalanish *imkoniyatini* beradi.

### 1-masala

Fuqaro L. 2020-yil 10-mart kuni Toshkent shahar Mirzo Ulug‘bek tumani Qorasu-1 dahasida yolg‘il ketayotgan 20 yoshli N.ni orqa tomonidan majburlab kiyimlarini yechadi va unga pichoq tirab o‘ldirish bilan qo‘rqitib u bilan jinsiy aloqa qiladi. M.Ulug‘bek tuman tergovchisi K. tomonidan L.ga nisbatan 118-modda 2-qism “g” bandi bilan jinoyat ishi qo‘zg‘atiladi va dastlabki tergov harakatlari olib borilib, ish sudga chiqariladi. Sudda yoshlar ittifoqi ishtirok etadi va L.ga kafolat xati bergen holda suddan ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazo berishini so‘radi.

1. L.ning qilmishini suddda ko‘rish bosqisida yoshlar ittifoqining ishtirokini JK ning 6-moddasi (Demokratizm prinsipi)da belgilangan qoidalar asosida tahlil qiling?

2. Mazkur holatda Jinoyat kodeksining 6-moddasida nazarda tutilgan demokratizm prinsipiga rioya qilganmi?

## **2-masala**

Fuqaro N. 2007-yil 25-mart kuni o‘zining turmush o‘rtog‘i L.ni rashk tufayli qasddan o‘ldiradi. Sud uni 12 yil ozodlikdan mahrum qiladi. N. jazoni o‘tab chiqqach, 2019-yil 30-avgustda marhum L.ning akasi bilan janjallahib qoladi va uni oshxona pichog‘i bilan qasddan o‘ldiradi. U O‘z.R JKning 97-moddasi 2-qism “r” bandi bilan aybli deb topadi va 17 yil muddatga ozodlikdan mahrum qiladi.

1. N.ga nisbatan 17 yil muddatga sud tomonidan ozodlikdan mahrum qilinishini JK ning 7 moddasi (Insonparvarlik prinsipi)da belgilangan qoidalar asosida tahlil qiling?
2. Mazkur holatda Jinoyat kodeksining 7-moddasida nazarda tutilgan insonparvarlik prinsipiga rioya qilganmi?

## **3-masala**

2020-yil 12-aprelda fuqaro R. birga maktabda o‘qigan sinfdoshi K. bilan o‘tirib spirtli ichimliklar ichadi. Spirtli ichimliklar ichishi natijasida R.ning sinfdoshi K. uni haqorat qiladi va bir musht uradi. Bundayn g‘azablangan R. uyidan oshxona pichog‘ini olib chiqib K.ning bo‘yin qismi va qorin bo‘shlig‘iga bir necha marta oshxona pichog‘i bilan zarbalar beradi. Natijada K. ko‘p qon yo‘qotadi va voqeа joyini o‘zida vafot etadi. Tergovchi L. tomonidan olib borilgan tergov harakatlari natijalari va dalillar asosida K.ning qilmishida qasddan odam o‘ldirish jinoyat tarkibining barcha belgilari aniqlanadi.

1. R.ning qilmishini JK ning 10 moddasi (Javobgarlikning muqarrarligi prinsipi)da belgilangan qoidalar asosida tahlil qiling?

2. Mazkur holatda Jinoyat kodeksining 10-moddasida nazarda tutilgan javobgarlikning muqarrarligi prinsipiga rioya qilganmi?

#### **4-masala**

2019-yilning 16-avgustida Toshkent shahri aeroportida T. to‘qqiz yuz sakson gr. opium bilan ushlandi. Tergov vaqtida ma’lum bo‘lishicha, T. bu giyohvand moddani Bishkek shahrida yashovchi akasi Ch.ning topshirig‘i bilan Qirg‘zistonidan Ozarbayjonga olib ketayotgan ekan. Tergovchi T.ning harakatini JKning 273-moddasi 1-qismi bilan, Ch.ning harakatini JKning 28 va 273-moddalari bilan kvalifikasiya qildi. T. va Ch.ni O‘zbekiston Respublikasi JK bilan jinoiy javobgarlikka tortilishi qonunga asoslanganmi? Bu masala jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishning qaysi turiga kiradi?

#### **5-masala**

Qirg‘ziston fuqarolari U. mashinalarni o‘g‘irlashda, D. esa bu o‘g‘irlangan avtomashinalarni qismlarga ajratib, sotishga kelishib oldilar. U. O‘zbekiston hududida to‘rtta yengil avtomashina o‘g‘irladi, D. ularni qismlarga ajratib, Qirg‘ziston va Qozog‘iston hududida sotdi. Tergovchi U.ning harakatini O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining

169-moddasi “a” bandi bilan, D.ning harakatini O‘zbekiston Respublikasi JKning 28-moddasi va 169-moddaning “a” bandi bilan kvalifikasiya qildi.

D.ning O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi bilan jinoiy javobgarlikka tortilishi qonunga asoslanganmi? Bu masala jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishning qaysi bosqichiga mos keladi?

## **6-masala**

2007-yilning 15-mart kuni fuqaro S.rashk oqibatida homilador bo‘lgan turmush o‘rtog‘i G.ni bolta bilan tanasining turl joylariga zarar yetkazib, hayotdan mahrum qilgan. Jinoyatni sodir etish vaqtida qo‘slnisi P. Ko‘rib qolganligini anglab, jinoyatni yashirish maqsadida uni hayotdan mahrum qilgan. Sodir etilgan qilmish yuzasidan S.ga nisbatan JKning 97-moddasi 2-qismi “a” va “o” bandlari bilan jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan edi. 2007-yilning 15-dekabr kuni qabul qilingan va 2015-yilning 1-yanvaridan kuchga kirgan qonun asosida “o‘lim” jazosi bekor qilinib, “umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi tizimiga kiritilgna edi. Sud jazo tayinlash vaqtida fuqaro S.ning sodir etgan qilmishining ijtimoiy xavflilik darajasiga ko‘ra o‘ta shafqatsizlik sodir etilganligini e’tiborga olinib, 2008-yilning 10-yanvar kuniga o‘lim jazosini tayinlanadi.

Ushbu holatda sudning hukmi to‘g‘rimi? Sud ushbu holatni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilganmi?

## **7-masala**

O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi A. turmush o‘rtog‘i M. bilan Pokiston Respublikasiga vaqtincha ishlash uchun borgan edi. Pokiston Respublikasi da muqim 3 yil yashab, Pokiston Respublikasida 2 yoki undan ortiq ayol bilan umumiyl ro‘zg‘or asosida yashashga ruxsat berilganligi sababli, turmush o‘rtog‘idan yashirinchcha ikkita ayol bilan nikohdan o‘tib, umumiyl ro‘zg‘or asosida nikohdan o‘tib yashab kelgan. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari A. va M.lar O‘zbekiston Respublikasiga qaytgach, turmush o‘rtog‘i M. Bu holat bo‘yicha hududuiy IIBga ariza bilan shikoyat qildi.

Ushbu holat bo‘yicha fuqaro A. O‘zbekiston qonunchiligi bo‘yicha javobgarlikka tortiladimi? Ushbu masalani kvalifikatsiya qiling.

## **8-masala**

Tungi paytda I. temir yo‘l qismining moddiy boyliklar saqlanadigan bekti oldidan o‘tib ketayotganda, u yerda unga notanish bo‘lgan shaxsning temir yo‘l konteynerlaridan moddiy qimmatlikka ega bo‘lgan mulklarni olayotganligi ko‘radi va I. konteyner oldiga kelib notanish kishidan ruxsat olib, xrustalli idish-tovoqlar solingan qutini olib u yerdan ketadi.

Mazkur holatda ishtirokchilik mavjudmi? Kvalifikatsiya masalasini hal eting.

## **9-masala**

2020-yil 27-iyun kuni Toshkent shahrining Chilonzor tuman IIO FMBga tushgan murojaatga ko‘ra, fuqaro Dilshodov fuqaro Pardaevaga Turkmaniston davlatidan 50 tonnalik “Tanado” rusumli kran maxsus texnika vositasini olib kelib berishga kelishib, 90 000 AQSh dollarini olib bergen va’dalarini bajarmasdan pullarni o‘z ehtiyojlari yo‘lida ishlatib yuborganliklari aks etgan.

Tergovga qadar tekshiruv davomida tergovchi tomonidan fuqaro Dilshodovga nisbatan majburiy keltirish chorasi qo‘llanilgan va u o‘z tushuntirish xatida pullarni qaytarmasligini ochiq-oydin bildirgan. Tergovchi Dilshodovni ushlab turish davomida zararni undirish maqsadida sudga prokuror orqali qamoqqa olish ehtiyyot chorasini qo‘llash to‘g‘risida iltimosnama kiritadi.

Tergov jarayonida ashyoviy dalillarni saqlash bilan bog‘liq xarajatlarni undirishni sud mahkum zimmasiga yukladi. Shuningdek, sud zarar qiymatini jinoyat sodir bo‘lgan vaqtdagi kurs bo‘yicha hisobladi. Dilshodov sud tomonidan 5 yilga ozodlikdan maxrum etilgan bo‘lib, jazoni o‘tash davrining ikkinchi yilida unda og‘ir kasallik aniqlandi va kasalligi tufayli jazoning o‘tilmagan qismini o‘tashdan ozod etildi. Oradan 2 yil o‘tib Dilshodov sog‘aydi.

Mazkur holatni O‘zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual qonunchiligi asosida tahlil qilgan holda huquqiy baho bering.

## **10-masala**

Fuqaro Shokirov tomonidan qo'shnisi Valievning 12 yoshli yog'li Yunusovni urib unga og'ir tan jarohati yetkazish bilan bog'liq tergovga qadar tekshiruv davrida Shokirovning turmush o'rtog'i Shokirova erining bahor oylarida ruhiy holati buzilishini, shu davrda u o'z harakatlarining ahamiyatini anglay va boshqara olmasligini bayon qilgan. Tergovchi tomonidan Shokirovning Yunusovni urgan vaqtdagi ruhiy holatini aniqlash maqsadida tergovga qadar tekshiruv vaqtida sud psixiatriya ekspertizasi tayinlash to'g'risida qaror, shu bilan birga Shokirovni tibbiy muassasaga joylashtirish to'g'risida iltimosnama qo'zg'atish haqida qaror qabul qildi.

Shokirovaning eriga himoyachi xizmati ta'minlab berilmaganligi to'g'risidagi e'tiroziga nisbatan tergovchi hali jinoyat ishi qo'zg'atilmaganligini, bundan tashqari ekspertiza xulosasi hali taqdim qilinmaganligini, ekspertiza xulosasi taqdim qilinganidan so'ng tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash to'g'risidagi ish yuritiladigan bo'lsa himoyachi ishtiroki majburiy ta'minlab berilishi lozimligini bildirdi.

Masalani jinoyat-protsessual qonunchilik, shu jumladan Oliy sudi Plenumining tegishli qarorlari asosida tahlil qiling.

## **11-masala**

2019-yilning 17-yanvar kuni Toshkent moliya institutida ma'ruza mashg'uloti davomida talabalar A.Aripov va B.Elchievlar o'rtasida olishuvga sabab bo'lgan janjal kelib chiqdi. Natijada A.Aripov B.Elchievga tan jarohati yetkazilib, sud-tibbiy ekspertizasining 2019-yil 18-yanvardagi 23-sonli xulosasiga asosan tan jarohati o'rtacha og'irlikda deb baholangan.

Mazkur holat bo'yicha jinoyat ishi qo'zg'atilib, uning tergovi davomida tergovchi K.Tadjiev A.Aripovning janjalni B.Elchiev boshlaganligini tasdiqlovchi ikki nafar guvohni so'roq qilish to'g'risidagi iltimosnomasini rad

qildi hamda ayblanuvchi A.Aripov janjalni boshlaganligini tasdiqllovchi 4 nafar guvohning ko‘rsatuvlari jinoyat ishi bo‘yicha yetarli ekanligini bildirdi.

Jinoyat ishining sudda ko‘rilishi davomida mazkur 4 nafar guvohning aslida jabrlanuvchi B.Elchievning yaqin do‘satlari va o‘rtoqlari ekanliklari aniqlandi.

Masalaga jinoyat-protsessual qonunchiligi asosida huquqiy baho bering.

## **12-masala**

Toshkent shahar jinoyat ishlari bo‘yicha Yakkasaroy tuman sudida A.Pulatovga nisbatan O‘z.R JK 166-moddasi 2-qismi “a” bandida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etishda ayplash yuzasidan 2577-sonli jinoyat ishini ko‘rib chiqdi. Ishni ko‘rib chiqish jarayonida A.Pulatov sudda tergov jarayonida jalb qilingan advokat uning manfaatlariga qarshi ishlaganligini, aslida tergovchidan boshqa advokat jalb qilishni so‘raganini, lekin tergovchi agar boshqa advokat jalb qilinsa unga xarajatlarni A.Pulatovning o‘zi to‘lashiga to‘g‘ri kelishini aytganligi uchun boshqa advokat ola olmaganligini bayon qildi. Sud ishni ko‘rib chiqishda bu holatga e’tibor qaramasdan jinoyat ishi yuzasidan 2019-yil 7-yanvarda sudya X.Yuldasheva tomonidan ayblov hukmi chiqarildi.

2019-yil 10-yanvarda sudlanuvchi A.Pulatov o‘ziga boshqa himoyachi jalb qildi. Uning himoyachisi jinoyat ishlari bo‘yicha Toshkent shahar sudiga apellyatsiya shikoyati bilan murojaat qilib, o‘z himoyasi ostidagi shaxs ustida o‘tkazilgan sud muhokamasi xalq maslahatchilari ishtirokisiz o‘tkazilganligi sababli birinchi instansiya sudi hukmini bekor qilishni so‘radi.

Holatni jinoyat-protsessual qonunchiligi asosida tahlil qiling.

## **13-masala**

Surishtiruv davomida O‘zbekiston Respublikasi JKning 266-moddasida nazarda tutilgan jinoyatni sodir qilganlikda ayblanayotgan Allaev jabrlanuvchi Sottievga yetkazgan zararini bartaraf etganini, aybiga ixtiyoriy iqror

bo‘lganliklarini aytib surishtiruvchi Fayzievga jinoyat ishini yarashuv bo‘yicha tugatishni so‘rab murojaat qildi. Surishtiruvchi ayblanuvchining murojaatini qanoatlantirib jinoyat ishini taraflarning yarashuvi munosabati bilan sudga yuborish to‘g‘risida qaror chiqardi.

Jinoyat ishi sudda ko‘rib chiqilib, sud tomonidan yarashuvni tasdiqlash to‘g‘risida ajrim chiqarildi. Sud tomonidan ish ko‘rib chiqilganidan 11 kun o‘tgach fuqaro Umarov sudga shikoyat bilan murojaat qilib, yo‘l transport hodisasi sodir qilingan avtomashina aslida unga tegishli ekanligini, ayblangan Allaev unga yetkazilgan zararni bartaraf qilmaganligini, surishtiruvchi tomonidan ishga jalb qilinmaganligini, ish yuritishni qaytadan boshlab, unga yetkazilgan zararni undirib berishda amaliy yordam so‘ragan.

Sud tomonidan mazkur shikoyatga javoban bu masala fuqarolik tartibida hal qilinishi va fuqarolik sudiga murojaat qilishi tushuntirildi.

Mazkur holatni O‘zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual qonunchiligi asosida tahlil qilgan holda huquqiy baho bering.

## **14-masala**

Ishtihon tumani IIB tomonidan O‘zbekiston Respublikasi JKning 277-moddasida nazarda tutilgan jinoyatni sodir qilganlikda ayblanayotgan Rashidov va Timurovlarning ishi bo‘yicha tergov davomida Smirnov, Kattaevlar jabrlanuvchilar sifatida, Bo‘riev esa, fuqaroviylar da‘vogar sifatida e’tirof etilib, ish ayblov xulosasi tuzilib, prokuror orqali Jinoyat ishlari bo‘yicha Ishtihon tuman sudiga yuboriladi. Ish sud tomonidan ko‘rib chiqilib, sudning 2018-yi 4-fevraldagagi hukmiga ko‘ra, Rashidov va Timurovlar aybdor deb topiladi hamda ularga tegishli jazo tayinlash bilan birga jabrlanuvchilar va fuqaroviylar da‘vogarga yetkazilgan zararni to‘liq qoplash majburiyati ham yuklatildi.

15.02.2018-yilda fuqaro Diyorov tomonidan sudga apellyatsiya shikoyati kiritilib, unda Rashidov va Timurovlar o‘z bezoriliklari bilan unga tegishli bo‘lgan Jiguli avtomashinasiga ham zarar yetkazganliklarini, lekin u kasal bo‘lib Toshkent shahrida davolanishga majbur bo‘lganligi sababli tergov va sudda

qatnasha olmaganligini, tergovchi unga yetkazilgan zararni e'tiborga olmaganligini va sud tomonidan ham bu holatga e'tibor qaratilmaganligini bayon qilib, ishni qayta ko'rib chiqishni va Rashidov hamda Timurovdan avtomashinasiga yetkazilgan moddiy zararni hamda ma'vaniy zararni undirib berishini talab qilgan.

Sud tomonidan Diyorovning murojaati birinchidan, u ishda taraf bo'limganligi, fuqaroviylar da'vogar sifatida e'tirof etilmaganligi, ikkinchidan esa, apellyatsiya shikoyati berish muddati o'tib ketganligi asos qilinib, murojaatni qabul qilish rad etildi.

Mazkur masalani jinoyat-protsessual qonunchiligi, shu jumladan Oliy sud Plenumining tegishli qarorlariga asoslanib tahlil qiling.

## **15-masala**

Tergov guruhi rahbari Andijon shahar prokuraturasi tergovchisi Ochilov va guruh a'zolari Andijon shahar IIB tergovchilar Donaev va Mamatovlar tomonidan tergov qilinayotgan JKning 167, 184, 189 va 228-moddalari bo'yicha qo'zg'atilgan jinoyat ishi bo'yicha ayblanuvchi Safoevning tergovchilar undan pora talab qilayotganligi bo'yicha arizasi asosida o'tkazilgan tadbir davomida IIB tergovchisi Mamatov pora olayotgan vaqtida qo'lga olinadi. IIB tergovchisi Mamatovga nisbatan Andijon shahar prokurori tomonidan jinoyat ishi qo'zg'atiladi va ishga ayblanuvchi tariqasida jalb qilinib so'roq qilinadi. So'roq davomida u IIBning boshqa tergovchisi Donaev hamda shahar prokuraturasi tergovchisi Ochilov ham sherik ekanligi to'g'risida ko'rsatuv beradi va shu asosda Donaev ham ishga ayblanuvchi tariqasida jalb qilinadi. Himoyachining Ochilovni ham ayblanuvchi tariqasida ishga jalb qilish haqidagi talabiga nisbatan shahar prokurori prokuratura tergovchisiga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atish prokuratura organlarining mutlaq vakolati hisoblanishi va unga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atish masalasini viloyat prokurori hal qilishini ma'lum qildi.

Masalani jinoyat-protsessual qonunchilik va tegishli qonun hamda qonunosti hujjatlari asosida tahlil qiling.

## **16-masala**

Chilonzor tumani 17-mavzeda yashovchi fuqaro Muslimov 2019-yilning 5-iyul kuni Chilonzor tuman prokuraturasiga ariza bilan murojaat qilib, uyini qulflashni unutganligini, natijada bundan habardor bo‘lgan qo‘shnisi Kenjaev uyiga o‘g‘rincha kirib umumiy bahosi 45 000 000 (qirq besh million) so‘m bo‘lgan qimmat baho buyumlarni olib chiqib ketganligi bayon etilgan.

Chilonzor tuman prokurori mazkur ish bo‘yicha jinoyat ishi qo‘zg‘atish sabablari qonuniyligi va asoslar yetarli ekanligini tekshirib chiqish uchun Chilonzor tuman IIBga taqdim etdi.

Tuman IIB TB boshlig‘i o‘n sutka davomida tergovga qadar tekshiruv o‘tkazib fuqaro Muslimovning arizasiga binoan jinoyat ishini qo‘zg‘atdi. Jinoyat ishini qo‘zg‘atish to‘g‘risidagi qaror bilan bir vaqtda fuqaro Kenjaevni ishda ayblanuvchi tariqasida jalb etish to‘g‘risida qaror qabul qildi hamda jinoyat ishi materiallarini surishtiruv o‘tkazish uchun IIB surishtiruvchisi Tilavovga taqdim etdi.

Surishtiruvchi ayblanuvchi Kenjaevning uyida tintuv tergov harakatini o‘tkazib, unda xolis sifatida IIBga amaliyot o‘tash uchun kelgan Toshkent davlat yuridik universitetining 3-kurs talabalarini jalb etdi. Surishtiruv yakuniga ko‘ra, surishtiruvchi tomonidan ayblov dalolatnomasi tuzilib, tuman prokuroriga taqdim etdi. Tuman prokurori esa mazkur ish bo‘yicha Jinoyat protsessual kodeksi normalari noto‘g‘ri qo‘llanganini vaj qilib jinoyat ishini qaytardi.

Mazkur holatni O‘zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual qonunchiligi asosida tahlil qilgan holda huquqiy baho bering.

## **17-masala**

Jinoyat ishlari bo‘yicha tuman sudi tomonidan sudlanuvchi Umarovni JKning 180-moddasi bilan ayblastirish haqidagi jinoyat ishi ko‘rib chiqilayotganda uning yana bir qator jumladan, bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tov lash kabi jinoyatlarni sodir etish holatlari aniqlandi. Shundan so‘ng sud yangi ayblov bo‘yicha jinoyat ishini qo‘zg‘atish to‘g‘risidagi masalani hal qilish uchun tegishli materiallarni ilova qilgan holda bu haqda prokurorga xabar qildi. Prokuror tomonidan tegishli materiallar tergov harakatlarini tashkillashtirish uchun tergovchiga topshirildi. Tekshirish harakatlari davomida tergovchi mazkur holatlar dastlabki ayblov bilan bog‘liqligini va uni alohida ko‘rish imkoniyati yo‘qligini bayon qilib, prokurorga ayblovni to‘ldirish to‘g‘risida sudga iltimosnama kiritish to‘g‘risida fikr bildirdi. Sud tomonidan davlat ayblovini qo‘llab-quvvatlovchi prokuorning iltimosnomasi rad qilindi va ish ko‘rish umumiy tartibda davom ettirilib, hukm chiqarildi. Sud hukmiga va iltimosnomani rad qilish to‘g‘risidagi ajrimiga nisbatan tuman prokurori tomonidan apellyatsiya protesti keltirildi.

Masalani jinoyat-protsessual qonunchilik asosida tahlil qiling.

## **18-masala**

Samarqand viloyati Jomboy tumanida yashovchi fuqaro D.Temirov Jinoyat ishlari bo‘yicha Oqdaryo tumani sudi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 235-moddasi bilan 4 yil ozodlikdan maxrum qilish jazoga hukm qilindi. Boshqa shaxs sodir etgan jinoyat haqidagi ish yuzasidan tergov harakatlari olib borish zarur bo‘lganligi sabab D.Temirov tergov hibxonasi salkam ikki oy ushlab turildi.

Apellyatsiya instansiyasining ajrimidan norozi bo‘lgan mahkum O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining Rayosatiga shikoyat bilan murojaat qildi. Mazkur shikoyat ajrim ustidan nazorat tartibida protest bildirish huquqiga ega

bo‘lмаган шахс томонидан берилганлиги сабабли JPK 5102-модда тартибда ко‘риб чиқилмасдан qaytarildi.

Jazoni o‘tab чиққан D.Temirov keyinchalik судланганликни оlib tashlash haqidagi masala bilan JIB Oqdaryo tumani sudiga iltimosнома bilan murojaat qildi va undan судланганик tegishli tartibda оlib tashlandi.

Mazkur vaziyatni jinoyat-protsessual qonunchiligi hamda tegishli qonun va qonunosti hujjatlari asosida tahlil qiling.

### **19-masala**

Jinoyat ishlari bo‘yicha tuman sudining 2019-yil 3-noyabrdagi hukmi bilan Nekrasov JKning 168-моддаси bilan aybdor deb topiladi. Ammo Nekrasov bunga e’tiroz bildirib, 2019-yilning 18-noyabr kuni apellyatsiya shikoyati bilan murojaat qilganda, tuman sudi apellyatsiya shikoyati berish muddati o‘tib ketganligini, bundan tashqari Nekrasovning shikoyati JPK talablariga mos kelmasligini, shuningdek bu ish bo‘yicha jabrlanuvchi Cherkasov томонидан apellyatsiya shikoyati berilganligini bayon qilib uni qabul qilishni rad etadi.

Yuqori turuvchi sud томонидан jabrlanuvchining shikoyati asosida ish ko‘rish jarayonida mahkum Nekrasov muddat o‘tgan bo‘lsada uning shikoyatini ham qabul qilishlarini, aks holda sudda qatnashmasligini va ko‘rsatma bermasligini bayon qildi.

Masalani jinoyat-protsessual qonunchilik asosida tahlil qiling.

### **20-masala**

Sud hukmi bilan Turg‘unov, Faridov, Askarov va Sanaevlar JKning 167-моддаси, 209-моддаси va boshqa moddalari bilan aybdor deb topilib, ulardan Turg‘unov, Askarov va Sanaevlar томонидан sud hukmiga nisbatan u kuchga kirmasdan apellyatsiya shikoyati berildi. Yuqori sud томонидан hukmnинг уларга oid bo‘lgan qismini ko‘rib chiqib, hukmni o‘zgarishsiz qoldirish to‘g‘risida ajrim qabul qilindi. Hukm kuchga kirgach Faridov va Sanaevlar томонидан hukmga nisbatan kassatsiya shikoyati berishga qaror qildilar. Lekin yuqori sud

appelyatsiyada ko‘rib chiqilgan ish qayta kassatsiyada ko‘rilmasligini bayon qilib, shikoyatni qabul qilishni rad qildi.

Masalani jinoyat-protsessual qonunchilik asosida tahlil qiling.

## VI. GLOSSARIY

<b>Termin</b>	<b>O‘zbek tilidagi sharhi</b>	<b>Ingliz tilidagi sharhi</b>
<b>Jinoyat huquqi</b>	<p>O‘zbekiston Respublikasi Oliy Davlat hokimiyat organi tomonidan o‘rnatilgan, qilmishning jinoiyligini va jazoga sazovorligini belgilovchi jinoiy javobgarlik va uning asoslarini, jazoning maqsad va vazifalarini, jazo tizimini, jazo tayinlashning umumiylashtirishini, javobgarlikdan va jazodan ozod qilishni, shuningdek, ijtimoiy xavfli qilmish sodir qilgan shaxslarga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralar qo’llashni, tartibga soluvchi yuridik normalar majmuidan iborat bo‘lgan huquq tarmog‘idir</p>	<p>Criminal liability and its bases, goals and objectives of punishment, system of punishment, general principles of sentencing, exemption from responsibility and punishment, as well as socially dangerous is a branch of law consisting of a set of legal norms regulating the application of compulsory medical measures against persons who have committed an act</p>
<b>Jinoyat huquqi metodlari</b>	<p>jinoyat-huquqiy tushuncha va hodisalarni o‘rganishda qo’llaniladigan usul va vositalar yig‘indisini, tizimini ifodalaydi</p>	<p>represents a set of methods and tools used in the study of criminal law concepts and phenomena</p>
<b>Jinoyat huquqi vazifalari</b>	<p>shaxsni, uning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini, mulkni, tabiiy muhitni, tinchlikni, insoniyat xavfsizligini jinoiy tajovuzlardan muhofaza qilish, jinoyatlarning oldini olish, va fuqarolarni O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya qilish ruhida tarbiyalashdan iborat</p>	<p>protection of the individual, his rights and freedoms, interests of society and the state, property, natural environment, peace, human security from criminal encroachment, crime prevention, and education of citizens in the spirit of observance of the Constitution and laws of the Republic of Uzbekistan</p>

<b>Jinoyat huquqining predmeti</b>	davlatning maxsus vakolatli organlari va jinoyat sodir qilgan shaxs o‘rtasida vujudga keladigan muayyan ijtimoiy munosabatlar tashkil etadi	constitute certain social relations that arise between the specially authorized bodies of the state and the person who committed the crime
<b>Termin</b>	O‘zbek tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi
<b>Jinoyat huquqi</b>	huquq tizimining bir tarmog‘idir	is a branch of the legal system
<b>Aybning mavjudligi</b>	shaxsning sodir etgan jinoyatiga qasd yoki ehtiyyotsizlik shaklidagi sub’ektiv munosabati tushuniladi	a subjective attitude of a person to a crime committed in the form of revenge or negligence
<b>Jazoga sazovorligi</b>	jinoyat qonuni u yoki bu qilmishni jinoyat deb tan olar ekan, uni sodir etganlik uchun tegishli jazo chorasini o‘rnatadi	as long as the criminal law recognizes this or that act as a crime, it shall impose an appropriate penalty for its commission
<b>Og‘ir jinoyatlar</b>	qasddan sodir etilib, qonunda og‘ir jazo sifatida besh yildan ortiq, lekin o‘n yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi	intentional offenses, which are punishable by imprisonment for a term exceeding five years, but not more than ten years, as a severe punishment by law
<b>O‘ta og‘ir jinoyatlar</b>	qasddan sodir etilib, qonunda o‘n yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoxud umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi	Intentional offenses include offenses punishable by imprisonment for a term of more than ten years or life imprisonment
<b>Habeas corpus</b>	(ma’nosи “tanani sudga keltirish”) jinoiy ta’qibga uchragan fuqaroning adolatli sud	(meaning "bringing the body to court") The right of a prosecuted citizen to a fair

	muhokamasiga bo‘lgan huquqi	trial
<b>Sudga qadar bosqich</b>	jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma’lumotlar qabul qilingan paytdan boshlanadi hamda tergovga qadar tekshiruvni va jinoyat ishini tergov qilishni o‘z ichiga oladi	criminal statements, notices and other information from the moment of their receipt and include pre-investigation investigation and criminal investigation
<b>Tergovga qadar tekshiruv</b>	jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma’lumotlarni tekshirish davri	a period of verification of criminal applications, messages and other information
<b>Dastlabki tergov</b>	sudgacha bo‘lgan davrda jinoyatlarni tergov qilish shakli	a form of criminal investigation in the pre-trial period
<b>Sud tergovi</b>	yangi protsessual sharoitda dalillarni mustaqil va ijodiy tekshirish bosqichi	a phase of independent and creative examination of the evidence in the new procedural context
<b>Ehtiyot chorasi</b>	gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi surishtiruvdan, dastlabki tergovdan va suddan bo‘yin tovashining oldini olish; uning bundan buyongi jinoiy faoliyatining oldini olish; uning ish bo‘yicha haqiqatni aniqlashga halal beradigan urinishlariga yo‘l qo‘ymaslik; hukmning ijro etilishini ta’minalash maqsadida qo‘llaniladigan chora	prevention of evasion of the suspect, accused, defendant from inquiry, preliminary investigation and court; prevention of his further criminal activity; to prevent his attempts to obstruct the truth of the case; a measure taken to ensure the execution of the sentence
<b>Jinoyat protsessual kafolatlar</b>	bu jinoyat ishlari yuritushi maqsadlariga erishish va protsess ishtirokchilarining huquq va manfaatlari ta’minalishi uchun jinoyat-protsessual qonunchiligi	these are the methods and means established by the criminal procedure legislation to achieve the objectives of criminal

	bilan o‘rnatilgan usul va vositalar	proceedings and to ensure the rights and interests of the participants in the proceedings
<b>Jabrlanuvchi</b>	ijtimoiy xavfli qilmish orqali shaxsga ma’naviy, jismoniy yoki mulkiy zarar yetkazilgan shaxs	a person who has caused moral, physical or property damage to a person through a socially dangerous act
<b>Gumon qilinuvchini ng, ayblanuvchi ning himoya huquqi</b>	yuzaga kelgan gumon,qo‘yilgan aybni rad etish yoki javobgarlik va jazoni yumshatish uchun unga qonun bilan berilgan protsessual imkoniyatlar (vosita va usullar) yig‘indisidir	the suspicion that arises is the sum of the procedural possibilities (means and methods) given to him by law to deny the charge or to mitigate the liability and punishment
<b>Aybsizlik prezumpsiyasi</b>	jinoyat protsessual qonunchiligining asosiy prinsiplaridan biri bo‘lib, shaxsning aybi sudning qonuniy ko‘chga kirgan hukmisiz uni aybdor hisoblanmasligini kafolatlaydi	is one of the basic principles of criminal procedural law, which guarantees that an individual’s guilt will not make him or her guilty without a judgment that has entered into legal force
<b>Apellyatsiya</b>	sud hukmi ustidan shikoyat arizasi berishning bir shakli. Apellyatsiya Fransiya jinoyat-protsessual kodeksiga (1808-y.), jahoning boshqa ko‘pchilik davlatlari jinoyat-protsessual qonunlariga kiritilgan. O‘zRda 1994 y. 22-sentabrda qabul qilingan va 1995-yil 1-apreldan amalga kiritilgan Jinoyat-protsessual kodeksida ushbu tartib ko‘rsatilmagan, ammo Apellyatsiya tartibida ish ko‘rishning ayrim aniq	a form of filing an appeal against a court judgment. The appeal was included in the French Code of Criminal Procedure (1808) and in the criminal procedure laws of many other countries of the world. 1994 in Uzbekistan The Code of Criminal Procedure, adopted on 22 September 1995 and enacted on 1 April 1995, does not specify this

	<p>masalalariga oid qismlari yangi JPKning 490-moddasida nazarda tutilgan qoidaga ko‘ra, Apellyatsiya kassatsiya instansiyasida ish ko‘radigan sudda qo‘llaniladi. Sud hukmi ustidan Apellyatsiya tartibida shikoyat berish yo‘l qo‘yilgan davlatlarning jinoyat-protsessual qonunida Apellyatsiya tushunchasi 2-bosqich sudida jinoyat ishini mazmunan hal qilish uchun yangidan ko‘rish mumkinligini bildiradi.</p> <p>Apellyatsiya sudi (2-bosqich sudi) hukmnинг qonuniyligi va asosligini faqat shikoyat (protest)da ko‘rsatilgan holatlar bo‘yicha tekshiradi. Apellyatsiya sudi ishdagi yozma materiallarga tayanib, o‘z qarorini qabul qiladi.</p> <p>Bu sudda 1-instansiya sudida so‘roq qilingan guvoxlar takroran so‘roq qilinmaydi, dalillarni bevosita va og‘zaki tekshirish, sud ishlarini yuritishdagi tortishuv, mahkumni himoya huquqi bilan ta’minalash va ishni uzoq muddat davomida ko‘rishdek holatlar chegaralanadi</p>	<p>procedure, but parts of certain specific procedural matters in the appellate procedure apply to the appellate court of cassation, as provided in Article 490 of the new CPC. In the criminal procedure law of the States where an appeal against a judgment is permitted, the notion of Appeal means that a criminal case may be reconsidered for a substantive decision in a Level 2 court. The Court of Appeals (Court of Appeals 2) shall review the legality and validity of the judgment only in the circumstances specified in the complaint (protest). The appellate court makes its decision based on the written materials in the case. Witnesses questioned in the court of first instance in this court shall not be re-interrogated, and cases such as direct and oral examination of evidence, disputes in court proceedings, provision of the convict with the right to defense, and long-term proceedings shall be limited</p>
	(lot. cassatio — bekor qilish, buzish) — qonuniy kuchga	(lat. cassatio - annulment, violation) - one of the forms

<b>Kassatsiya</b>	<p>kirmagan sud hukmi (hal qiluv qarori) ustidan shikoyat qilish shakllaridan biri. Apellyatsiya sudadan farqli ravishda, Kassatsiya instansiyasi shikoyat yoki protest doirasi bilan cheklanib qolmaydi, balki bunda ish unda mavjud bo‘lgan va qo‘srimcha taqdim qilingan materiallarning to‘la hajmida tekshirib chiqiladi.</p> <p>Kassatsiya instansiyasi hukm (hal qiluv qarori)ni o‘zgarishsiz qoldirishi, bekor qilishi va ishni yangidan tergov qilishga yoki sud muhokamasiga jo‘natishi yo bo‘lmasa hukmni bekor qilishi va sud ishi olib borishni to‘xtatishi mumkin. O‘zRda Kassatsiya tartibida ish yuritish va Kassatsiya shikoyati berish (K. protesta keltirish) qonunqoidalari JPK 56-bobida va FPK 38-bobida belgilab berilgan</p>	<p>of appealing against a court decision (decision) that has not entered into force. Unlike the Court of Appeals, the Court of Cassation is not limited to the scope of the complaint or protest, but the case is examined in the full amount of materials available to it and additionally submitted. The court of cassation may uphold the judgment (decision), annul it and remand the case for re-investigation or trial, or overturn the judgment and suspend the proceedings. The rules of cassation proceedings and filing a cassation appeal (K. protest) are set out in Chapter 56 of the Criminal Procedure Code and Chapter 38 of the Criminal Procedure Code</p>
<b>Protest</b>	<p>(lat. protestor — oshkora is-botlayman) — prokurorning norozilik xujjati. O‘zbekiston Respublikasida Protest konunga zid bo‘lgan hujyatni qabul qilgan organga yoki mansabdor shaxsga, shuningdek, yuqori organga yoxud yuqori mansabdor shaxsga, sudning hukmi, hal qiluv qarori, ajrimi va qarori ustidan protsessual qonunda belgilangan tartibda beriladi. Protest berilgan vaqtidan boshlab 10 kundan</p>	<p>(Lat. protestor - I openly declare) - a document of protest of the prosecutor. In the Republic of Uzbekistan, the Protest is issued to the body or official who adopted the document contradicting the law, as well as to the higher body or higher official in the manner prescribed by procedural law on the court's verdict, decision,</p>

	<p>kechiktirmay ko‘rib chiqilishi shart. Qo-nunbuzarlikni darhol bartaraf etish talab qilingan alohida hollarda prokuror Protestni ko‘rib chiqishning qisqar-tirilgan muddatini belgilashga hakli. Protestni ko‘rib chiqish natijalari to‘g‘ri-sida 3 kun ichida prokurorga yozma ravishda ma’lum qilinadi. Protest kollegial organ tomonidan ko‘rib chiqiladigan hollarda majlis kuni haqida prokurorga ma’lum qilinadi va u majlisda ishtirok etishga haklidir. Protest shu huj-jatni qabul qilgan yoki yuqrri turuvchi organ (mansabdor shaxs) tomonidan rad etilganda, shuningdek, Protest krnunda belgilangan muddat ichida ko‘rib chi-qilmagan taqsirda, prokuror ana shu hujjatni g‘ayriqonuniy deb e’tirof etish to‘g‘risidagi ariza bilan 1 oy ichida sudga murojaat etishga haqli. Ariza sudda ko‘rib chiqilgunga qadar berilgan hujjatning amal qilishi to‘xta-tib turiladi. Sudning hukmi, hal qiluv qarori, ajrimi va qaroriga nisbatan keltirilgan apellyatsiya, kassatsiya, xususiy va nazorat tartibidagi Protest ishni sudda ko‘rish boshlangunga qadar Protest bergan prokuror tomonidan, shuningdek, yuqori turuvchi prokuror tomonidan o‘zgartirilishi, to‘ldirilishi yoki chaqirib olinishi mumkin</p>	<p>ruling and decision. The protest must be considered no later than 10 days from the date of filing. In exceptional cases where immediate remedial action is required, the prosecutor shall have the right to set a reduced time limit for consideration of the Protest. The results of the protest will be notified to the prosecutor in writing within 3 days. In cases where the protest is considered by a collegial body, the prosecutor shall be notified of the date of the meeting and he shall have the right to attend the meeting. If the protest is accepted by the document or rejected by a higher body (official), as well as if it is not considered within the period specified in the Protest, the prosecutor has the right to apply to the court within 1 month with a petition to declare the document illegal. The validity of the submitted document shall be suspended until the application is considered in court. An appeal, cassation, private or supervisory protest against a judgment, decision, ruling and decision of a court may be</p>
--	---	---

		amended, supplemented or recalled by the prosecutor who filed the protest, as well as by a higher prosecutor, before the trial begins
<b>Sud hay'ati</b>	<p>muayyan ishni ko‘rvuchi sud tarkibi. Jinoyat ishlari 1instansiya sudi tomonidan hay’atda ko‘rilganda sud tarkibiga sudya va 2 nafar xalq maslahatchisi kiradi.</p> <p>O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi ishlarni birinchi boskichda 3 nafar sudyadan iborat tarkibda ko‘rib chikddi. Jinoyat ishlari bo‘yicha Qoraqlapog‘iston Respublikasi Oliy sudi, viloyatlar va Toshkent sh. sudlarida Sud hay’ati larida apellyatsiya, cassatsiya va nazorat tartibida ishlarni ko‘rish 3 nafar sudyadan iborat tarkibda amalga oshiriladi.</p> <p>O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining tegishli sudlov xay’atlarida jinoyat ishlari apellyatsiya va cassatsiya tartibida 5 nafar sudyadan iborat tarkibda ko‘rib chiqiladi. Jinoyat ishini kurihda ushbu sud tarkibiga tayinlangan yoki saylangan sudyalar va xalq maslahatchilar katnashadilar</p>	<p>the composition of the court hearing a particular case. When criminal cases are heard by a court of first instance, the court consists of a judge and two people's advisers. The Supreme Court of the Republic of Uzbekistan considered the cases in the first instance, consisting of 3 judges. The Supreme Court of the Republic of Karakalpakstan, the regions and the city of Tashkent Courts of Appeals, Cassation and Supervision of Judicial Bodies shall be composed of 3 judges. Criminal cases shall be considered by the relevant judicial boards of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan in the appellate and cassation procedure in the composition of 5 judges. Judges and people's deputies appointed or elected to this court shall take part in the criminal proceedings</p>

<b>Korrupsiya</b>	atama lotincha «corruptio» so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, «buzish», «sotib olish» degan ma’nolarni anglatadi. Ushbu ikki so‘z korrupsianing mazmun-mohiyatini belgilab beradi	the term is derived from the Latin word ‘corruptio’, which means ‘to break’, ‘to buy’. These two words define the essence of corruption
<b>Korrupsiya</b>	shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish	the unlawful use of one's position or position for personal gain or the gain of material or intangible benefits for the benefit of others, as well as the unlawful provision of such benefits
<b>Korrupsiya ga oid huquqbazar lik</b>	korrupsiya alomatlariga ega bo‘lgan, sodir etilganligi uchun qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan qilmish	an act with signs of corruption, for which the legislation provides for liability
<b>Korrupsiya ga qarshi kurashish siyosati</b>	davlat va jamiyatda korrupsiyaviy xavflarni kamaytirish, davlat organlari faoliyatiga jamoatchilik ishonchini oshirishga qaratilgan huquqiy, ma’muriy va tashkiliy chora-tadbirlar hamda ushbu qonunda belgilangan boshqa chora-tadbirlar	legal, administrative and organizational measures aimed at reducing the risks of corruption in the state and society, increasing public confidence in the activities of public authorities, as well as other measures established by this law
<b>Korrupsiya ga qarshi profilaktika</b>	korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatini amalga oshiruvchi davlat organlari tomonidan korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni sodir	activities aimed at identifying, systematically studying, analyzing and eliminating the causes and conditions that contribute to

	yetilishiga imkon yaratuvchi sabab va shart-sharoitlarni aniqlash, tizimli o‘rganish, tahlil etish va bartaraf etishga qaratilgan faoliyati	the commission of corruption offenses by government agencies implementing anti-corruption policy
<b>Korrupsiya ga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari</b>	qonuniylik, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi, ochiqlik va shaffoflik, tizimlilik, davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi, korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi, javobgarlikning muqarrarligi	the rule of law, the priority of the rights, freedoms and legitimate interests of citizens, openness and transparency, systemic, cooperation between the state and civil society, the priority of measures to prevent corruption, the inevitability of responsibility
<b>Manfaatlar to‘qnashuvi</b>	shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat ajburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatayotgan yoxud ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o‘rtasida qaramaqarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyat	a situation in which personal (direct or indirect) interest affects or may affect the proper performance of official or official duties, and a conflict between personal interest and the rights and legitimate interests of citizens, organizations, society or the state
<b>Poraxo‘rlik</b>	pora olish, pora berish yoki bujinoyatlarda vositachilik qilish	taking bribes, giving bribes or mediating in these crimes
<b>Pora berish</b>	mansabdor shaxsning o‘z xizmat mavqeidan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo‘lgan muayyan harakatni pora	to give material values or property interests to an official, directly or through an intermediary, knowing

	bergan shaxsning manfaatlarini ko‘zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga qonunga xilof ekanligini bila turib bevosita yoki vositachi orqali mansabdar shaxsga moddiy qimmatliklar berish yoki uni mulkiy manfaatdar etish	that it is against the law for an official to take advantage of his official position or to perform a certain action in the interests of the bribe-giver
<b>Jamoatchili k nazoratinin g shakllari</b>	davlat organlariga murojaatlar va so‘rovlар, davlat organlarining ochiq hay’at majlislarida ishtirok etish, jamoatchilik muhokamasi, jamoatchilik eshituvi, jamoatchilik monitoringi, jamoatchilik ekspertizasi, jamoatchilik fikrini o‘rganish, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan davlat organlari mansabdar shaxslarining hisobotlari va axborotini eshitish	appeals and inquiries to government agencies, participation in public board meetings, public hearings, public hearings, public monitoring, public expertise, public opinion polls, hearings of reports and information of public officials by citizens' self-government bodies
<b>Qonuniylik</b>	jamiyat a’zolarning huquq normalariga qat’iy rioya qilgan holda ularni amalga oshirishlariga aytiladi. Xizmat ko‘rsatish xodimlari kasb axloqining qonuniylik prinsipi qonunlarda, farmonlarda, buyruqlarda ko‘rsatilgan va belgilab qo‘yilgan huquq normalarining talablarini og‘ishmay amalga oshirish, mavjud qonunlarga qat’iy bo‘ysungan holda o‘ziga yuklatilgan xizmat vazifasini insonparvarlikka,adolatga, qonuniylikka asoslangan holda bajarishdir	members of the society are said to implement them in strict adherence to the norms of law. The principle of legality of professional ethics of service employees is to strictly comply with the requirements of the law, specified in laws, decrees, orders, to perform the duties assigned to them in strict accordance with existing laws on the basis of humanity, justice and legality
	aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish,	raising the legal awareness and legal culture of the

<b>Korrupsiya ga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari</b>	<p>jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish; davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish;</p> <p>korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, ularga chek qo‘yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish,</p> <p>korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta’minlash</p>	<p>population, the formation of an intolerant attitude to corruption in society; implementation of measures to prevent corruption in all spheres of state and public life; timely detection of corruption offenses, their suppression, elimination of their consequences, the causes and conditions that allow them, ensuring the principle of inevitability of liability for corruption offenses</p>
---	--	---

## **VII. ADABIYOTLAR RO'YXATI**

### **I. Rahbariy adabiyotlar**

1. Mirziyoev Sh.M. "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruzasi. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 48-b.

2. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –T.: "O'zbekiston". – 2017.– 102-b.

3. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 488-b.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2017-yil 13-iyundagi "Qonun va adolat ustuvorligini ta'minlash – barcha ezgu ma'lisadlarimizga erishishning eng muhim sharti" mavzusidagi ma'rzasidan [http://uza.uz/oz/politics/qonun\\_va\\_adolat-ustuvorligini\\_taminlash-barcha-ezgu-masadlar-13-06-2017?phrase\\_id=2579526](http://uza.uz/oz/politics/qonun_va_adolat-ustuvorligini_taminlash-barcha-ezgu-masadlar-13-06-2017?phrase_id=2579526).

### **II. Normativ-huquqiy hujjatlar**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2018.

2. O'zbekiston Respublikasining 07.07.2008-yildagi "Birlashgan Millatlar Tashkilotining korrupsiyaga qarshi Konvensiyasiga (Nyu-York, 2003-yil 31-oktabr) O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi to'g'risida" gi Qonuni.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldag'i PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni // "Xalq so'zi" gazetasining 2017-yil 8-fevraldag'i 28(6722)-soni.

4. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – T.: Adolat, 2018.

5. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. – T.: Adolat, 2018.

6. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. – T.: Adolat, 2018.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi "Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3723-son qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.05.2018-y., 07/18/3723/1225-son, 01.10.2018-y., 06/18/5547/1975-son.

8. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 14-yanvardagi O'RQ-515-son

«Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to‘g‘risida»gi Qonuni.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-iyuldagagi “Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6034-son Farmoni.

### **III. Maxsus adabiyotlar**

1. R.Kabulov, A.Otajonov va boshq. Jinoyat huquqi (Maxsus qism). Darslik / Mas’ul muharrir Sh.T.Ikramov. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2014. – 824-b.

2. Inog‘omjonova Z.F. Jinoyat protsessida sud nazorati. O‘quv qo‘llanma T.: TDYuI, 2016. – 379-b.

3. Tulaganova G.Z. va Abdullaev A.S. Jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligini ta’minalash. –T.: TDYuU nashriyoti, 2018. -72-b.

4. S.Sahaddinov. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual kodeksiga sharhlar. Umumiy qism. –T.: Yangi asr avlod, 2014.-10-b.

5. Usmonaliev M., Bakunov P. Jinoyat huquqi (Umumiy qism). Darslik. – T.: Yangi asr avlod, 2010. – 662-b.

Базарова Д. Адвокат как участник в досудебных стадиях уголовного процесса: монография/ Д.Б. Базарова; Рецензенты: Б.Б. Хидоятов, Рец. Д.М. Миразов; ТГЮИ. - Т.: Extremum press, 2011. - 192 с.

### **IV. Elektron ta’lim resurslari**

1. <http://www.lex.uz>
2. <http://www.norma.uz>
3. <http://www.gov.uz>
4. <http:// www.law.uk.edu>
5. <http:// www.legislature.ru>

## VIII. TAQRIZLAR

Д.Ж.Суюнова томонидан таёлланган Тошкент давлат юридик университети хузуридаги Юридик кадрларни халжаро стандартлар бўйича профессионал ўқитиш маркази Кайта тайёрлаш ва малака ошириш курслари учун тайёрланган “Жиноят одил судловининг асослари” модули йўкув услубий мажмуасига

### ТАКРИЗ

Тошкент давлат юридик университети хузуридаги Юридик кадрларни халжаро стандартлар бўйича профессионал ўқитиш маркази Кайта тайёрлаш ва малака ошириш курслари учун Д.Ж.Суюнова томонидан “Жиноят одил судлов” модули йўкув услубий мажмуаси тайёрланган.

Мазкур мажмуда Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2015 йил 12 июнданги “Олий таълим муассасаларининг раҳбар ва педагог кадрларини кайта тайёрлаш ва малакасини ошириш тизимини янада тақомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-4732-сон, 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Харакатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон, 2019 йил 27 августдаги “Олий таълим муассасалари педагог кадрларининг узлуксиз малакасини ошириш тизимини жорий этиш тўғрисида”ги ПФ-5789-сон, 2019 йил 8 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5847-сон Фармонлари, 2017 йил 20 апрелдаги “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПК-2909-сон, 2017 йил 27 июлдаги “Олий маълумотли мутахассислар тайёрлаш сифатини оширишда иктиносидёт соҳаҳари ва тармоқларининг иштирокини янада кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПК-3151-сон, шунингдек Вазирлар Махкамасининг 2019 йил 23 сентябрдаги “Олий таълим муассасалари раҳбар ва педагог кадрларини малакасини ошириш тизимини янада тақомиллаштириш бўйича кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 797-сон карориларида белгиланган устувор вазифалар мазмунидан келиб чиккан холда тузилиган.

Мазкур ўкув услубий мажмуаси тингловчиларда жиноят-хукукий фанларни ўқитиш методикаси, таълим-тарбия вазифалари, мазмунни, метод ва усусларини таҳлил этиш кўнижмасини шакллантириш, унинг ўзига хос хусусиятлари, методлари, воситалари, дарс ва унинг турлари ва тузилиши тўғрисида маълумотлар беради. Бундан ташкари, ўкув услубий мажмуада хар бир мавзуга доир маъруза матнлари, амалий машгулот материаллари, кейслар ва гlosсарийлар ҳамда адабиётлар рўйхати келтирилган.

Ушбу мажмua ўкув услубий мажмуасига кўйилган таалабларга тўлик жавоб беради ва уни омманий этном кизишига ыавсия берамиз.

“Жиноят-процессуал хукуки”  
кафедраси мудири, профессор

Д.Базарова